

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

Namangan davlat universiteti

TARIX FAKUL`TETI

JAHON TARIXI KAFEDRASI

"MUZEYSHUNOSLIK"
fanidan

ma`ruza matni

Namangan - 2009

Mazkur ma`ruza matni tarix fakul'teti 2-kurs talabalarini muzey tushunchasi bilan tanishtirishni, jahon muzeylarini vujudga kelishi, O`zbekistonda muzey ishi tarixi, mustaqillik yillarida muzey ishining rivojlanishi, muzey ishining asosiy xususiyatlari to`g`risida ma`lumot berishin o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan.

Tuzuvchi: katta o`qituvchi N. G`ofurov

NamDU o`quv uslubiy kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Bayonnoma № _____ " _____ " _____ 2009 yil

1-MAVZU: MUZEYSHUNOSLIK - ILMY FAN

REJA:

1. **Kirish**
2. **Muzeyshunoslikning predmeti**
3. **Muzeyshunoslikning asosiy tushunchalari**
4. **Muzeyshunoslikning metodlari**
5. **Xulosa**

Muzey ishi- jamoatchilik faoliyatining fan, tarbiya va madaniyati bilan alokada bulib turadigan uziga xos bir kismi sifatida jamiyat tarakkiyotining umumiy tendentsiyalardan chetta kolmagan.

Insonning xar tomonlama rivojlantirish ishida muxim axamiyatga ega bulgan muzey ishi darajasini ustirishda tuplagan tajribani nazariy tushunmasdan, xarakteristikasini, koidalarni urganmasdan turib erishib bulmaydi.

Muzey ishini muammolarini umumlashtiruvchi, muzey amaliyotida foydalanadigan va maxsus adabiyotlarda uz aksini topgan bilimlar majmuasi - muzeologiya yoki muzeyshunoslik deyiladi. Bu termin XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bulganligi karamasdan juda kuplab jaxon kishilarga urnashib kolgan. Ilgari mavjud bulgan "Muzeografiya" termini muzeylarga tegishli bulgan barcha asarlarga XX - asrning urtalarida boshlab esa muzeylar tavsifiga nisbatan ishlatila boshlagan.

Muzeyshunoslikning nazariy sistemasi tushuncha va metodlari XVI- asrdan boshlab shakllana boshlagan. Lekin fan sifatida sungi un yilliklarda shakllandi.

Muzeyshunoslik - ijtimoiy axborotni saklash vositasiga anglash va etkazish jaraynini urganuvchi ijtimoiy fandır.

II.

Xar kandy fan tadjikot ob`ekti va predmetiga ega buladi. Tuli fanlarning tadjikot ob`ektlari bir-biriga uxshash bulishi yoki butunlay mos tushushi xam mumkin. Muzeyshunoslikning ob`ekti- bu muzey ijtimoiy xodisa sifatidagi muzey ishidir. Lekin bu ob`ekt tarix, xususan madaniyat tarixini san`atshunoslik, sotsiologiya va boshka fanlar tomonidan urganilishi mumkin va ma`lum ma`noda urganilmokda.

Tadjikot ob`ektidan fark kilib konuniyatlarining ma`lum doirasi xisoblangan tadjikot predmeti doimo uziga xos bulishi kerak.

Agar tadjikot ob`ektga nisbatan oddiy va fanga material tanlash boskichidayok ma`lum buladigan balsa, fanning predmeti xech kachon tayyor xolda berilmaydi. U topilish va tuplanishi lozim.

Tadjikot predmetini xisobga olish - fanning eng muxim nazariy vazifalardan biri bulishi bilan birga, uning tarakkiyotning asosiy kursatkichi xisoblanadi. U metodologik fani bilan boglik va maxsus tadjikotlar natijasi xisoblanadi. Muzeyshunoslikning predmeti ijtimoiy axborot, olish va bilimlarni etkazish an`ana va extirolarni muzey predmetlari vositasida tuplash va saklash jarayoniga, muzey va muzey ishining vujudga kelishi, rivojlanishi va ijtimoiy faoliyati jarayoniga boglik bulgan ob`ektiv konuniyatlar doirasidir.

III.

Muzeyshunoslik predmeti tushunchasini yukorida berilgan ta`rifini tushunish uchun "Muzey predmeti", "Muzey", "Muzey ishi" kabi tushunchalirini taxlil kilish lozim buladi. Xozirgi kunda muzey predmeti inson faoliyati va tabiat xayotining bevosita natijasi bulishi asil yodgorlik sifatida kurib chikiladi. Mzuey predmetlarining buyumli va tasviriy axborot tashuvchiligi bilan muzeyning jamitda vujudga keladigan boshka xujjatli institutlardan fark kilishi aloxida ta`kidlab utiladi.

Inson tomonidan yaratilgan predmetlar ilgor tajribani tuplaganliklari, axborotni tuplaganligi va etkazganligi uchun xam "Tarixiy xotira" funksiyasini bajaradilar.

Muzey predmetlari nafakat bilimning birinchi manbai balki madaniy tarixiy kadriyatlar xamdir. Muzey predmetida insonning borlikka aloxida munosabati muzey extiyoji, muzey predmetlarini saklash extiyoji shaklida uz aksini tanishini aloxida ta`kidlab utish lozim.

Muzey predmeti - bu muzey tuplamiga kiritilgan va uzok saklashiga kodir bulgan, real borlikdan olingan muzey axamiyatidagi predmetidir.

Muzey predmetining kimmatliligi muzey shunoslik va ilmiy - soxaviy tadkikotlar jarayonida aniklanadi.

Muzey predmeti muzey faoliyatining, uning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning asosi xisoblanadi.

"Muzey", "muzey ishi" kabi tushunchalar xam muxim axamiyatga ega buladi.

Muzeyshunoslik uz tarakkiyotining barcha boskichlarida muzey fenomenini, uning jamiyatidagi urnini tushunib etishga xarakat kilib kelgan

"Muzey", ("muzey ishi") (kabi) ta`riflarni tushunish uchun bu muassasini kelib chikishini aniklash juda muximdir. Bu borada uning kelib chikish sabablarini urganish lozim.

Keng tarkalgan karashlardan biri shartli ravishda "filologik" deb ataladi va unga kura muzeylarning paydo bulishi aytik davrdagi ilxom parilari - muzalarning exromlari muzeumlarga taklidan kelib chikkan deyiladi. Lekin bu xolatda muzeylarning kelib chikishi muammosi umuman xal bulmaydi, chunki aytik muzeumlarning vujudga kelishi sabablari noanik koladi.

SHu bilan birga tarixiy amaliyotning guvoxlik berilishicha muzey muassasalari xar xil terminlar bilan xam atalishi mumkin. Masalan, V`etnam muzeylari "bao ta" - "yodgorliklar saklanadigan joy" - termini bilan ataladi. Demak termini uzicha xar xil mumkin bulish mumkin ekan va aynan V`etnam varianti muzeyning asl moxiyatini ochib beradi.

Muzeylarning vujudga kelishini tarixiy va etnografik materiallar ta`kilaganidek insoniyat tarakkiyotining insoniyat tarakkiyotining ilk boskichlardayok, balkim ibtidoiy jamiyatdayok mavjud bulgan ijtimoiy muzey etiyoji bilan 'oglash lozim "Muzey munosabatlari" ishi eng ilk ob`ektlari nimadan iborat bulganligini aniklashda uni "Moddiy boyliklarini tulash" bilan boglab kuymasligimiz kerak. Kuprok buyumlashtirilgan xotira, insonning ijtimoiy guruxda tutgan urnini tasdiklovchi isbot sifatidagi predmetlar saklanib kolgan.

Kadimgi, birinchi navbatda shark tsivilizatsiyasi Misrdagi "Xayot uylari" shumerliklarning Ura kolleksiyalari kabi muzey tipidagi kolleksiyalar rivojlanishiga guvox bulgan.

Urta asrlarda predmetlarni tuplash bilan xristian cherkovi keng kulamda (foydalana) shugullana boshladi va ulardan diniy afsonalarni xakligini iisbotlashda foydalandi .

Uygonish davrida muzeylarga ulkan bilim manbai sifatida juda katta e`tibor berila boshlandi.

Keyinrok muzey ajdodlar tuplangan tajribani saklovchi va kelajak avlodlarga etkazuvchi muxim muassasa sifatida tan olina boshlandi.

Fan va muzey amaliyoti soxasidagi keskin uzgarishlar kapitalizm davrida muzeyning ijtimoiy funksiyalarini yanada boyishiga olib keldi.

SHunday kilib muzey jamiyatning real dunyoning predmetlarinii tarixiy xotira, ijtimoiy axborotning xujjatli vositalari, estetik predmetlar shaklida saklash extiyojini kondiruvchi maxsus muassasa xisoblandi.

Muzeyning asosiy belgisi - ilmiy asosda tashkil etilgan va xisobga olish lozim bulgan muzey predmetlarini tuplash, saklash, konservatsiyalash, muzeyshunoslik va soxaviy fanlarning ilmiy metodlari bazasida tadkik kilish va ilmiy, ta`limiy-tarbiyaviy maksadlarda foydalanishlardan iborat. Umumlashgan formada muzeyning zamonaviy tushunchasini kuydagicha ta`riflash mumkin.

Muzey - bu madaniy-tarixiy, tabiy-ilmiy kadriyatlarni aniklash, muzey predmetlari vositasida axborotni tuplash va tarkatish uchun muljallangan tarixiy belgilangan, kupkiralni ijtimoiy axborot muassasadir.

Ma`lum tarxiy sharoitda muzeylar faoliyati ijtimoiy faoliyatning aloxida katlami sifatida - muzey ishining mavjud bulishi bilan belgilanadi. Uning tarkibiga muzeylarning amaliy faoliyati va yodgorliklarni asrash, muzeylar tizimi, muzey siyosati va konunchiligi, kadrlarni tayyorlash

va malakasini oshirish tizimi, soxaviy ilmiy, ilmiy - metodik va ukuv markazlari, maxsus davrlashtirish va nixoyat maxsus ilmiy fan muzeyshunoslik fani kiradi.

Ilmiy fanning eng asosiy belgilardan biri metod bulib, bunda bilish uslubi, borlikni ma`lum bir tomanlarini tadkik qilish jarayonida foydalaniladigan usullar tizimini tushinamiz.

Xar bir ilmiy fan tadkikot ob`ekti va predmetdan kelib chikib uzining metodini shakllantiradi.

Zaonaviy boskichda turli fanlarning metodlari shunchalik bir-biriga kirishib ketgan-ki ularni ajratib olishda kuplab kiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Masaln arxeologiyaga tuxtaladigan bulsak u nafakat tarix va manbashunoslikka oid metodlardan balki ximiya, fizika va botanikaga xos bulgan metodlardan xam tobora keng foydalanmokda.

Muzeyshunoslik tadkikot metodlarining xilma-xilligi bilan xarakterlanadi, ularning ayrimlari boshka fanlarning metodlari bilan kisman yoki tulikligicha mos tushadi. Bu tushunarli xos chunki muzeyshunoslik kuplab ijtimoiy va tabiy fanlar bilan yakindan alakada buladi.

Muzeyshunoslik metodlari uchun kuydagilar xarakterlidir:

1. Muzey predmetlarini tadkik qilishda ijtimoiy va tabiy fanlarning turli xil shakllaridan foydalanish. Maxsus va yordamchi tarixiy fanlar, san`atshunoslik, adabiyotshunoslikning metodlaridan keng foydaniladi.

2. Bir kator tabiy va ijtimoiy fanlardan mavjud bulgan dala tadkikot metodlardan foydalanish.

3. Bevosita jamiyat xayotini kuzatish metodlardan foydalanish.

4. Kurgazma soxasidagi tadkikotlar, muzey predmetlarini restovratsiya va konservatsiya kiliu ishida eksperemintal metodlaridan foydalanilishi.

Yukorida belgilab tadkikot uslublari tizimi birgalikda muzeyshunoslikning boshka ilmiy foydalardan farklovchi, shu bilan birga kuplab boshka alokasini kursatib beruvchi metodini tashkil etadi. Ilmiy fanning rivojlanishi fan tilining shakllanilishi bilan boglik. Fan tili - bu fan tomonidan foydalaniladigan va bilish natijalari uz aksini topgan tushuncha va terminlar sistemasidir.

Muzeyshunoslik boshka ilmiy fanlar kabi bilimlar sistemasidan iborat va ma`lum bir jamiyat tuzilmalarga ega.

Muzeyshunoslik tarixiy, nazariy va amaliy elementlarni kamrab oladi:

A. Muzeyshunoslikning tarixi va tarixiy manbashunosligi

B. Nazariya

V. Muzey manbashunosligi

G. Amaliy muzeyshunoslik

Muzeyshunoslik tizimiga kiruvchi barcha kismalar bir-biri bilan yakindosh alokada va uzaro boglik buladi. Amaliy muzeyning bir tomondan tajribasi tarixiy taxlil qilishga tayansa, ikkinchi tomondan - nazariy asoslarining ishlab chikarishga tayanadi.

Muzeylar jamiyat tomonlaridan oldilarga uziga xos vazifalarini bajaradilar.

Muzeyshunoslikning kuyidagi ijtimoiy funktsiyalari mavjud.

Birinchidan muzeylar tabiat va jamiyat tarakiyyotining xodisa, jarayon, konuniyatlari ilmiy xujjatlashtirish uchun muljallangan - ilmiy xujjatlashtirish funktsiyasi.

Ikkinchidan ular milliy va jaxon madaniyati manfaatlari yulida madaniy tarxiy yodgorliklarini asrash vazifasini bajarishga chakirilgan

Uchinchidan muzeylar ilmiy tadkikotlarning uziga xos markkazalari xisoblanadi, tadkikotchilik funktsiyasi; nixoyat jamiyat muzeylar oldiga xar tamonlama kamol topgan yangi zamon kishisiki tarbiyalash vazifasini kuyadi, ta`lim-tarbiyaviy funktsiya.

Muzeylar doimiy ravishda uz tuplamlarini boyitib borishlari va ularning strukturalarini takomillashtirib borishlari lozim.

Respublikamiz muzey tizimi kuydagi muzeylardan tashkil topgan:

1. Tarixiy muzeylar - tarixiy fanlar tizimi bazasidagi muzeylar (arxiologiya, etnografiya, xarbiy-tarixiy, maorif tarixi)

2. Badiy muzeylar san`at va san`atshunoslik tarixiga oid muzeylar

3. Tabiiy -tarixiy muzeylar uz faoliyatida tabiiy fanlarga tayanadigan muzeylar.
4. Texnik muzeylar
5. Adabiyot muzeylari
6. Kompleks muzeylar - bunday muzeylarga bir necha soxalarni birlashtirgan muzeylar, masalan Ulkashunoslik muzeylari misol bula oladi.

Muzeylarni profil guruxli klassifikatsiyasida tashkari ularning asosiy ijtimoiy vazifasiga karab ishlarga xam bulinadi. Muzeylarning uchta tipini ajratib kursatish mumkin: Ilmiy-tadkikot ommabop; Tadkikot-akademik; Ukuv muzeylari. Ukuv muzeylari odatda turli xil ukuv muassasalari koshida tashkil etiladi.

Muzeyshunoslikning predmeti, metodi va strukturasi tushinish bilan birga uning fanlar tizimida tutgan urni, boshka fanlar bilan alokadorligini aniklash mumkin. Muzeyshunoslikning fanlar tizimidagi urnini ayniksa uni tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlardankaysi birigategishli ekanligini aniklashda biz bir kator kiyinchiliklarga duch kelamiz. Chunki muzeyshunoslikning predmetlaridan ayrimlari xam tabiatning va xam jamiyatning rivojlanishiga tegishli bulgan ob`ektlar bilan boglik. Albatta xizirgi zamonda xam tabiiy, xam ijtimoiy fanlar chegarasida turadigan soxalar kuplab topiladi. Muzeyshunoslikning xamshunday fanlar katoriga kushish xam mumkin, lekin uning muzey predmetlari orkali bilimlarni anglash va jamiyatga uzatilishi xisobga olsak bu uni ijtimoiy fanlar katoriga kushimchaasos buladi. Muzeyshunoslik juda kuplab boshka fanlar bilan alokada buladi. Birinchi navbatda muzeyshunoslik urganuvchi ob`ektlari bir-biriga mos keladigan fanlar bilan alokada buladi. Bunday fanlar sirasiga tarix, arxeologiya, arxivshunoslik, manbaashunoslik, kushizmatika kabilar kiradi. SHuningdek pedagogika, psixologiya, axborot nazariyasi, dokumentalistika va boshka fanlar bilan xam uzviy alokada buladi.

Tarixiy muzeyshunoslik va tarixiy fanlar urtasida metodologik asosning birligi urganish ob`ekti va uslublarining bir kancha umumiyligi tarixiy muzeyshunoslik va tarixiy fanlarning uzviy boglikligini asoslaydi. Muzeyshunoslik boshka fanlar bilan xar tomonlama alokada buladi. Muzey ishining zamonaviy amaliyotini urganish muzeylarining fan va madaniyat tizimidagi rolini, xalkini ma`naviy tarbiyalashdagi rolini kundan kunga usib boayotganligidan dalolat beradi. Bu birinchi navbatda aloxida tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bulgan tarixiy profildagi muzeylarga ma`kuldir.

Tarixiy muzeylar faoliyatining mazmuni jamiyat rivojlanishi bilan uzviy boglikdir. Evropada zamonaviy muzeylar XVI-XVII asrlarda vujulga kela boshlagan. Bu kapitalistik ishlab chikarishning boshlangich davri fan, san`at, adabiyot, texnika va xunarmandchilik keng gullab-yashnashi bilan xarakterlanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar, dunyo buylab sayoxatlar. Kopernikning er shar shaklida ekanligi tugrisidagi fikrini isbotladi. Fan texnologiya ta`siridan kutildi. Kitob bosish vositasida bilimlar tez tarkala boshladi.

Mana shunday ulkan ruxiy parvoz davrida Evropening turli joylarida ishlab chikarish, ilmiy va boshka ijtimoiy extiyojlar munosabati bilan turli xil kollektsiyalar vujudga kela boshladi. Tarixiy va madaniy qiymatga ega bulgan buyumlar: aslaxaxonalar xuzurida xarbiy ulkalar kollektsiyalarini tuplash keng yoyila boshladi.

Ilmiy tadkikotlar kuprok muzeylar bazasida utkazila boshladi va bu maxsus adabiyotlarda uz aksini topdi.

Tarixiy muzeylar rivojlanishidagi yana bir muxim kadam Evropada burjua munosabatlari xali progressivrol' uynagan XVIII asrning ikkinchi yarmida tashlandi. Bu davrda muzeylar faoliyati ilmiy xarakter kasb eta boshladi. Muzey kollektsiyalari ilmiy tadkikotlar va tarixiy falarning rivojlanishiga yangi turtki berdiki bu uz navbatida muzeylar axamiyatining oshib borishiga olib keldi. Muzeylarga texnik tajriba xazinasi. ilmiy kadriyatlar va madaniy tarixiy meros xazinasi sifatida karala boshlandi. XIX asrga kadar nafakatantik davr balki ilk urtaasrlar tarixini urganish muzeylar bilan boglik edi, chunki aynan ushu erlarda zaruriy manbaalarning asosiy kismi mavjud edi. Keng tarixiy profildagi muzeylarning tashkil topishi burjuaziyaning iktisodiy va siyosiy mustaxkamlanish davriga tugri keladi. Muzey fikrining rivojlanishida burjua milliy

ongining shakllanishi xal kiluvchi axamiyatga ega buldi. Kuplab Evropa xalklarining milliy mustkillik, milliy uzligining saklash va tan oldirish uchun kurashi bu xalklar tarixini saklovchi va namoyish kiluvchi muzeylarga bulgan ijtimoiy extiyojni vujudga keltidi. Masalan: Venger milliy muzeyi, Venger tilini tiklash va venger tarixiy an`analarini saklab kolish uchun kurash ta`sirida vujudgakeldi. Mana shu goyalar asosida, Evropada yirik milliy muzeylar asos solindi va ular uchun menimental binolar kurildi. Bunga 1802 yilda Budapeshtdagi, Venger milliy muzeyi 1818 yilda Pragadagi milliy muzeyi 1828 yilda Berlindagi eski muzey kurulishi misol bula oladi. XIX asrning birinchi un yilliklariga kadar emis xalkining kupchilik kismi tarixiy va madaniy kadriyatlarini saklovchi muzeylarga kirish imkoniyatidan maxrum edilar. Nakomongakarshi kurashdagi muvaffakiyatlar nemis burjuaziyasida tarixiy utmishga bulgan kizikishni kuchaytirib yubordi. SHundan keyin Germaniyada xam keng xalk ommasi uchun muljallangan muzey va kolleksiyalar ochila boshlandi.

ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. Muzivedenie. Muzey istoricheskogo profilya. Ucheb. Posobiya dlya vuzov po spets "Istoriya" g` pod. Red. K.G.Levikina, V.Xrebsta - M;Vo`ssh.vuzov 1988 g
2. Obhestvovedeniya muzey respubliki Uzbekistan. - T;fan, 1988g
3. Lev`enin K.G, Razgon A.M "Экспозиция музея и историческая наука" - M; Vo`ssh.vuz, 1984 g
4. Sad`evna N.S "Muzeynoe delo v Uzbekistane" - T; fan 1975 g
5. Reves A.M "Metodika sozdanie narodno`x muzeev na predpriyatiyax i v kolxazax" - T;fan 1973 g

2-Mavzu: Urta Osiyoda muzeylarning shakllanishi

1. **Kirish.**
2. **Feodalizm davrida ma`naviy boyliklarni tuplash.**
3. **CHor Rossiyasi mustamlakasi davrida muzeyshunoslik xarakati**
4. **Xulosa.**

1.

Urta Osiyo xalklari kadimdan yakin SHark va Garb davlatlari, ya`ni Urartu,Misr, Treniya, Bobil, Rim kabilar bilan iktisodiy va madaniy alokalar urnatganlar. Urta Osiyo zaminidan utkan mashxur "Buyuk ipak yuli" Markaziy Osiyo va Xindistonni Urta dengizi mamlakatlari bilan boglar edi.

Bunday jozibali ulka barcha davrlarda chet el boskichlarining dikkati markazida bulgan. SHu sababli takdir takozosi bilanUrta Osiyoning tarixiy kisati juda ogir kechdi.

Doimiy kirginlar tufayli betakror saroylar, guzal shaxarlar, noyob inshoatlar vayronaga aylanib, yiginlar bebaxo ma`naviy boyliklar goliblar uljasi buldi.

Muxammad Narshaxiyning guvoxlik berishicha, arablar Poykand janglaridan xisobsiz tillo, kumush buyumlar kurol aslaxalar, kimmatbaxo kiyim kechaklardaniborat katta ulja bilan kaytganlar. Arab istelosi davrida xazinatuplash ma`naviy boylik jamgarmasi ichida durusrok siljishlar bermadi.

Urta Osiyoda mustakil samoniylar davlatiningbarpo bulishi bu birdan uzgarim kildi. Bu davrda saroy boyliklaridan tashkari, katta kutubxonalar, arxivlar barpo etildi. Tarix guvoxligicha,X asrdagi Buxoro va SHirok amirlari kutubxonalaridainsoniyat yaratgan xamma

nodir kitoblar bulgan.gaznaviylar suloloasining asoschisiMuxammad Gaznaviy xali juda kupkitoblar tuplaga

Mugul boskini Movorounnaxirdagi tarakkiyoti vayron kildi uning rivojlanishinideyarlu yuz yilorkaga surib yubordi.

Oradan 150 yil utgandan sung Urta Osiyoda fan va madaniyat kayta kurtaklay boshladi. Ayniksa Amir Temur tomonidan yagona markazlashgan davlat tuzilishi va samarkandningpoytaxtli kilish katta boyliklariningtuplashiga sabab buldi.Me'moriy yodgorliklar, makbaralar masjid va madrasalar saroylar kurildi.

Amir Temur zap etgan mamlakatlardan kadimiy kulyozmalar, xon, amirlarga tegishli yozilma va elchilik xujatlari,musulmon dunyosining mukaddas kitobi bulishi

"Qur`on-Usmon qur`oni"ning (VIII asr)nusxasini samarqanda keltirildi. Dunyoga mashxur Temur kutubxonasini barpo etdi.Temurning sevimlm nabirasi,sharqning buyuk allomasi olimi Mirzo Ulu`bek kutibxonasi yanada boyidi.

Amir Temurning nabirasi SHoxruxning o`li shaxzoda Boysunqir Xirotda kutubxonasini barpo etdi. SHarqshunos olim A.Yu.Yakubovning ta`rificha "Boysunqurning" nozik didi va chuqur ilmi tufayli Xirotda shunday katta kutubxona vujudga keldiki unda bir qancha guruh nafis surat ustalari, zargarchilar muqovachilar ijod qiladilar. Kutubxonada faqatgina nusxa olish, kitoblarni bezash emas balki filologiya, teksitologiya tadqiqotchilari olib berilar edi. 1442 yil shu kutibxonada Firdavsiyning "SHoxnoma" sini to`la tekis ko`chirib yozildi. Temuriylar davrida tasviriy, amaliy va memorchilik san`atlaridi ulkan namunalarga erishildi. Saroylar, madrasalar, manbalar v boshqa binolarni nafis suratlar, naqshlar bezash taraqqiy etdi. Bibixonim masjidi, Go`ri amir, SHoxi zinda, Axmad Yassaviy maqbarasi va masjidi, ishratxona, SHaxrisabzdagi Oqsaroy, Ulu`bek qurdirgan madrasalar o`zining ulu`vorligi bilan sharq me`morchiligining shox asarlari bo`lib ularda xalqimizning yuksakligidir va maxorati aql zakovati namoyon bo`lgan.

Bu davr savdo-sotiq xunarmandchilik shunchalar rivojlangan ediki Buxoro, Samarqand ustalari tomonidan ishlangan buyumlar dunyo bozorida yuqori baxolanar edi. Xirotda usmonlarining

Zargarlik buyumlari Samarqand, Buxoro duxobasi katta shuxratga ega edi. Temur davrida Movorounnaxr ustalarining ijodiy kurigi bo`lib turardi. 1469 yili Ali Isfoxoniylarning san`atiga ta`rfiga sazovor bo`ldi. Usta Guldon idishning ko`rgazmaga qo`yadi. Bu guldonda 32 xunarmandning ish uslubi kursatilgan edi.

Xunarmandlar o`z maxoratlarini yangi qurilgan masjid, maqbara va boshqa inshootlarda namoyon etar edilar. Masalan Bibixonim masjidi uchun ustalar tomonidan ishlangan shamdonlar va masjid darvozasi kandakorlik san`atining chuqqisi edi. Axmad Yassaviyning maqbarasi uchun Pabrizlik usta Abil Al-Azizning toifali mis qozon yasagan (1391yil) shamdonlarni va qandillarni esa Isfaxonlik usta yasagan edi. Go`ri Amirning 1405 yil Temur qurilgandan keyingi ichki ko`rinishi "Xarbiy memorlar muzeyni" eslashar edi. Maqbaraga qo`yilgan xar bir buyum nodir tarixiy va madaniy yodgorlik edi. Tarixchi Arab SHoxining yozilishicha "Maqbara ichiga soxibqironning" ishchilari, devorlarga qurol yaro`lari osilgan edi. Bu qurollar olishi kumishdan yasalgan bo`lib qimmatlilar la`l yoqut shamlari bilan bezalgan edi. Maqbara gumbazi ostida osmondagi yulduzlarni eslatuvchi olish, kumush qandillar osilgan edi. Bishsha qandil 4000 misqol tilladan yasalgan erga maqbara o`lchovida inom va duxoba gilamlar solingan edi. Temuriylar sulolasidagi Xusayn Bayqaro Hirotni go`zal binolar. Masjid. Madrasalar bilan obod etdi. SHE`riyat sultoni Alisher Navoiy bilan birga Hirotni shoiru fozillar bo`lga aylantirildi. SHu davrda tarixchi Xondamir,buyuk- mo`yqalam soxibi Kamollidin Bexzod ijod qildilar. Bu davrda xirom minoralarga san`at ustalari maktabi vujudga keldi. Sanoqsiz qo`lyozmalar ist`dodlilar tomonidan ko`chirildi va zarxarlar bilan bezatildi. SHarqshunos olim A.Yu. Yakubovskiyning yozishicha A. Navoyining juda katta, nodir qo`lyozmalarga boy shaxsiy kutubxonasi bo`lgan Bu kutubxonadan tarixchi Xondamir,musavvir Bexzod va boshqa olimu, fozillar foydalanganlar. Buxoro,Xiva xonliklarida xam nodir qo`lyozmalar,minorallar kompiyasini to`plab saroy va shaxsiy kutubxonalar barpo etish odat bo`lgan edi. Xiva xoni Muxammad Raxim II kutubxona, barpo etib uni dunyoning xar chekasidan keltirilgan nodir qo`lyozmalar bilan belgilanib borar

edi. O`rta Osiyoda birinchi bo`lib Xivadatashkil qilib, san`atni rivojlantiradi. XIX-asrda Xiva xonligi o`zining kitob xazinasi bilan dunyoga mashxur bo`ladi. Bu erda Arab, Fors, Tojik tilaridagi qo`lyozmalar o`zbek tiliga tarjima qilingan. Qo`qon xonligidaxam boy kutubxona bo`lib, nodir qo`lyozmalarga ega edi. Bu davrda O`rta Osiyoning yirik shaxarlari: Far`ona, Buxoro, Qo`kon, Toshkentda va boshqa shaxarlarda kitob ixlosmandlari bo`lib ular juda katta mabla` sariflab butun umrnodir qo`lyozmalar yiqqanlar. Masalan Toshkentda Jo`rabekning shaxsiy qo`lyozmalar kolleksiyasi mashxur edi. Boqijon boy, Qozi Muxiddin, Andijondagi Dukchi eshon kutubxonalari, Buxoroda yashagan kozi SHarifjon maxsum ziyoni kutubxonasi va undagi qo`lyozmalar nodirligi va qadimiyligi bilan mashxur edi SHunday qilib yuqoridagi fanlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki Urta Osiyo diyorida moddiy va ma`naviy yodgorliklarni tuplash asriy an`ana bulib milliy xususiyatlarga, islom dini urf-odatlariga rioya kilgan xolda amalga oshirilgan Urta Osiyolik buyuk allomalarning komusiy shox asarlari XII-asrdan Ovrupo mamlakatlarida lotin tiliga tarjima qilib dunyo fani rivojiga katta xissa qo`shdi. SHarq mamlakatlarida esa bu shox asarlar kutubxona olish fondiga aylandi. Kelajag avlod uchun avaylab saqlandi. Qadimdan ovropalik olimlar xukumdorlar O`rta Osiyo xonlarini tarixi, madaniyati va modiy yodgorliklarini egallashga xarakat qilardilar Keyingi davrga kelib O`rta Osiyodagi faqat erli mualliflarining qo`lyozmalari emas, balki sharqdagi daxolarining kamlarigina ma`lum, Ammo o`zi topilmagan asarlari xam xuddi shu erdan chiqish mumkin degan muloxazada bo`ldilar.

Darxaqiqat ularning taxminlari to``ri chiqdi va izchil olib borilgan xarakatlari natijasida O`rta Osiyoning ma`naviy xazinalari Ovropa, Osiyo davlatlarining mulkiga aylandi. Bu ishlar xilma-xil yo`llar bilan amalga oshirildi. Xonliklarga kelgan elchilar sov`a sifatida berildi, savdogarlar ataylab kelgan sayyoxlarni xarakatlari o`rnidagi vositachilar orqali va bosqinchilik xarakatlari tufayli xorijiy mamlakatlarga chiqa boshladi. Masalan 1740 yili Eron shoxi Nodir shox O`rta Osiyoni bosib oladi va Amir Temur maqbarasidan ko`p yodgorliklarni oladi. A. Temur qabri ustidagi kefriy toshi, Soxibqironing maqbaraga qo`yilgan oltin sonli qilich va qalqonlari, qabr ustiga qo`yilgan Qur`onni Samarqanddan bosib olgan be xisob o`ljalari ichida olib keladi. Ammo Temur qabir toshi yo`lda sinib qolganlii sababli tezlikda qaytaradi.

1831-1833 yillarda Ost-Indiya kompaniyasining lieytenanti Aleksandir Bors Buxoroda yasha` qadimgi tilla va kumush tangalarini yi`adi va 200 dan ortiq nodir komplektsiyasini barpo etib, Britaniya muzeyiga taqdim etadi. Xozir bu komplektsiya bebaxo xisoblanadi.

O`rta Osiyo boyliklarini Rossiya mulkiga aylantirishda rus olimlari ayniqsa jonbozlik kursatdilar.

Peterburgdagi Osiyo muzeyining direktori sharqshunos olim X.O.Frenk 1834yil O`rta Osiyodan izlab topilishi mumkin bo`lgan. SHarq mualliflariga mansub "Yuz asarning" xronologik ro`yxatini tuzib chiqdi.

1869 yildan plashli o`lja yi`ish choralari ishlab chiqildi. Saldat ofitserlar qullariga Peterburgga yozilgan tavsiyanoma berilib, qanday narsalarga axamiyat berishlik ko`rsatilgan edi.

1869 yili Samarqanddan Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.fon Kaufman musulmon dunyosining muqaddas kitobi VII asr Kufa qo`l yozma yodgorligi "Usmon Qur`oni" ni peterburgga imperatorga jo`naydi.

1870 yili Buxoro amiri fuqorolarini bostirish baxonasidagi xarbiy yurishda SHaxrisabz va Kitob bekliklariga qarashli joylardan 97 jild qadimiy qo`l yozmlar topib olindi.

Xiva xonlikning saroyi talantaroj qilindi. Xonning shaxsiy 200ta pul yasaydigan qolib 25 put tilla va kumush, xon muxri 200 dan ortiq qadimiy tangalar bexisob qimmatli toshlar va zargarlik buyumlari Peterburgga jo`natildi.

Qoqon xonligi xazinasi qismati xam shunday bo`ldi.

1985 yilda Toshkentda arxeologiya, etnografiya va anrologiyani sevuvchilar to`garagi tashkil etlib unga Bartol'dning shogirdi boshchilik qildi.

1898 yilda Andijon qo`z`olonining sarkari Dukchi Eshon kutubxonasi musodara qilindi. Undagi 194 nodir qo`lyozma tezlikda Peterburga jo`natildi.

Rus tarixining namoyondalari o`zlarining Turkistonda olib borgan ilmiy va yodgorliklarini to`plash ishlarida maxalliy muxlislarga tayan dilar. Masalan: Samarqandlik Mirzo Qosimov, toshkentlik savdogar Akram Asqarov, Samarqandlik Mirzo Abdulla, Buxoriy, entograf SHoximardon Ibroximov, Samarqandlik Abu Said Maxsum, arxiolog olim Turdi Mirziyosov va boshqalar.

CHor xukumati Turkiston o`lkasi xalq ommasiga milliy jixatdan o`zini anglash uchun imkon bermas edi, chunki ular orasida tarixiy bilimlarni keng tashviqot qilish va ular etiborni qadimiy yodgorliklar qimmatiga jalb etish chorrimning mustamlakasiyosatiga putur etkazadi, deb xisoblar edilar. Lekin O`rta Osiyoni o`z mustamlaka mlki deb bilgan chorrim beqiyos boylklarni o`zlashtirish uchun Turkistoni ilmiy asosda o`rganish zarurligini yaxshi tushinar edi.

Qisqa vaqtichidaulka miterologiyasi, zoologiya, kumizmatiksi etnolografiya, flora, fauna dunyosiga oidatalib kolektsiyalar to`pladi.

SHu munosabat bilan tarqoq komplektsiyalarni birlashtirish va ularni Peterburgga tvxtalishi uchun saralash markazi lozim bo`lib qoladi. Buning uchun qulay markaz muzey xisoblanibo`lkada muzey tashkil etish masalasiko`tarildi. Jumladan A, P, ferdchenko Turkiston general- gubernatoriga tayyorlangan axborotda "Turkistonni" muvoffaqiyatli rivojlantirishi uchun u bilan asosli ravishda tanilib chiqish kerak, muzey esa Buning esa yaxshi vositasidir", deb yozgan edi.

1876 yilda birinchi bo`lib Toshkent muzey (hozirgi O`zbekiston tarixi davlat muzeyi) ochildi. 1896 yili Samrqand, 1898 yili Ettisuv, 1899 yili Far`ona va Kaspiy orol (Ashxaobod) o`lka muzeylari barpo etildi. Muzeylarda xar xil aaralash quralash ekspanashlar bo`lib etnografiya, texnika, tabiat tarixi, arxiologiya, qishloq xo`jaligi, maxaliy qurol yaroqlar, ip-gazlamalar, kitoblar, yozuvqurollari qo`yilgan edi.

1917 yil oktyabr to`ntarilishdan keyin muzeylarni qayta tashkil qilish bilan bu xasharda yangi muzeylar xam tashkil etildi. 1922 yilda O`tish va san`at yodgorliklarini saqlash komisiyasini Turkom staris tuzildi.

Agar Rossiyada 1918-1923 yillar davomida 250 dan ortiq yangi muzeylar tashkil etilgan bo`lsa Turkistonda bu ko`rsatkich 4 tani tashkil etdi.

Keyingi yillarda xam talonchilik va noxaqlik shu tariqa davom etib keldi.

3-Mavzu: Uzbekistonda muzey ishi tarixi.

REJA:

- 1. Turkistonda dastlabki muzeylarning vujudga kelishi.**
- 2. Urushdan avvalgi yillarda muzey ishi va yodgorliklarga munosabat.**
- 3. Urush yillarida va urushdan keyingi yillarda muzey faoliyati.**
- 4. IKOM va uning maksadlari.**

Urta Osiyodagi xususan, Uzbekistondagi muzey ishi tarixi hozirgacha xam tadkikot ob`ekti bulmagan. SHuning uchun bu masalaga oid adabiyot oz. Takdikotchilar G.N. CHabrov, B.V. Luninning kitob va ishlaridan, G.Ya. CHefal va E.B. Zabrodin, M.M. Tsvibakning matbuotda nashr etilgan makolaridan va A. Sodikovaning bir kator nashrlaridan bu soxa tugrisida ma`lum ma`noda ma`lumot olishimiz mumkin.

CHor xukumati davrida "kadimgi madaniyatni urganish va yodgorliklarni kuriklash fakat foydasizgina bulib kolmay, balki zararli xam edi" deya kayd kiladi V.V. Bartol'd uz asarlarida. CHunki CHor xukumati kadimgi yodgorliklarni muxofaza kilish, uz maksadlari yulida foydalanishni afzal bilishgan va shuningdek, bu ulkaga past nazar bilan karaganligi uchun madaniy yodgorliklarga e`tibor bermagan. Xatto arxitekturasiga xam past nazar bilan karalgan. Bu davrda Urta Osiyo tarixi va madaniyati uchun bebaxo xisoblangan kupgina nodir

kulyozmalar, kimmatbaxo buyumlar chet ellarga tashib ketildi. CHorizm bu ulkaga past nazar bilan karasada uni uzining SHarkdagi istexkomi, boyligi manbai sifatida urganmasa bulmas edi. SHu sababli bu ishga kup rus ziyolilar jalb etildi. Bu olimlar katori A.P.Fedchenko va I.V Mushketovlar xam ulkaning geografiyasi, botanika va zoologiyasini urganish bilan birga tarixi va etnografiyasiga oid xam ma`lumotlar tuplay boshladilar. Uzbekistonda dastlabki muzeylarning tashkil topishiga yukoridagi olimlar va V.F. Oshanin, V.F.Bartol'd kabi takdikotchilarning tuplagan materiallari va kolleksiyari xam asos buldi. Jumladan, A.P.Fedchenko Turkiston general-gubernatoriga tayyorlagan axborotida Turkistonni yaxshirok urganish uchun muzey tashkil etish taklifi bilan chikadi. Ikkinchi marta bu masala 1871 yili (OLEAЭ)- tabiatshunoslik, antropologiyasi va etnografiyasi xavaskorlari jamiyatining Turkistondaga bulimi majlisida kutarildi. 1873 yil Toshkent ilmiy jamoatchiligi Sirdaryo oblast' xarbiy-general gubernatoriga muzey ochish tugrisidagi iltimosnoma bilan chikadi va rad javobini oladi. SHundan keyin muzey ochishning tashabbuskori A.P.Fedchenkoning izdoshi, dusti V.F. Oshanin uzi boshchilik kilayotgan ipakchilik maktabidan muzey uchun bir necha xona ajratib beradi. Nixoyat 1876 yili 9 yanvarda Sirdaryo oblast' xarbiy-general gubernatori, general-leytenant N.Golovochev muzeyni masalasi buyicha shu soxada bir necha takdikotchilardan ibora kengash chakirdi. Kengashda tabiat tarixi, kishlok xujaligi, etnografiya, botanika, sanoat va boshka bulimlar buyicha kolleksiya tashkil etishga karor kilindi. I.V.Mushketov, D.L.Ivanov singari kuppina takdikotchilar sayoxatlari paytida tuplagan kush, balik, usimlik va ma`dan kolleksiyalarini muzeyga topshirdilar. SHunday kilib 1876 yil Urta Osiyoda birinchi muzey tashkil topdi va shundan e`tiboran Urta Osiyoda bosh muzeyning mavjudligi rasman tan olindi.

1877 yil yanvarda muzey etnografiya, texnik ishlab chikarish, kishlok xujaligi, tabiat tarixi va arxeologiya buyicha 1500 dan ortik predmetlarga, 800 kadimiy tanga va medallarga ega edi. Muzey ancha shakllangach, 1877 yildan xavaskor tabiatshunoslar jamiyatining Turkiston bulimi a`zolari komitetiga raxbarlik kiluvchi statistika komiteti ixtiyoriga utkazildi. Uning mudiri "Turkistanskie vedemoti"ning sobik redaktori N.A.Maev bulib, muzeyga bino berilmaganligi sababli uni uz uyiga joylashtirdi. Muzey ta`minoti uchun arzimas mablag (300 sum) ajratilar edi xolos, yana ayrim shaxslar tomonidan uncha-muncha exsonlar tushib turar edi. Aslida Maevning xisob kitobiga karaganda, yiliga 1600 sumlik mablag talab etilardi. Bu muzey 4 bulim -etnografiya va texnika, tabiat tarixi va arxeologiya, numizmatika, kishlok xujaligidan iborat bulib, maxalliy suratlar va turli kolleksiyalar bilan boyitilgan edi.

1888 yil muzey nizomi ishlab chikilib, tasdiklandi. Unda muzey ixtisosi, vazifasi, ish xarakteri belgilab berildi. Muzeyga raxbarlik kilishi besh kishidan iborat Nazorat komitetiga yuklandi. Ustavga muvofik muzeyga geologiya, botanika, zoologiya, etnografiya, arxeoliya, numizmatika, sanoat va kishlok xujaligi buyicha materiallar tuplash va saklash xukuki berildi. Muzey ekspozitsiyalari "Ommaning Urta Osiyo asarlari bilan tanishuvi va tuplangan materiallarni olimlar uz saxalari buyicha urganishlari uchun" (UzSSR. M.D.A, I-1 fopt 16-ruyxat 359 ish, 32-varak) ochildi.

Muzey va uning bulimlari bir tekis rivojlanmadi, unga ijtimoiy muxit va e`tiborsizliklar xam uz ta`sirini utkazdi. Xatto 1883 yil muzey xalk kutubxonasi bilan kushib yuborildi. Birok 1776-80 yillarni muzey rivoji uchun samarali buldi deyish mumkin. 1885 yil ziyolilar uyushtirgan arxiologiya tugaragi xam 1889 yil uz tugaraklari materiallarining muzeyga topshirib, uni yanada boyitdilar. Muzey ishi soxasida xam biroz siljish buldi. 80-yillar boshida inventar ruyxatini tuzish ishlari boshlandi. 1886 yil E.F.Kal' numizmatika, etnografiya, arxeoliyaning ayrim materiallariga katalog tayyorladi. N.A.Maev (1889 y) zoologiya, kolleksiyalarning kataloglarini tuzdi. Urta Osiyodagi ikkinchi muzey 1896 yil 21 iyulda Samarkandda ochildi. 1884 yil yangi Margilonga kishlok xujalik va davlat mulkini ministri kelishi munosabati bilan tashkil etilgan sanoat va kishlok xujalik kurgazmasi Fargona muzeyining ochilishiga asos soldi. SHundan sung birin-ketin boshka joylarda xam muzeylar ochila boshlandi. Misol uchun 1899 yil Ashxobot muzeyi ochildi.

2. 1918 yil 19 setyabrda RSFSR Xalk komissiyalari Sovetininng sanoat asarlari va kadimgi noyob narsalarni chet elga olib ketishni xamda ularni maorif xalk komissariyatiga

karashli muzey organlarining oldindan chikarilgan karori va ruxsatsiz sotishini takiklash tugrisidagi dekreti imzolandi. Uz navbatida TASSR Xalk komissarlari soveti xam 1921 yil 31 iyulda Turkiston Respublikasi xalkining madaniy xazinasi xavfini yuzaga keltiruvchi san`at asarlari, kadimiy narsalar va ilmiy kolleksiyalarini chet elga olib ketishni takiklash xakidagi karorni chikardi. SHunga muvofik eksport komissiyasiga magazin xamda bozorlarda kadimgi noyob narsalar, xalk maishiy-ruzgor buyumlarni sotish ustidan nazorat kilish vazifasi topshirildi.

RSFSR Xalk komissiyalar soveti 1918 yil 5 oktyabrda "ayrim shaxslar, jamiyat va muassasalar ixtiyoridagi san`at va kadimgi yodgorliklar ruxatini tuzish, ularni xisobga olish va kuriklash xakida" dekret chikardi. Ana shu dekretga binoan, barcha madaniy yodgorliklar kimga tegishli ekanligidan kat`iy nazar, davlat ximoyasi ostiga olindi. TASSR Xalk komissiyalari sovetining 1920 yil 31 iyuldagi "Turkrespublikadagi ayrim shaxslar va jamiyatlar ixtiyorida bulgan san`at asarlari va kadimgi yodgorliklarni ruyxatdan utkazish, xisobga olish xamda kuriklash xakida"gi maxsus karori muzey organlari zimmasiga ma`muriyat yukladi: rasmiylashtirish va xisobga olish tartibi Turkkomstarining maxsus instruktsiyasi bilan joriy etildi. Karorda kursatilishicha, kayta ruyxat kilingandan keyin Turkomstaris xisobida koldirilgan majmua xolidagi va aloxida san`at yodgorliklari davlat nazorati ostida buladi, ularni chet elga, shuningdek, TASSR tashkarisiga olib chikish ta`kiklanadi. Ularni ta`mirlash, tuzatish yoki kayta ishlash uchun albatta Turkomstaris va uning joylaridagi organlari ruyxatidan utkazish shart edi.

Yukoridagilardan kurinib turibdiki, markazdan chikarilgan qarorlar Turkistonda juda kech amalga oshirilgan, buning natijasida juda kup nodir kitob va kulyozmalar, kimmatbaxo buyumlar chet ellarga tashilib ketildi, bebaxo madaniy yodgorliklar talon-taroj kilindi. Bu kabi masalalarni xal kilish, muzey tarmoklarini boshkarish uchun maxsus organ-muzey ishlari va kadimgi yodgorliklar, san`at va tabiatni muxofaza kilish buyicha RSFSR Davlat komiteti tuzildi. Xuddi shunday muassasa milliy respublikalarida xam tashkil etildi.

Turkrespublika Markaziy Ijroiya komitetining 1920 y 30 yanvardagi dekretiga muvofik bu vazifa Turkrespublika Arxivlar markaziy boshkarmasiga yuklatildi. Birok bu boshkarma uz zimmasiga yuklatilgan vazifalarni xayotga muvofakkijatli tadbik etishga ojizlik kildi. SHu munosabat bilan tabiat, san`at obidalari va utmish yodgorliklarini saklaydigan, muzeylar tashkil etish va ularni kuriklash ishni bilan shugullanadigan maxsus tashkilot tuzish tugrisidagi masala yuzaga keldi. Turkomstaris xuddi shunday tashkilot buldi. Turkomstaris tuzilishi jixatidan muzey, kadimgi yodgorliklar va san`at asarlarini muxofaza etish xamda, ta`mirlash, arxeologiya va tabiatni muxofaza etish singari turt sektsiyaga bulindi. Komitet yodgorliklarni xisobga olish va kuriklash borasida katta ishlar olib borildi, koordinatsiyalovchi ilmiy-takdikot markaziga aylandi. Takdikot ishlariga akademik V.V.Bartol'd, professor A.A.Semyonov, A.A.Divaeov, V.L.Vyatkin, M.E Masson, L.V.Oshanin kabi yirik olimlar jalb etilgan edi. Turkomstaris katta vakolatga ega edi. Jumladan, uning Turkrespublika Xalk komissariyati tasdiklagan barcha farmoyishi va tadbirlari majburiy xisoblanardi. Komitet muzey ishlari va kadimgi yodgorliklar xamda tabiatni muxofaza kilish mafaati uchun tadvikotchilar bilan ular olib borayotgan ishlardan foydalanish buyicha shartnoma tuzish mumkin edi. Birorta ilmiy kolleksiya xamda uning ruxsatnomasisiz Respublikadan tashkariga olib ketmasdi. Bundan tashkari, Turkomstaris fauna va floraning jonli namunalarini respublikadan tashkariga etkazib berish xukukiga ega bulib, bu tarixiy va tabiiy yodgorliklarni xisobga olish imkoniyatiga xam ega edi.

Urta Osiyoda milliy chegaralanishning utkazilishi va Uzbekiston SSRning tashkil topishni munosabati bilan Turkomstaris 1925 yilning SSR maorif xalk komissariatiga Glavnaukasining Urta Osiyo ekanomik. Soveti va muzey bulimi xuzuridagi muzey ishchilarii yodgorliklar, san`at va tabiat obidalarni muxofaza kilish buyicha Urta Osiy komiteti Sredazkomstaris kilib uzgartirildi.

Urushi yillarida kurgina muzeylar binolarini evakuatsiya kilgan muassasalar uchun bushati6 berdi. Muzey tarmoklari vaktincha kiskardi. Misol: tabiat va politexnika muzeyi birlashdi. San`at, Adabiyot va Uzbekiston tarixi muzeylari xam bir nom ostida birlashtirildi. Muzey xodimlarining kuplari frontga kendilar. Front orkasida kolganlar esa sidkidildan mexnat

kildilar. Ular Vatanparvarlar mavzusida bir necha ekskurssiyalar turkumini yaratdilar. Xalk orasidagi ommaviy-siyosiy ish oliḡ bordilar. Muzeylarning tarix bulimida kurgazma shaklida "Ulug Vatan urushi" deb nomlangan maxsus bulim ajratildi. Bu jangchilarni frontga kuzatish, bu jarayondagi tantanali mitinglar front ortida mexnat kilayotganlar frontga junash xakidagi xat va arizalar xamda suratlari jang maydonlarida Uzbekistonliklarni jasoratlari aks etgan eksponatlar uz ifodasini topgan edi. Brest kalʼasini oldida, mashxur I.V.Panfilov nomi 8-dviziyasida, partizanlikda va jang maydonida jasorat kursatgan uzbek farzandlarining kaxramonliklari bu bulimdan urin oldi.

Muzey xodimlari maktab ukuvchilari va barcha mexnatkashlarga Ulug Vatan urushi xakidagi materiallarni yigish va saklashga yordam berishlarini surab murojat kildilar. Vatan Urushi kaxromonlarining frontdan turib yozgan xatlari, frontga yordam tugrisidagi utgan majlislarning karorlari, usha davrda chikkan bir necha gazetalarning tuplamlari va front xakida kuplabxujjatli materiallar yigildi. Muzey ilmiy xodimlari respublikamiz sanoat korxonalaridan kombizonlar, fufaykalar, xarbiy kiyim-boshlarining komplektlarining va boshka dikkatga sazovar materiallarni yigdilar. SHu katori jangovar varakalar, devoriy gazetalar, Urush davri front va front orkasidagi vokealar tuushirilgan kinolentalar va fotomateriallar tuplandi.

Urush yillarida muzey ekspozitsiyalari tematik printsipda kayta kurulganligi tufayli obzorli ekskursiyalar xam tematik asosga utdi. Tematik ekskursiya uz mazmuniga kura obrazli ekskursiyalardan berilgan mavzu buyicha asosiy maʼlumotlarni izchil bayon etishi, masalalar mazmunini tinglovchilarning siyosiy karashlarini kengaytirish va ularda taʼsirchanlikni yanada oshirish maksadida eksponatlar moxiyatini ochib berish, asosli tushintirishi bilan farklanardi.

Urushning dastlabki yillarida statsionar va kuchma kurgazmalar tashkil kilish ommaviy-okartuv ishining keng rivoj topgan shakliga aylandi, ulardan eng mashxuri "Vatanimiz jasoratnomasi" (1942y.) mavzusidagi kurgazma buldi. Muzey xodimlari keng omma urtasida frontdagi jasorat va front orkasidagi fidokor mexnatkashlar xakida taʼsirli lektsiya va suxbatlar utkazdilar muzeyda tashkil etilgan "Uljalor kurgazmasi" kuplab tomoshobinlar va matbuot eʼtiborini tortdi. Unda urushda kulga kiritilgan nemis kurollari, frantsuz miltiklari turli davlatlarda ishlangan ashyolar namoyish etildi.

Ulug Vatan urushi yillarida uzbekistonda Sobik ittifokdosh respublikalardan farkli ularok, fan, ayniksa ijtimoiy fan salmokli rivoj topdi. Bu urush boshlangandan sung kupgina ilmiy takdikot institutlari SHarkshunoslik va boshka kuplab institutlarning Uzbekistonga kuchirilishi bilan izoxlmanadi. Bu esa muzey faoliyatiga xam uz taʼsirini kursatadi. Tanikli arboblarprdan tashkil topgan Ilmiy Kengash yordamida moddiy va maʼnaviy yodgorliklarni urganishi ularni ilmiy ishlash, Uzbekiston tarixini urganishi va ayrim masalalar buyicha tadjikotlar utkazish imkoniyati ochildi. 1943 yil 27 sentyabrda "Uzbekistoe SSR Fanlar Akademiyasini tashkil etishi xakida"gi karoridan sung tarix muzeyi xam ilmiy-tadjikot va siyosiy okartuv ishlarini olib boruvchi markaziy muzey sifatida sanʼat muzeyidan ajrab chikdi va Fanlar Akademiyasi tarkibiga kiritildi. Tabiat muzeyi Fanlar Akademiyasi tarkibiga kiritildi. SHu tarika bu muassasalar faoliyatida yangi saxifa ochildi.

Urush yillarida muzeylarning kupi uz binosidan ajragan, xodimlari urushga ketib, malakali kadrlar etishmas edi. Muzey xujaliklarini yangidan tashkil etish, ekspozitsiya mutaxassislik-lap tayyorlash endi muzey ishi oldida turgan dolzarb masala edi. Kurgazmalarining ilmiy malaka etishmasligi sabab yaxshi tashkillanmaganligi bois muzeylar tomoshabinlar eʼtiboridan kola boshlagan edi. SHu tufayli muzey ishlarini yaxshilash borasida karorlar kabul kilindi. 1946-53 yillar muzeylar kurgazma tipidagi ekspozitsiyalar yaratish yulidan bordi. 1953 yildan boshlab kupchilik muzeylarda ekspozitsiyalarni kurishda muayyan burilish yuz berdi, ishga ilmiy yondashish, masalalarni uziga xos uslubda xal etishga kirishildi. Asta-sekin muzeylar tarmoklari kengaydi, yangi muzeylar, ulkashunoslik muzeylari tashkil topdi. Davr talabi bilan buyuk tarixiy vokealar va asosiy arboblar faoliyati bilan boglik muzeylar ochildi. (Ulugbek, X.X. Niyoziy, S. Ayniy muzeylari).

Fan soxasidagi yutuklar muzeylar tarkkiyotining belgilaydi. Moddiy va maʼnaviy yodgorliklar, ayniksa nodir va noyob tarix fani, tabiatshunoslik, texnika, adabiyot sanʼat soxasida

turli muommolarni urganishda uziga xos bebaxo manbalardir. Bu yunalishda uzbek muzeylarining ta'sir doirasi xalkaro maydonga chikish bilan yanada kengayib bormokda. Barcha kit`alar mamlakatlari bilan kolleksiyalar, kurgazmalar almashinish keng yulga kuyilmokda. Xozirgi paytda jaxondagi barcha mamlakatlar bilan madaniy aloka olib borilayotir.

Madaniy alokalarda muzeylarning dunyo madaniyatlarini uzaro boyitish xamda xalklar urtasida uzaro ishonchni rivojlantirishdagi urni bekiyosdir. YuNESKO buyicha xalkaro markaz-IKOM tashkil kilingani xam muzeyning jamiyatda usib borayotdan mavkeyidan dalolat baradi. IKOM xalkaro miqyosida turli ixtisosdosh muzeylarning ish tajribasini uzaro almashinishga xizmat kursatuvchi markaz sifatida yuzaga keldi. Uning asosiy vazifasini kuyidagilar tashkil etadi:

a) muzeylar va muzeyshunoslik buyicha ayrim mutaxassislar ishini koordinatsiyalam xamda ularning xalkaro xamkorligini rivojlantirish;

b) jaxondagi barcha muzeylar xamda muzeyshunoslik buyicha ayrim mutaxassislarni xalkaro va madaniy-okartuv tashkilotlari bilan xamkorlikda ishlashga jalb etish;

v) xalklar urtasida uzaro tanishuv va xamkorliknin mustaxkamlash.

Bu vazifalarning muzeyshunoslik buyicha xalkaro seminarlar, koferentsiyalar, komandirovkalar tashkil kilish va tadjikotlar utkazish yuli bilan amlga oshiriladi.

Xalkaro muzey kengashining oliy organi -Bosh Assambleya 3 yilda bir marta chakiriladi.

Tayanch iboralar.

Muzey nizomi, OLEAƏ, Turkkomstaris, "Uljalor kurgazmasi", Sredazkomstaris, Tematik ekskursiya, obzorli ekskursiya, statsionar va kuchma kurgazmalar, kataloglar, IKOM, inventarlarni ruyxatga olish.

Nazorat savollari.

1. SHu kungacha muzey ishi tarixi kay darajada urganilgan?
2. CHor xukumati davrida kadimiy madaniy yodgorliklarga e`tibor kanday bulgan?
3. Urata Osiyoni ilmiy urganishga rus takdikotchilarning jalb etishi xakida nimalarni byuilasiz?
4. Muzey ochish tugrisidagi dastlabki xarakatlar va ularning asoschilari xakida kanday ma`lumotlarga ega buldingiz?
5. Urta Osiyodagi ilk muzey kachon ochilgan va uning faoliyati xakida suzlang.
6. Fargona muzeyi va uning ochilishi xakida nimalarni bilasiz?
7. Muzey nizomi va muzey ishi tugrisida kanday bilimga egasiz?
8. 1981 yil 29 sentyabrda madaniy yodgorliklar xakida kanday xujjat imzolandi?
9. Turkkomstaris kanday tashkilot va uning vazifalari? Turkkomstaris kanday vakolatlarga ega?
10. Turkkomstaris kanday vakolatlarga ega?
11. Sredakomstaris kay tarika vujudga keldi?
12. Urush yillarida muzeylar faoliyatida kanday uzgarishlar sodir buldi?
13. Muzey xodimlarinig urush yillaridagi fidokorona mexnatlari xakida nimalarni bilasiz?
14. "Vatanimiz jasoratnomasi" va " Uljalor kurgazmasi " kanday ma`rifiy va tarbiyaviy axamiyatga ega edi?
15. '1943 y 27 sentyabr' Tarix muzeyi takdirida kanday burilish xosil kildi?
16. Urushdan keyingi yillarda muzey xodimlari va muzeylar oldida turgan dolzarb masalalar nimalardan iborat edi?
17. Tematik ekskursiya va obzor ekskursiyalarning farki?
18. IKOM nima?
19. IKOMning maksadlari xakida ma`lumot bering?
20. IKOMning raxbarlik organi nima?

Manba va adabietlar.

1. Muzeyshunoslik. Moskva.1988 yil.
2. N.Sodikova. Madaniy edgorliklar xazinasi. Toshken.1981 yil.
3. Instruktsiya po uchetu i xraneniyu muzeno`x tsennostey v muzeyax sistemo`. - Moskva.1977 yil

4-Mavzu. Mustakillik sharoitida muzeylar va muzey tormogining rivojlanish muammolari.

REJA

1. **Mustakillik sharoitida muzeylar ishi.**
2. **Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Uzbekiston muzeylari ishini takomillashtirish va rivojlantirish xakidagi karori.**
3. **Respublikaning muzeylar tarmogi va uni rivojlantirish masalalari.**
4. **Amir Temur muzeyning ochilishi va uning axamiyati.**
5. **Mustakillik yillarida Uzbek muzeylarining xalkaro alokalari.**

Mustakillik yillarda muzeylarga bulgan e`tibor va talab oshib bormokda. Bu albatta, muzeylarning ijtimoiy vazifalari bilan boglik. Uzbekiston xududida mavjud muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalkning ma`naviy-axlokiy kamolotida tutgan urnini oshirish, muzey fondlarida saklanib kelinayotgan xalkimizning boy tarixini, mustakilligimiz odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, urganish, boyitib borish, dunyoga olib chikish va targib kilish, ulardan xalkimiz ongida milliy gurur va iftixorni, istiklol va Vatanga xurmat, sadokat tuygularini kuchaytirish yulida keng foydalanish, muzeylarning zamon talabiga mos yukori malakali mutaxassislar bilan ta`minlash, moddiy-texnika bazasini mustaxkamlab, jaxon muzeyshunosligi tajribalarini kullashga zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Yana shu katorada muzeylarni internet tizimi bilan boglash va ilmiy jixatdan markaz bulishdir.

Respublikamiz prezidentining "muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish tugrisida"gi 1998-yil 12-yanvardagi farmoni muzeylar va muzey xodimlarining xayotida katta burilish nuktasi buldi.

Mamlakatimiz xududidagi mavjud bulgan muzeylar tuzimini yanada takomillashtirish, ularni xalkning ma`naviy-axlokiy kamolotida tutgan urnini yanada oshirish maksadida "Uzbek muzey" Respublika jamgarmasi tuzildi. Bunga kushimcha yana Uzbekiston Vazirlar maxkamasining 1998-yil 5-martdagi "Muzeylar faoliyatini tubdan kullab kuvvatlash masalalari tugrisida"gi karori "Uzbek muzey"ga Uzbekiston muzeylariga xar tomonlama yordam kursatish vazifasini topshirdi. Ushbu karorda mamlakat muzeylarini ta`mirlash zarur texnik va zamonaviy asbob uskunalar bilan jixozlash xamda mablag bilan ta`minlash vazifalari yuklatilgan.

Tarmok - muzeylar faoliyati yunalishini ishlab chikarish, fan, san`atning biror tarmogiga tegishli bulishidir. Mustakillik yillarida bu muzey tarmoklariga e`tibor bergan bulsak, prezidentimiz karoridan sung yildan yilga rivojlanib, takomillashib bormokdi.

Muzeylarning tuplovchilik va noshirlik faoliyati xam rivojlanib usmokda. Muzeylarning tuplovchilik faoliyatiga ilmiy etnografik, arxeologik izlanishlar natijasida topilgan ilmiy asarlar, kulyozmalarni yigish va shular asosida muzeylardagi imkoniyat darajasida muzey xodimlarining makolalari bilan chikish. Bundan tashkari respublika mikyosida muzeylar faoliyatini maxsus jurnallarda yoritib borish va nashiryotlarda, beketlar, plakatlar chikarish, kurgazmalar tashkil etish va uslubiy kitoblarda yoritib borish va boshka kuplab ishlarni amalga oshiridan iboratdir.

Tarmok, bu muzeylar faoliyatini yunalishi ya`ni ilmiy tadkikot, fond ishlari, kurgazmalar tashkil etishdir.

Ilmiy tadkikot ishlari ulkani urganish, san`ati, tarixi, adabiyoti tugrisida ma`lumotlar yigish, ilmiy nashrlar chikarish, etnografik, arxeologik ilmiy tadkikotlar olib borish.

Fond ish muzey predmetlarini yigish, tadqiq kilish, ilmiy kartochkalar, kataloglar, turli universal-kartochkalar, doimiy kurgazmalar, kuchma kurgazmalar tashkil etish.

Muzey vazifasiga kura ilmiy tadqiqot, ma`rifat, tadqiqot va ukuv muzeylariga, yunalishi va kolleksiyalariga karab, tarmok, ulkashunoslik va me`morial muzeylarga bulinadi. Tarmok muzeyda ishlab chikarish, fan, san`atning biror tarmogiga tegishli buladi (masalan, tarix muzeylari, zoologiya muzeylari). Ulkashunoslik muzeylari muayyan ma`muriy territoriyaning tabiati, tarixi, xujaligi, san`ati, etnografiyasi va boshka soxalarni kompleks aks ettiradi. Memorial muzeylar muxim tarixiy vokealar, atokli arboblarga bagishlanadi.

Fargona ulkashunoslik muzeyning bugungi kunda tarmoklari viloyatimizning turli tumanlarida mavjud.

1. "Xamza Xakimzoda Niyoziy muzeyi" - SHoximardon kishlogida 1957 yilda ochilgan.
2. "Usmon Yusupovning memorial muzeyi" Kaptarxona kishlogida 1974 yilda ochilgan.
3. "Yuldosh Oxunboboev memorial muzeyi" Margilon shaxrida 1964 yilda ochilgan.
4. Yaypan shaxridagi "Uzbekiston tumani tarixi muzeyi " 1984 yil ochilgan.
5. "Adabiyot va san`at muzeyi" Margilon shaxrida 1989 yilda ochilgan.
6. Uchkuprik tumanidagi "Ziyovutdin Xaziniy uy muzeyi " 1997 yilda ochilgan.
7. Oltarik tumani "Tarix muzeyi" 2000 yilda ochilgan.

Biz bu tarmoklar faoliyatiga nazar tashlasak, Prezidentimiz farmoni, Vazirlar Maxkamasini karori va viloyat xokimiyatining karori bu tarmoklar yaxshilanib, takomillashib, rivojlanib borishiga turtki bulganligini kurishimiz mumkin.

Madaniyat va xalk ta`limini vazirliklari tarkibida muzeylar bulishi yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda muxim urin tutuvchi madaniyat uchoklari xisoblanadi. Bularga shon-shuxrar muzeylari, ulka tarixi, mexnat faxriylari asori atikalari, Buyuk siymolar tarixi, ulka tarixidan xikoya kiluvchi asori atikalardan iborat.

Bugungi kunda mamlakatimiz xududidagi turli muassasalar, korxonalar, kurilish tashkilotlari, kishlok jamoa boshkaruv xujaliklari koshida, shaxar, tuman, viloyat markazlarida, xalk ta`limi tizimida 1200 dan ortik muzeylar mavjud bulib, ularni eng yiriklari poytaxtda joylashgan.

SHu bilan birga unlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashxur san`at arboblarning uy muzeylari mavjuddir. Bu muzeylar xalkimizni uzok tarixdan xikoya kiluvchi, muzeydan sado beruvchi ma`naviyat maskanlari bulib, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy gurur va iftixorni yuksaltirishda ulug kadamlar bulib kolmokda.

Xar bir millatni shakllanish tarixi, u bilan boglik siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi muzeylar umumxalk muzeylari xisoblanadi. Xorazmdagi Ichan kal`a, Buxoro arki umumxalk muzeylariga misol buladi.

1996 yilining 18 oktyabr' kuni mamlakatimiz poytaxti kadimiy Toshkentning kok markazida Tong saxarda kur`on tilovati olis-olislarga taraldi. Ulug bobokalonimiz buyuk davlat arbobi va engilmas sarkarda Amir Temur yodi xotirasiga atab SHark milliy me`morchiligining noyob va mujizaviy namunasi bunyod etilib, Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilishi mamlakatimiz tarixini urganishga bulgan e`tiborni kuchaytirdi.

Muzeyning ochilish marosimida Prezidentni suzlagan nutkida shunday deyiladi. "Mamlakatimiz istiklolga erishgach "Amir Temur shaxsi yana vatan va millat timsoliga aylanganini istiklolimizning xar bir tadbirida, mustakil davlatimizning xar bir kadamida buyuk zot ruxi birga xamroxu-xamnafas bulib borayotganini ta`kidladi va uz fikrini davom ettirib, "Buyuk shaxslarni tarix yaratadi", deydilar. Bunga kushimcha kilib soxibkiron bobomizning suronli xayotini xayol kuzgusi utkazib, buyuk buyuk shaxslarni millat kaygusidan utkazi, xalk dardi yaratadi",-dedi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi me`moriy jixatdan juda mukammal muxtasham inshootdir. Bu avvalo bobokalonimizning mavjud shavkatiga, dunyoviy obryo-e`tiboriga va daxoligiga munosib bulsa, ikkinchi tomondan, temuriylar bugungi avlodining bunyodkorlik kudratidan, kozik didi, bekiyos iste`dodi va xayolotining cheksizligidan dalolat beradi. Yana

uning axamiyati Temur va temuriylar davlatini yanada yaxshirok urganish, uni xayotga tadbik etish va milliy tariximizni xakkoniy tarixini yoritishda juda kattadir. Bugungi kunda bu muzey ilmiy markazga aylangan.

Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 5 martdagi karori "Uzbek muzey" jamgarmasiga, Uzbekiston muzeylar jamoatchilik kengashining Xalkaro muzeylar Kengashi IKOMga a`zo bulganligini xisobga olib, Uzbekiston muzeylariga xar tomonlama yordam berish vazifasini topshirdi. Uzbek muzeylar dunyoning kuplab kuzga kuringan mamlakatlari bilan ya`ni Angliya, Amerika, Italiya, Frantsiya, Germaniya muzeylari bilan xamkorlikda faoliyat olib borib, yul kursatkichlar, bukletlar va kataloglar nashr kilinib xamda kurgazmalar tashkil etilmokda. Bizning Fargona Ulkashunoslik muzeyi kuplab mamlakatlar bilan xamkorlik kilmokda, jumladan Yaponiya etnografiya muzey bilan xamkorlikda Fargonaning kadimgi tarixi yuzasidanilmiy tadjikot ishlarini olib bormokda. Muzey xodimlari ilmiy markazda ukish uchun Yaponiya uiga taklif etilmokda. Bundan tashkari Rossiya davlat ermitaji, Sankt-Petrburgdagi Rossiya Davlat Etnografiya muzeyi, Respublikamizda esa Uzbekiston Fanlar Akademiyasining Arxeologiya Instituti, Uzbekiston Xalklari tarixi muzeylari bilan doimiy alokalar olib boriladi.

Tayanch iboralar.

Muzey tarmoki, muzey predmeti, umumxalk muzey, Uzbek muzey, tabiat bulimi, san`at bulimi.

Nazorat uchun savollar.

1. Mustakillik Uzbekiston muzeylariga kandy ta`sir kursatdi?
2. Prezidentimiz Farmonining muzeylar uchun axamiyati kandy?
3. Vazirlar Maxkamasining karori muzeylarga kandy imkoniyat yaratadi?
4. Fargona ulkashunoslik muzey tarmoklari xakida ma`lumot bering.
5. Fargona ulkashunoslik muzey bulimlari xakida ma`lumot bering.
6. Amir Temur muzeyini ochishdan maksad nima?
7. Fargona ulkashunoslik muzeyining tarmoklari viloyatimizning kaysi tumanlarida joylashgan?
8. Uzbek muzey jamgarmasi IKOMga a`zo bulishi uzbek muzeylariga kandy imkoniyatlarni yaratdi?
9. Muzeylarning ilmiy ommaviy ishlari nimalardan iborat?
10. Xazina fondi ishi nimalardan iborat?
11. Tabiat bulimini ishi nimalardan iborat?
12. Tabiat bulimining vazifasi nimalardan iborat?
13. Muzey tarmogi nima?
14. Fargona ulkashunoslik muzeyi kachon tashkil etilgan?
15. X.X.Niyoziy muzeyi kachon va kaerda tashkil etilgan?
16. Oltarik tumanidagi tarixiy muzey kachon tashkil etilgan?
17. Fargona ulkashunoslik muzeyi kaysi mamlakatlari bilan aloka kiladi?
18. Amir Temur muzeyi kachon va kaerda ochilgan?
19. Vazirlar Maxkamasining "Muzeylar faoliyatini tubdan kullab-kuvvatlash va yaxshilam tugrisida"gi karori kachon kabul kilingan?
20. Uzbekistonda bugungi kunda nechta muzeylar mavjud?

Adabiyotlar.

1. I. A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yuk" T.1998 y.
2. "Uzbekiston muzeylar ishini takomillashtirish va rivojlantirish xakida" Uzbekiston Vazirlar Maxkamasining karori g`g` Uzb.Abadiyoti va san`ati 1998 y. 10 yanvar'.
3. I. Sodikova "Madaniy yodgorliklar xazinasini" T."Fan" 1981 y.
4. "Moziydan sado" jurnali.
5. "Fargona ulkashunosligi" F.-1996 yil.

5-Mavzu. Tarixiy muzeylar.

Reja.

1. Tarixiy muzeylarning paydo bulishi.
2. Mustamlaka davrida muzeylar axvoli.
3. Tarixiy muzeylarning asosiy ijtimoiy vazifasi.
4. Tarixiy muzeylarning tarmoklari va ixtisoslashuvi.

1. Xozirgi kunda jamiyat xayotida, xalkni fan va madaniyat bilan yakindan tanishuvida, ilm-fan va madaniyat rivojida, shuningdek xalk maorifida muzeylarning urni tabora usib bormokda. Bu soxada eng asosiy urinni shubxasiz tarixiy muzeylar egallaydi. CHunki, tarixiy muzeylar uz soxasiga kura ijtimoiy muammolarga, jumladan jamiyat va tabiat tarixi va kelajagiga muammolariga juda yakin turadi. Xam u xalkning ta`lim tarbiyasiga juda katta ta`sir kiladi.

Evropada tarix muzeylari dastlab XVI-XVII asrlarda paydo bulgan. Bu davrda Evropada kapitalistik ishlab chikarish rivoj topa boshlagan, shu bilan birgalikda ilm-fan, madaniyat, san`at, texnika xam rivojlanib borayotgan edi. SHuningdek buyuk geografik kashfiyotlar, Kopernik kashfiyotlari xam bu davr odamlarini urta asr dunyo karashidan voz kechib, yangi davr, yangi dunyo karash, yangi falsafa tomon yuzlanishga olib borayotgan edi.

Mana shu juda yirik ilmiy, ruxiy uygonish davrida ilmiy va boshka umumiy e`tiyojlar turli kolleksiyaalarni paydo bulishiga olib keldi. Ular aloxida olimlarning kolleksiyaasi, "tabiatshunoslar kabinetini", "nodir buyumlar kamerasi" kabi turli xil kolleksiyaalar edi. Davr utishi bilan bu koleksiyaalap sistemalashib, ixtisoslashib bordi va tarixiy madaniy boyliklar kolleksiyaasi, turli xil xarbiy kurol-arslaxalar, san`at asarlari kolleksiyaasi kabi kolleksiyaalar ajralib chikdi. Tarixiy muzeylarning rivojlanishidagi navbatdagi muxim kadam XVIII asrning ikkinchi yarmida kuyildi. Bu davrda kapitalistik jarayonlar keng rivoj topib, Evropa xayotida katta progressiv rol uynayotgan edi. Aynan shu davrdagi manbalarni tuplash va sistemalarini dastlbki umumiy koidalari paydo buldi va shu tarika muzey faoliyati ilmiy xarakter kasb eta boshladi. Muzey kolleksiyaalari ilmiy tadkikotlarga katta kuch bera boshladi, ular uchun tadkik etish manbaiga aylana boshladi. Muzeylar tarixiy -madaniy, ilmiy boyliklar kurikxonasiga, texnika yutuklari xazinasiga aylanib bordi. SHuningdek muzeylar burjuaziyani ma`naviy-ruxiy oziklantirishdan, xalkning milliy gururini oshiradigan, uning urf-odatlarini va tili, madaniyatini saklaydigan va paydo bulgan milliy burjuaga kuvvat beruvchi kuchga aylanib bordi, ularning milliy ozodlik kurashida muxim urin egalladi. Aynan shu tarika Vengriya milliy muzeyi(1802), Praga milliy muzeyi (1818) va Berlindagi kadimiy muzey (1828) lar paydo buldi.

Germaniyada muzeylarning rivojlanib borishiga kuprok Napoleon istilosiga karshi olib borilgan milliy-ozodlik kurashi katta yordam berdi. Aynan 19-asrning 20-yillarda Germaniya shaxarlarida kuplab muzeylar paydo buldi.

Rossiyada dastlabki muzeylarni paydo bulishi Petr I nomi bilan boglik bulsa, XIX asrda ular soni kupayib va ixtisoslashtib bordi. Misol uchun antik davr arxeologiyasiga oid 1811 yili Feodosiyada, 1825 yili Odessada, 1826 yilda Kerchda muzeylar ochilgan bulsa, XVIII asrdayok paydo bulgan xarbiy-tarix muzeylari kengayib, 1805 yili - Dengiz muzeyi, 1811 yili Interdant muzeylari va kelajakdagi Artilleriya tarixi muzeyi asosi paydo buldi.

XIX asrning 2-yarmida keng profildagi milliy muzeylar ochish xarakati kuchaydi. Buning asosida arxeologiya, etnografiya fanlarining rivojlanishi yotar edi. Ular uz kolleksiya va ilmiy tadkikotliarini 1845 yili tuzilgan Geografiya jamiyatida tuplar edilar. Arxeologik kolleksiyalar asosida 1872 yili Rossiya tarixi muzeyi ochildi.

2. Oktyabr' tuntarishidan keyin xokimiyatni egallab turgan bol'sheviklar xukumati muzeylarga jiddiy e`tibor berdi. 1917 yil noyabrdayok Xalk maorifi komissarligi "rossiya ishchilar, dexkonlar, soldatlar, matros va barcha fukarolarga" murojaat bilan chikib, barcha tarixiy milliy kiymatga ega bulgan boyliklarni saklash va tuplashga chakiradi va ularni xaklning mulki deb e`lon kildi. 1918 yil fevralidayok muzey ishi rivojiga bagishlangan butun Rossiya konferentsiyasi bulib utdi. 1917-1923 yillardayok 270 ta tarixiy muzey ochildi. Sobik ittifokning markaz va respublikalardagi umumittifok, respublika va regional axamiyatga molik muzeylar paydo buldi. Sobik SSSRda utgan asrning 80-yillarida mavjud bulgan 2208 tarixiy tarixiy muzeyning 1359 tasi tarixiy va tarix bulimiga ega bulgan ulkashunoslik muzeylari edi.

Garchi yukorida ta`kidlangan rakamlar dabdabali bulsada, aslida axvol butunlay boshkacha edi. Slbik mustamlaka tuzumi muzeylardan kuyidagi maksadda foydalandi.

1. Oktyabr' tuntarishidan keyingi dastlabki yillarda burjua madaniyati va mulki sifatida juda kup nodir tarixiy madaniy boyliklar muzeylarga topshirish baxonasida tortib olindi va talon-taroj kilindi.
2. 20-30 yillarda esa muzeylar tortib olingan, talon-tarojdan omon kolgan nodir buyumlar, san`at asarlari chet el valyutasini tuplash maksadida chet elga sotildi. Demak, aslida ular kapitalistik jamiyatga xos bulgan kapital jamgarish vazifasini bajardi.
3. Muzeylar kommunistik mafkurani xalk ongiga singdirish, xalkning uz ildizlaridan uzoklashtirish, ularni kommunistik mashinani oddiy bir mexanizmiga aylantirish uchun xizmat kildi.
4. Barcha respublikalardagi muzeylar rus shovinizmi bilan sugorildi va aslida ruslashtirish siyosatiga moslandi.

3. Tarixiy muzeylar kuyidagi ijtimoiy vazifani bajaradi:

1. Ilmiy-xujjatlash va kuriklash-saklash vazifasi.
2. Ilmiy tadkikot ishlarini olib borish vazifasi.
- " Muzey ishini rivoji uslubiy jixatdan ilmiy tadkik etish.
- " Muzey predmetlarini manba sifatida tadkik etish.
3. Ta`lim-tarbiyaviy ishlarini olib borish vazifasi.

4. Muzeylar uz ixtisoslashuviga kura kuyidagilarga bulinadi:

1. Tarixiy muzey - ba`zasida tarixiy fanlar mavjud bulgan barcha muzeylar, keng profildagi tarixiy, arxeologik, etnografik, muizmatik, xarbiy-tarixiy, iktisodiy-tarixi, ta`lim-tarbiya tarixi, maxsus tarixiy muzeylar (misol uchun sport) kiradi.
2. Badiiy muzeylar - san`at va sanatshunoslik xarakteriga ega bulgan barcha muzeylar; misol uchun tasviriy san`at muzeyi.
3. Maxsus tarixiy muzeylar - faoliyati maxsus fanlar doirasidagi muzeylar; biologik, botanik, zoologik, geologik, ekologik.
4. Texnika muzeyi - texnika fanlarga boglik muzeylar; sanoat, politexnik, avtotransport, aloka va boshkalar.
5. Adabiyot muzeyi - yozuvchilar xayoti va faoliyatiga doir bulgan adabiyot rivojlanishiga karatilgan barcha muzeylar.
6. Kompleks muzeylar - ikki yoki undan kup soxaga ixtisoslashgan muzeylar.

Tayanch iboralar:

Tabiatshunoslar kabineti, nodir buyumlar kamerasi, ilmiy xujjatlash, muzey ishini uslubiy tadbik etish..

Nazorat uchun savollar.

1. Tarixiy muzeylarning jamiyatdagi ahamiyati qanday?
2. Evropada muzeylar qanday sharoitda rivojlandi?
3. Milliy-ozodlik xarakterlarini muzeylarning rivojlanishdagi urini qanday?
4. Germaniyadagi tarixiy muzeylar qanday sharoitda tashkil topdi?
5. Rossiya muzeylarini rivojlanishi xakida nimalar bilasiz?
6. Mustamlaka davrida muzeylar asosan qanday vazifalarni bajarar edi?
7. Tarixiy muzeylarning ijtimoiy vazifalari qanday?
8. Qanday muzey tarmoklarini bilasiz?
9. Kompleks muzeylar xakida ma'lumot bering?
10. Rossiyadagi tarixiy muzeylarning shakllanishida kaysi soxa olimlarining xizmatlari katta buldi?

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yuk" T.1998 y.
2. "Uzbekiston muzeylar ishini takomillashtirish va rivojlantirish xakida" Uzbekiston Vazirlar Maxkamasining qarori g`g` Uzb.Abadiyoti va san`ati 1998 y. 10 yanvar'.
3. I. Sodikova "Madaniy yodgorliklar xazinasini" T."Fan" 1981 y.
4. Muzeyshunoslik. Moskva 1988 y.

6-mavzu: Muzeylarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati.

REJA.

1. **Muzey tadqiqot markazi sifatida.**
2. **Tadqiqotchilik faoliyati asoslari.**
3. **Tarixiy muzeydagi muzeyshunoslik tadqiqoti.**

Muzeylarning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri ilmiy tadqiqot ishidir. Juda kup ilmiy tadqiqot institutlaridan farkli ularok ravishda muzeylarning ilmiy tadqiqot ishlari uziga xos xususiyatlarga ega. Uning uziga xosligi asosan shundaki, muzeyda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar juda keng tarmokli bulib, uz navbatida uning natijalari kup tarmoklarga ta'sir etadi. Bu ilmiy tadqiqotlar biror-bir tarixiy manbani urganish maksadida, shuningdek, tarixiy manbalarni yoki bir turdagi muzey predmetlarini konservatsiyalash, restavratsiya qilish, saklash, kuriklash, xizmat kursatish maksadida xam bulishi mumkin. Tadqiqot ishlari soxaga kura deyarli barcha fanlar, jumladan pedagogika, psixologiya, sotsiologiya fanlarining xam uslublari kullaniladi. Muzey predmetini urganishga yunaltilgan ilmiy tadqiqot ishlari shu predmet taalukli bulgan fanlar uslublaridan foydalanilsa, shu predmetni muzeyshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etganda yoki umuman muzeyshunoslik tadqiqotida zarur bulgan tabiiy fanlardan tashkari yukorida ta'kidlaganimizdek, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya fanlarining uslublaridan foydalaniladi. Muzeylarning tadqiqotchilik faoliyatiga e'tibor kundan-kunga oshib bormokda. 1968 yil Irji Neustupniy uzining "Muzey i issledovanie" asarida muzeylarni uziga xos ilmiy tadqiqot instituti deb baxolagan edi. IKOM (Xalkaro Muzeylar Kengashi) - YuNESKO koshidagi muzeylar faoliyatini koordinatsiyalashtirish buyicha xalkaro markaz - uzining 1978

yilga kengashida muzeylarning tadkikotchilik faoliyatini urganib, bundan buyon shu jarayonni doimiy kullab-kuvvatlab, nazorat kilib borishni uz oldiga asosiy maksad kilib kuygan edi.

2. Muzeyning tadkikotchilik faoliyati asosi bulib, agar bu faoliyat muzey predmetini manbaviy nuqtai nazardan urganishga yunaltirilgan bulsa, muzey fondlarida saklanayotgan moddiy, tasviriy va yozma muzey predmetlari xizmat kiladi. Muzeyda olib borilayotgan tadkikot ishlarini shu nuqtai nazardan uch guruxga bulish mumkin:

" muzey predmetlarini umumtarixiy nuqtai nazardan tadkik etish. Muzeyda saklanayotgan yoki muzey fondiga yangi kabul kilingan predmetlarning paydo bulish joyi va davri, uning muallifi hamda shu predmetdan foydalangan davr aniklanadi. Aynan shu jixatlar predmet ya`ni tarixiy manba xakida fikr yuritishda asos bulib xizmat kiladi. CHunki, tarixiy manbaning, misol uchun, yozma manbaning muallif tomonidan yozilgan davri va etib kelgan nusxaning xattotlar tomonidan kuchirilgan davr urtasidagi fark, muallifning shu manbada yoritilayotgan vokealarga kanchalik daxldorligi xakidagi ma`lumotlar shu manbaga bulgan ishonch darajasiga xam ta`sir kiladi. Bu misolni muzeyda saklanayotgan barcha tarixiy manbalarga nisbatan kullash mumkin.

" Komplektlash jarayonida umumtarixiy tadkikot. Muzeylarni komplektlab borish fakat muzey predmetlari kolleksiyasini tuldrib borish uchungina emas, balki tarix fanining bunday keyingi rivojlanishi uchun xam zarurdir. SHundagina muzey kurgazmalari asl-nusxa muzey predmetlari bilan ta`minlab boriladi. Lekin bu boradagi eng muxim vazifa komplektlash kontseptsiyasini ishlab chikishdir. Muzey fondini komplektlash kontseptsiyasini ishlab chikish, ayniksa, zamonaviy muzey predmetlarini tuplash uchun juda muximdir. CHunki bugungi kun xam ertaga tarixga aylanadi. Lekin bu bugungi kunga oid xamma narsani muzeyga kabul kilish zarur degani emas, albatta. Aynan kanday predmetlarni muzey fondiga kabul kilish zarurligi muzey fondini komplektlash kontseptsiyasida kursatilgan bulishish shart. Komplektlash jarayonida tadkikotchilik faoliyatida turli uslublardan foydalaniladi. Ular ichida eng muximi va kup samara beradigani dala tadkikotidir. Bu uslub asosan arxeologiya, etnografiya, san`atshunoslik va boshka bir kator fanlar yunalishida kullaniladi. Arxeologlar turli xududlarda kazilma ishlarini olib borib muzey fondlarini asl-ilmiy predmetlar bilan tuldrib borsa, etnografiya va san`atshunoslik turli kishloklarda xozirgi kunda xam saklanib kolgan, tarixiy va ilmiy axamiyatga ega bulgan kuplab ma`lumot va ashyolar tuplab, muzey fondini yanada boyitishlari va uz navbatida fan rivojiga katta xissa kushishlari mumkin.

" Tarixiy eksponatlarni ilmiy tayyorlash. Muzey kurgazmasini tashkil etish muzey faoliyatining yana muxim kirralaridan biridir. Muzey kurgazmasi ilmiy asosda tashkil etilishi va kurgazma eksponatlari joylashuvi xam tarixiy nuqtai nazardan tugri bulmogi kerak. Ma`lum bir mavzular buyicha shoshilinch kurgazmalar tashkil etish zarur bulib kolgan xollarda esa ba`zi bir maxsus eksponatlarni tez va chukurrok urganish, yangi predmetlarni eksponat sifatida tayyorlash lozim buladi. SHuningdek, mavzuni yaxshirok yoritish uchun ilmiy-kumakchi materiallar (xarita, chizma, jadval va boshkalar)ni tayyorlash xam kerak buladi. Demak, tarixiy eksponatlarni kurgazmaga tayyorlash xam kerak buladi. Demak, tarixiy eksponatlarni kurgazmaga tayyorlash ilmiy asosda tashkil etiladi va ma`lum bir ilmiy tadkikotlar olib borishni talab etadi.

3. Muzey faoliyatida muzeyshunoslik tadkikoti xam muxim axamiyatga egallaydi. Muzeyshunoslik tadkikotiga muzey faoliyatini yanada yaxshilash, muzey predmetidan yanada samaralirok va faolrok foydalanish, muzey predmetini saklash va kuriklash ishini yaxshilash soxasidaga tadkikotlar majmui karadi. Muzeyshunoslik tadkikoti kuyidagi yunalishlarda olib boriladi:

1. Fondni muzeyshunoslik nuqtai nazaridan tadkik etish. Bu yunalishda asosan muzey fondini komplektlashning umumiy kontseptsiyasini ishlab chikish, uning shakl va uslublarini aniklash, yigish va saklash ishi buyicha xujjatlashtirish nizomlarini ishlab chikish, muzey predmetlarini fond bulimlariga joylashtirish buyicha ilmiy tadkikotlar olib boriladi. Bu

tadkikotlar natijasi fond ishini yanada yaxshilash, ularga predmetlarni va ilmiy kumakchi materiallarni tugri joylashtirishga olib keladi.

2. Muzei fondlarini saklash, kuriklash yunalishidagi tadkikotchilik. Muzei faoliyatining asosiy yunalishlaridan biri muzei predmetini kelgusi avlodlarga etkazish uchun saklash va kuriklashdir. Bu soxani yanada rivojlantirish doimiy izlanishlarni talab etadi. Bu borada konsevatsiyalash va kaytra tiklash ishlari xam olib boriladi. Faoliyat natijasini yanada yaxshilash esa tabiiy fanlar yutuklaridan doimiy xabardor bulish va ulardan keng foydalanish, kuplab tajribalar olib borish vazifasini kuyadi.

3. Muzei kommunikatsiyasi yunalishidagi tadkikotchilik. Bu yunalishdagi tadkikotchilik uziga xos xususiyatlariga kuyidagi guruxlarga bulinadi:

" kurgazmalilik yunalishidagi tadkikotlar muzei eksponati fakat ilmiy axborot berish kobilyatiga emas, balki uziga xos tomoshaboplik, kurgazmalilik xususiyatiga xam ega bulishi kerak. Muzei kurgazmasi badiiy-me`moriy jixatdan mukammal echimga ega bulishi, tomoshabin didi va saviyasi talablarga javob bera lishi xam zarur. Muzei kurgazmasini badiiy-texnik echimini ishlab chikayotgan paytda tomoshabinlarning jismoniy imkoniyatlari xam xisobga olinishi xam muxim axamiyat kasb etadi. Misol uchun eksponat joylashtirilayotgan paytda tomoshabinlarning urtacha buyi, kurish kobilyati, kurish maydoni, maydonni yoritilish mikdori, tomoshabinlar yunalishi (marshruti) va boshka jixatlar e`tibordan chetda kolmasligi shart. Aynan shu yunalishdagi muzei faoliyatini rivojlantirib borish bir kator tabiiy fanlar va dizeyn mutaxassisleri bilan birgalikda doimiy tadkikotlar olib borishni talab etadi.

" Muzei pedagogikasi tadkikoti. Muzei ta`lim-tarbiyaviy jarayon xam muzei faoliyatining asosiy yunalishlaridan biridir. Bu yunalishda muzei pedagogikasi muxim urin tutadi. Muzei pedagogikasi tadkikoti muzeyning ta`lim-tarbiyaviy jarayonini yanada rivojlantirish, yangi uslublarni yaratish va kullash yunalishida izlanishlar olib boriladi. Fakat muzei kurgazmasi jarayonida pedagogik faoliyat olib borish bilan cheklanmasdan, jamiyat talabiga karab turli uchrashuvlar, tugaraklar, kuchma kurgazmalar tashkil etish va uni yukori darajada utkaza olish xam muzei pedagogik faoliyati va tadkikoti natijasidir.

" Sotsiologik tadkikot. Muzei fondidan tularok, kengrok foydalanish va ularning samaradorligini yanada oshirish uchun sotsiologik tadkikot xam zarur buladi. Bu uslub aslida muzeyshunoslikda utgan asrning 30-yillaridan boshlab kullanila boshlagan. Sotsiologik tadkikot muzei faoliyatini xalk orasida kandy ta`sirga ega ekanligini, uni samaradorlik darajasini aniklab beradi. SHuningdek, bu tadkikot natijasida muzeyga asosan axolining kandy yoshdagi kismi, katlami tashrif buyurayotganligi va ular asosan kaysi predmetlarga yoki mavzularga kizikayotganligi ma`lum buladi. Bu esa muzeyning yakin kelajakdagi rejalarini tuzishda, uni ishini tugri tashkil kilishda va zamon talablariga moshlashtira olishda, rakobatbardosh bulishda katta axamiyatga egadir. Sotsiologik tadkikotlarni doimiy ravishda va keng mikiyosda olib borayotgan muzeilar - uz kelajaklarini ta`minlayotgan, muzeilarning rakobat maydonida uz urinlarini mustaxkamlab borayotgan muzeilardir.

" Psixologik tadkikot. Muzei faoliyatini uz urnilarni jamiyat psixologiyasini, axoli katlamlari psixologiyasini doimiy urganib, kuzatib borish va muzei ishini tashkil etishda shu urganish va kuzatish natijalarini xam xisobga olish muxim axamiyatga ega. Psixologik tadkikot natijalari muzeyning barcha bulimlari uchun, jumladan muzei pedagogikasi, muzei kurgazmalarini badiiy-me`moriy jixatdan tashkil etish ishlarida xam katta yordam beradi.

Tayanch iboralar.

Ilmiy tadkikot, IKOM, muzei predmetini umumtarixiy tadkik etish, komplektlash tadkikoti, tarixiy ekmpnatlarni tayyorlash, muzeyshunoslik tadkikoti, fond ishini tadkik etish, kurgazmalilik tadkikoti, pedagogik tadkikoti, sotsialogik tadkikot, psixologik tadkikot.

Nazorat uchun savollar.

1. Muzeyda tadkikotchilik faoliyatini asosan necha yunalishda buladi?
2. Muzeydagi tadkikot ishlarnining uziga xosligi nimada?

3. IKOM kanday tashkilot?
4. Irji Neustupno`y muzeyning tadkikotchilik faoliyati xakida kanday fikr bildirib?
5. Muzey predmetini umumtarixiy nuqtai nazardan tadkik etish deganda nimanı Tushunasiz?
6. Muzeyshunoslik tadkikoti xakida nima bilasiz?
7. Kurgazmalilik tadkikoti kanday axamiyatga ega?
8. Muzey pedagogikasi tadkikoti xakida gapirib bering
9. Sotsiologik tadkikot muzeyga nima uchun kerak?
10. Psixologik tadkikot muzey faoliyatın uchun zarurmi?

Adabiyotlar.

1. Muzevedenie. M.1988 g.
2. N. Sodikova. Madaniy yodgorliklar xazinası. T.1981 yil.
3. Kirienco E. M. Istoricheskiy muzey. M.1984 g.

7-Mavzu: Davlat muzey fondi. Muzey ashyolarını urganish.

REJA

- 1 "Muзей fondi" tushunchasi.**
- 2 Muзей fondını ilmiy tashkil etish.**
- 3 Muзей fondı ishining asosiy yunalishlari.**
- 4 Muзей ashyolarını urganish uslubiyoti.**

Muzey faoliyati, ishi muzey fondi asosida yuritiladi. Bu ishning amalga oshirish va kimmati muzey xodimlarining manba tugrisidagi bilimlarını, manbaning madaniy kimmati, xissiy ta`siri, tarixiy jarayoni xakidagi ma`lumotlarnı aniklash va oydinlashtirish yulidagi sa`yi xarakatlari bilan belgilanadi. Manbani sotib olish, saklash, tadkik etish, uni ilmiy va ta`lim-tarbiya ishiga tadbik etish esa yanada muxim vazifa xisoblanadi. Muзей fondı utmishi, xozirgi zamon va kelajakni boglovchi, uygunlashtiruvchi manbadir. Muзей fondining arxiv va kutubxona fondlaridan farkı shundaki, u tarixiy jarayonni kompleks xujjatlashtiradi. Muзей uchun ma`lumotning xajmi va mundariyasi, predmetning joylashishigina predmetning tabiati, uning kaysi maksadda kachon va kanday yigilganligı tugrisidagi ma`lumotlar xam muximdir. Predmetning tabiatiga, uning ma`lumot berish imkoniyatiga kura tarixiy manbalar kuyidagi turlarga bulinadi:

- a) moddiy manbalar;
- b) tasviriy manbalar;
- v) yozma manbalar;
- g) fonoyozuv va kinofil'mlar.

Moddiy manbalarga moddiy madaniy yodgorliklar - mexnat kurollari, xarakatlantirish moslamalari, maishiy predmetlar, kurollar v.b.lar kiradi. Moddiy manbalar fakat predmetning tarkibidangina ma`lumot bermay, uning shakli, kurulishi, ulchovi, ogirligi, rangı v.b.lar xakida ma`lumot beradi. Ular yana usha davr tarixiy jarayon, madaniyati, ilmiy yutuklar xakida xam ma`lum ma`noda tasavvur xosil kiladi. Moddiy manbalar mavxum tushuncha emas, balki anik tushunchalar xosil kilish imkoniyatını beradi.

Tasviriy manbalar turli buyok, fgura, belgi v.b. narsalar vositasida yaratilib, ular musavvirlik ishlari, grafika, xaykaltaroshlik, badiiy plakatlar va fotografiya maxsulotlari kiradi. Bu tasviriy manbalar vokealar xakida, portretı aks etgan shaxslar xakida, plan va kartalar esa anik geometrik shakl, ulchov xamda geografik joylashuv xakida ilmiy ma`lumotlar beradi.

Yozma manbalar suz va belgilar yordamida ma`lumot berib, ularga yilnomalar (letopis'), solnomalar, konunlar majmui, siyosiy partiyalar xujjatlari, statistika materiallari, ilmiy ishlar,

adabiyotlar, publitsistik asarlar, nodir kitoblar v.b.lar kiradi. Yozma manbalar turfa va keng ma`lumot berish imkoniyatiga ega. Ularni 3 guruxga bulib urganiladi:

- a) ilmiy va ish yuritish xakida ma`lumot beruvchi(konunlar, siyosiy va statistik xujjatlar, ilmiy izlanishlar);
- b) estetik manbalar (badiiy adabiyotlar);
- v) umumiy ma`lumot beruvchi manbalar (publitsistik asarlar, memuarlar, yilnomalar va solnomalar).

Fonoyozuv va kinofil'mlar muzey predmetlari orasida muxim urin tutadi. Fonoyozuvlarda musika, ma`lum shaxsning nutki, kurilish ishi shovkini, ukishdagi ma`lum talaffuz yoki san`atkorlarning ijro etgan kuylari aks etgan bulishi mumkin. Kinofil'mlar ovozli va ovozsiz bulishi mumkin. Fonoyozuv va kinofil'mlar muzey fondining maxsus, sermaxsul guruxi xisoblanadi.

2. Muzey fondidagi premetlar: a) nodir predmetlar va b) tipik muzey predmetlariga bulinadi. Muzey predmetlari ma`lumot mazmuniga, kimmatigagina emas, uning xayratnarli xususiyatiga kura xam farklanadi. Bunda predmetning kandy kimmatbaxo materildan ishlanganligi emas, balki uning yukori ekspressiv xususiyati muxim. Demak, shunday muzey uchun muxim axamiyatga ega buyumlar nodir buyumlar xisoblanadi. Tipik predmetlarga turdosh, kup uchraydigan muzey predmetlari kiradi.

Muzeyning ilmiy-kumakchi materiallariga, muzey predmetlari safiga kirmaydigan, lekin uni urganish va namoyish etishga yordam beradigan materiallar kiradi.

Ular asosan 4 guruxga bulinadi:

1. Muzey predmetlarini tashki kurinishini tiklashga, asl nusxalarini kayta uz xoliga keltirishga yordamlashadigan materiallar.
2. Muzey predmetining tuzilishini aniklashga, tadjik etishga yordam beradigan materiallar (rentgen).
3. Muzey predmetlarini uzaro alokasini urganishga yordam beradigan materiallar (masalan: sxemalar, matolarni tukish usullarini kursatadigan).
4. Anik bir tarixiy vokeani urganishga yordam beradigan materiallar-diagramma va xaritalar, chizmalar.

Muzey fondlari uz navbatida kuyidagi 4 talabga javob berishi kerak:

1. Muzeylar fondi uz soxasiga karab tashkillashtirilishi kerak. M: arxeologiya, etnografiya, ulkashunoslik v.b.
2. Fondining shakllanishi tarix va muzeyshunoslik fanlarining yutuklariga mos bulmogi kerak.
3. Fondlarni doimiy va maksadli ravishda tuldirib, boyitib borish zarur.
4. Fondlar ilmiy tashkil etilishi shart.

II. Muzey kolleksiyalarining kimmati uning mikdori va sifati bilan belgilanadi. Bu kolleksiyalar kaysu davr, vokea, xodisa, manbaga tegishliligi; uning kurilishi, asosi, tasviriyiligi, maishiy-sotsial xususiyati, davri va joyi, kimmatli berajak ma`lumotiga karab ilmiy printsip asosida guruxlanishi lozim. SHunga kura muzey fondi kuyidagi turlarga bulinadi:

1. Asosiy fond - tarkibiga kolletsyaning asosini tashkil kiladigan, muzey faoliyatini tula ochib beradigan predmetlar kiradi.
2. Almashtiruv fondi - unda muzey kam extiyoj sezadigan predmetlar urni egallaydi, ya`ni muzey faoliyati uchun unga muxim bulmagan ashyolar kiradi.
3. Kolleksion fond - muzey fondining asosini. Yadrosini tashkil etadi. Unda yagona nusxa yoki nusxalar ichida eng yaxshi nusxa saklanadi.
4. Dublet fond - asosan tipik predmetlardan tuziladi

3. Muzey fondi ishining asosiy yunalishlari. Fond ishini asosiy maksadi muzey predmetini tadqiq etish va urganish, saklash va foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratish, fond ishi nazariyasi va uslublarini ishlab chikarishdir:

1. Muzey kolleksiyasini tuldrib borish. Bizni urab turgan olamdagi predmetlar orasida muzey axamiyatiga moliklarini tanlab borish.
2. Muzey predmetlarini xisobga olish. Xisobga olish natijasida predmet muzeyning xukukiy ximoyasiga utadi.
3. Muzey predmetlarini saklash. Muzey predmeti va ilmiy-kumakchi materiallarni fizik saklash, zarur bulsa tiklash ishlarini olib borish.
4. Fondni urganib borish. Fond bulimlarini urganish va yangi bulimlarni tashkil etish borasida izlanishlar olib borish.
5. Fond ishi buyicha konsultatsiyalar tashkil kilish.
6. Muzey predmetlarini urganish.

4. Muzey predmetlarini urganish uslublari. Muzey predmetlarini urganish fondi ishining asosiy yunalishi bulib, aniklash, turkumlash va tartiblashtirish, sharxlash vazifalarini uz ichiga oladi.

" Aniklash jarayonida muzey predmetining - xom ashyosi, ulchami, ogirligi, rangi, tayyorlanish uslubi, ijtimoiy, etnik, mualliflik mansubligi v.b. jixatlari urganiladi. Yukorida ta'kidlangan jixatlarni urganish xam katta axamiyatga ega. Misol uchun mexnat kurolini tosh, bronza yoki temir davriga oid ekanligini aniklashda yordam beradi.

" Turkumlash va tartiblashtirish kuyidagi belgilarga karab olib boriladi:

1. Umumiy turkumlash. Predmetlarni avval turlariga karab, sungra aloxida belgilarga muvofik bulish, taksimlash.
2. Xronologik jixatdan turkumlash akki kurinshda buladi: a) predmet yaratilgan davr buyicha; b) predmet foydalanilgan davr buyicha.
3. Geografik jixatdan turkumlash xam ikki kurinishda buladi: a) predmet yaratilgan xudud; b) predmet foydalanilgan xudud buyicha.
4. Etnik mansubligi asosida.
5. Ijtimoiy mansubligi asosida.
6. Mualliflik mansubligi asosida.
7. Nom, ism belgisiga karab asosan anik shaxslarga tegishli predmetlarga turkumlanadi. Bu jixat xotira muzeylari uchun muxim.
8. Ashyoviy turkumlash asosan ashyoviy manbalar buyicha olib boriladi.
9. Mavzuviy turkumlash.
10. Tarmoklar buyicha turkumlash.

" Izoxlash. Muzey predmetlarini izoxlash juda katta axamiyatga ega bulib, predmet xakida kushimcha kuplab ma'lumotlarni yigishni va urginishni talab etadi. Natijada predmet foydalanilgan, yaratilgan davr xakida tula tushuncha xosil buladi.

Tayanch iboralar:

muzey fondi, Davlat muzey fondi, fondi ishi, fondni ilmiy tashkil etish, fond talablari, xisobga olish, turkumlash, tartiblashtirish, saklash, muzey predmetini urganish, muzey predmetini urganish uslublari.

Nazorat uchun savollar:

1. Davlat muzey fondi nima?
2. Muzey fondi nima?
3. Muzey predmeti necha turga bulinadi?
4. Muzey fondi kanday bulimlarga bulinadi?
5. Tipik predmetlarga kanday predmetlar kiradi?
6. Nodir predmetlarga kanday predmetlar kiradi?

7. Muzey predmetini urganish deganda nimani tushunasiz?
8. Muzey pedmetini xisobga olish kanday axamiyatga ega?
9. Muzey predmetini turkumlash va tartiblash nima?
10. Asosiy va almashinuv fondlari nima?

Adabiyotlar.

1. Muzevedenie. M.1988 g.
2. N. Sodikova. Madaniy yodgorliklar xazinasasi. T.1981 yil.
3. Kirienko E. M. Istoricheskiy muzey. M.1984 g.

8-Mavzu: Muzey fondini tuldirish.

REJA:

- 1. Fondlarni komplektlashning ilmiy maksadi va axamiyati.**
- 2. Fondlarni komplektlarsh ishini tashkil etish.**
- 3. Fondlarni komplektlarshning asosiy ilmiy uslublari.**

Fondlarni komplektlash muzey faoliyatining eng asosiy jixatlaridan biri bulib, bu jarayonda jamiyat tarakkivyotini xujjatlashtirishda xamda ijtimoiy axborotlarni tuplash xam zurur vazifa xisoblanadi. Fondlarni komplektlashning ilmiy maksadishundan iboratki, buning natijasida muzey axamiyatga molik bulgan predmetlar topib boriladi, urganiladi, muzey fondlariga kushiladi. Buning natijasida muzey fondlari mukammallashib, tulib boradi. Fondlarni komplektlashning axamiyati shundan iboratki, fondlar yaxshi predmetlar bilan boyib, muzey fondining kiymati ortib boradi. Buning natijasida muzeyning jamiyatdagi urni yanada mustaxkamlanadi. Muzey fondlarini komplektlab borish uni rivojlantirib borishdir. Demak, muzey fondini komplektlash - bu muzey kolleksiyalarining kupayib, ortib borishidir. Albatta, bu jarayon ichki fond ishi (turkumlash, sistemalash, aniklash) xam olib boriladi. Demak, fondlarni komplektlash muzey faoliyatining aossiy kurinishlaridan biri bulib, jamiyat tarakkivyotini xujjatlashtirishning muxim tarkibiy kismi xisoblanadi. Fondlarni komplektlash avval ashyolarni yigishi deb nomlangan. Xozirgi termin bilan kadimiy atama urtasida moxiyatan katta fark bor.

Kadimgi atama muzey ashyolarini yigish, muzey fondini kupaytirib borishgina nazarda tutsa, muzey fondlarini komplektlashda undan tashkari fondni ilmiy tashkil etish, predmetlarni urganish, ularni sistemalash ishlari xam olib boriladi.

Muzey fondlarini komplektlash asosan 2 yunalishda olib boriladi:

1. Tipologik (turdox) kolleksiya. Unda muzey predmetlari tipologik belgilariga kura muzey fondlari bulimlariga kabul kilinadi.
2. Tematik (mavzuviy) kurgazmada turli turdagi predmetlar guruxi biografiyasi jamiyat xayotidagi biror xodisaga boglikligiga, ishlab chikarish shakliga, madaniy xayotni aks ettirishiga karab tashkil etiladi. Uni tashkil etish tematik, xronologik tamoyil asosida amalga oshiriladi.

2. Tarix soxasidagi muzeylardagi fondlarni komplektlash ishida muzeyshunoslar, tarixchilar, arxeologlar, etnograflar, moddiy va ma`naviy madaniyat tarixi bilan shugullanuvchilar, san`atshunoslar, adabiyotshunoslar xam katnashadi.

Komplektlash jarayonining uzi bir necha boskichlarga bulinadi:

1. Tarix yoki xozirgi kunga oid faktlar ichidan muzey kizikishga moligini ajratib olish.
2. Predmetning kimmatini fondni komplektlash maksadi yuzasidan urrganish va aniklash.
3. Muзей axamiyatiga molik predmetni yakuniy ekspertdan utkazish.
4. Predmetni muzey predmetlari safiga kabul kilish.

Fondlarni komplektlash manbalari xar xil bulib, u tasodifiy topilmalardan rejalashtirilgan yunaltilgan tadkikotlargacha uz ichiga oladi.

Muzey uz faoliyati davomida kolleksiya tuplovchilar, aloxida predmetlarning egalari, ilmiy tashkilotlar (ilmiy kolleksiya tuplovchi, lekin saklovchi emas. Misol uchun: tarix fakul'tetlarining arxeologiya va etnografiya kafedralari), amaliy san`at ustalari, musavvirlar, fotograflar, nashryotlar, kitob palatalari, bukinistik va komession dukonlar bilan doimiy alokada bulishi zarur. CHunki ular muzey fondini komplektlashda asosiy urin tutadigan, katta samara beradigan uslub - dala tadkikotidir. Bu uslub asosan arxeologiya, etnografiya, moddiy madaniyat tarixi va boshka soxalar uchun xarakterlidir.

3. Dala tadkikoti uch boskichda olib boriladi: tayyorlanish boskichi, dala-tadkikotini olib borish, yakuniy boskich.

Tayyorlanish boskichida ekspeditsiya vazifalari aniklanadi, mavzu shakllantiriladi va tanlanadi, tanlangan ob`ektning xakikiyligi ilmiy asoslanadi. SHu boskichda ilmiy adabiyotlar,shu va boshka muzeylardagi ekspeditsiya mavzusiga oid yigilgan kolleksiyalar, ishchi dastur va ekspeditsiya yunalishi urganiladi. Bu boskich oxirida ekspeditsiya raxbari va uning a`zolari maxsus xisobot-ma`ruza tayyorlab, uni muzey ma`muriyati va maxsus komissiyaga topshiradilar.

Ikkinchi boskich ekspeditsiya yunalishini joyini aniklashdan va keyingi ishlarni anik rejalashtirishdan boshlanadi. Lekin bu boskichda asosiy ish asosan dala-tadkikotini olib borishdir. Bu borada maxalliy axoli bilan suxbat, ularni kadimgi va xozirgi davrlardagi xayoti va faoliyatini urganish, ularni xikoyalarini yozib borish, muzey axamiyatiga molik predmetlarni topish va unga ega bulish, ular tugrisida axborot yigish (yozma, tasviriy va ovoqli) kabi ishlar olib boriladi.

Ekspeditsiyani xujjatlashtirish doimiy ravishda olib boriladi va katta axamiyatga ega buladi. CHunki bu xujjatlashtirish uz navbatida xukukiy axamiyatga xam ega buladi. Dala ruyxati (poleyaya opis') asosiy ekspeditsiya xujjati xisoblanadi. Unda predmetning muzey axamiyatiga kanchalik molikligi dala sharoitida ekspeditsiya a`zolariga aniklashga yordam beradigan belgilari aniklanadi va yozib kuyiladi.

Dala ruyxati kuyidagicha tuldiriladi:

1. Tartib nomeri.
2. Predmetning nomi, turi, tafsifi. Tafsif kiska, lekin predmet xakida etarli ma`lumot bera oladigan xolatda beriladi. Predmetning ilmiy nomidan tashkari, maxalliy nomi xam yozib kuyiladi.
3. Predmet soni, mikdori. Predmet fakat bir rakam bilan nomerlanishi, lekin bir necha kismdan iborat bulishi mumkin. Masalan, bir predmetning turli tomondan olingan surati.
4. Sanasini aniklash. Agar anik sanasini aniklash iloji bulmasa taxminiy sanasi surok belgisi bilan yozib kuyiladi.
5. Kelib chiksh joyi, tarixi, kaysi davrga tegishliligi.
6. Ulchami, saklanganlik sifati darajasi.
7. Predmetning kimdan olinganligi va egasining manzili.
8. Narxi. Agar sovga kilingan bulsa, u xam kayd etiladi.
9. Predmetni olingan va xujjatlashtirilgan sanasi.
10. Fond bulimini nomeri va shifri. Bu erda predmet kabul kilinadigan muzeyning fond bulimiyoziladi.
11. Izox.

Ekspeditsiya jarayonidagi asosiy ikkinchi xujjat ekspeditsiya kundaligi xisoblanadi. Kundalikda butun ekspeditsiya faoliyati kariyalar, faxriydar va boshka muxim vokealar bilan tanishuv jarayoni va uning egaligi, mualliflari, predmetlar, suxbatlar, shuningdek keyingi ekspeditsiya yunalishini aniklashga doir suxbatlar aks etadi. Ekspeditsiya xujjatlashtirib borish xam muxim axamiyatga ega.

Yakuniy boskich muzeyga kaytgach boshlanadi. Bu erda predmetlar yana kaytadan tulik, keng urganiladi va turkumlashtiriladi. Ekspeditsiya yakuni buyicha ilmiy xisobot tekshiriladi, maxsus seminar utkaziladi. Agar zarur bulsa, yigilgan kolleksiyalar xakida ma`lumotnoma nashr

etish, yigilgan kolleksiyalardan kurgazmalar tashkil etish va maxsus konferentsiya utkazish mumkin.

Tayanch iboralar.

Fond komplektlash, kolleksiya yigish, tipologik kolleksiya, tematik kolleksiya, dala ruyxati, ekspeditsiya kundaligi.

Nazorat uchun savollar.

1. Fondni komplektlash nimani bildiradi?
2. Fondni komplektlash maksadi nima?
3. Fondni komplektlash kandy axamiyatga ega?
4. Komplektlash, kolleksiyalar yigish atamalarining farki?
5. Tipologik kolleksiyaga ta`rif bering.
6. Tematik kolleksiyaga ta`rif bering.
7. Komplektlash jarayoni kandy obskichlardan iborat?
8. Komplektlash jarayonida dala tadjikoti kandy axamiyatga ega?
9. Dala tadjikoti necha boskichdan iborat?
10. Dala ruyxati va ekspeditsiya kundaligi kandy tuldiriladi?

Adabiyotlar.

1. Muzevedenie. M.1988 g.
2. N. Sodikova. Madaniy yodgorliklar xazinası. T.1981 yil.
3. Kirienko E. M. Istoricheskiy muzey. M.1984 g.

9-Mavzu: Muzey fondlarini xisobga olish, ilmiy ma`lumotnoma apparati.

REJA:

1. **Muzey fondlarini xisobga olish maksadi. Fond xujjatlarini sistemasini tuzish maksadlari.**
2. **Fondni xisobga olish va xujjatlashtirish.**
3. **Muzey fondini ilmiy kataloglashti rish.**

1. Muzey fondini xisobga olish yuridik jixatdan juda katta axamiyatga ega. U asosan kuydagilarda namoyon buladi:

1. Muzey predmetini muzeyga biriktirish va uni xukukini xolatini kafolatlash.
2. Predmetning muzeydagi saklovchi mutaxassislarga biriktirish.
3. Predmetning yuridik jixatini xolatini rasmiylashtirish va uni muzey predmeti yoki ilmiy kumakchi material ekanligini aniklash.
4. Predmetni, agar u biror-bir fondga biriktirilmasa, vaktincha saklash bulimiga rasmiylashtirish.
5. Barcha predmetlarning joylashgan joyini topish va boshkalap.

Muzey fondini yuridik ximoya kilish maksadini namoyon kiladigan fond ishi yunalishiga va urnatilgan predmetdan olingan ilmiy ma`lumotlar natijasiga bulgan muzey xukukini muzey fondini xisobga olish deyiladi. Bu jarayonda amalga oshadigan xujjatlashtirishga xisobga olish xujjatlashtirish deyiladi. Fondni xisobga olish rasmiy shaklda, unda xar bir predmet xakida ma`lumotlar, fond bulimlari (predmetning kabul kilinish akti, kabul kilingan kitoblar, ilmiy invertarlar, xisobga olish kartotekalari, ilmiy tavsifli kartochkalar) va predmetlarning kabul kilinish tartiblari, predmetlarning guruxlari, kelib chikishdagi umumiyliigi, ashyolarning urni uz aksini topadi. Predmetlarni ruyxatga olish va fondning anik bulimlariga biriktirish fond sistemasining boshlangich boskichidir. Fond xujjatlari sisteması - bu muzeyning ijtimoiy vazifasini bajarish uchun lozim bulgan fondni xisobga olish jarayoni, tasniflash, sistemalash va ularni fizik kuriklashdir. Fondni xisobga olishning maksadi uni tasniflash, sistemalash, saklash

va kayta tiklash ishlari bilan uzviy bog'lik. Masalan, muzey predmetlarining ilmiy tavsifli kartochkalari predmetning mohiyati, uni yigish va aniklash, urganish jarayonlari xakida tula ma'lumot beruvchi bulib, u muzeyni yuridik kuriklashda juda muxim. SHuning bilan birga bu kartochkalar fondni sistemalashda xam muxim rol' uynaydi. Ular kayta tiklash ishlarida xam restavratorlarga yordam beradi. Xujjatlar, kayta tiklash natijalari esa mueey predmetining ilmiy tavsifli kartochkasiga tuzatish, aniklash va tuldirish kiritishi mumkin. Demak, muzey fondlarini xisobga olish va fond xujjatlari sistemasini tuzish muzey foaliyatidagi eng muxim masala bulib, u maksadi predmetni ilmiy aniklash, xujjatlash, guruxlash, saklash, kayta tiklash, kuriklash va kelajak avlodga yaxshi xolatda etkazishdan iborat.

2. Ma'lumki, kolleksiyalarni tuplash - ilmiy izlanish samarasidir. Yuzlab, minglab buyumlar fakat yuz minglab izlanishlargina emas, ayni paytda xar bir predmetni aniklash, urganish, ilmiy kayd etish bilan bog'lik minglab tarix xam demakdir. Buyumni majmuaga kuyish uchun uni inventar' kitobiga yozish kerak. Ammo oldin uning nimaligini aniklash, mazmunini bilish, xakikiyligiga ishonch xosil kilish, unga tulik nom berish darkor. Muzey fondlarida shunday buyumlar buladiki, ularni aniklash, urganish uchun yillab vakt sarflanadi. SHuning uchun kupincha muzey buyumlarini urganuvchi fanni "buyumshunoslik" deb ataydilar. Buyumni inventar' kitobga yozishdan oldin uning muallifini, materialini va texnikasini, mazmuni, axvoli va kaerdan kelganligini bilish lozim.

Navbatdagi boskich-ilmiy pasportlarni tuldirish. Bunda buyumlar xakidagi ma'lumotlar kengaytirilib, tarixiy sharxlar beriladi. Kuyida muzey mutaxassislari tomonidan tuzilgan namuna keltiramiz:

Buyumning nomi - chopon. Inventar nomeri 322. Kayd kilish kitob nomeri 111. Saklanadigan joyi 34-yashik.

Tasviri Kumrang ip gazlamali erkaklari tuni, xunarmandchilik maxsuloti. Asosi va arkogi ikki ipdan eshilgan gazlamadan iborat. CHoponning etagi, bari va englari yul-yul kizil matodan, yokalari ok xoshiyali xavorang chitdan tikilgan. Yokasining cheti, etaklari va engining uchi binafsharang ipak jiyakdan iborat. Eng ichiga xam ana shunday jiyakning parchasi tikilgan. Orka etagi, bari va eng kaytarmasi binafsharang ipak xamda kora ip bilan baxyalangan.

Razmer: uzunligi 1,38, engi - 0,72, eng kaytarmasi - 0,32, etagi - 1,95sm.

Saklanish darajasi: yangi.

Olingan joyi va vakti: Urta Osiyo muzeyi topshirigiga muvofik M.F.Gabrilov tomonidan 1928 yili SHaxriston - Xovos rayonidagi Jarkutondan sotib olingan. Ma'lumotlar manbai:M.F.Gavrilov tomonidan tuzilgan predmetlar ruyxati. Tuldirilgan vakti: 8.11.31 y. Tuzuvchi: M. Bekjonova

Buyum nomi - chinni tovok.

Tasviri: shakli tsilindriksimon, kirrasi yukoriga karab burtgan. Ok fonga rangi emal bilan gul solingan. Yukori kismi zangor nakshlar bilan bezatilgan. Ikki yonida ushlagich uchun ikki uyik bor. Satxi kovok xosili yigish manzarasi aks ettiruvchi bezaklar bilan koplangan; birinchi manzarada 3, boshkasida 4 dexkon shakli, ular ustida uchayotgan kapalaklar. Kuyi kirrasida zangora shakllar mavjud. Tovok kopkogi ustida it shakli va janr manzarasi aks etgan. Ikkinchi tovok xam xuddi birinchisiga uxshaydi, lekin undagi janr manzaralar yaltirok tasvirda berilgan.

Xar ikkala tovok xam bir xil xajmda: balandligi 143, diametri 165, chukurligi 130 mm.

Kopkoklar xajmi xar-xil: birinchisining diametri 183 mm, balandligi 50 mm; ikkinchisining esa 180 mm, balandligi 50 mm. Tagidagi sulolaning kizil markalari (Daouguan 1821-51 y.).

Saklanish darajasi: yaxshi.

Olingan joyi va vakti: Toshkent, Murodovdan 40 sumga sotib olingan.

Ma'lumotlar manbai: adabiyotlar materiallari va kup yillik shaxsiy kuzatuvlar.

Əslatma: Evropa bozorlariga chikariladigan maxsulotlarning xarakterli namunasi.

Tuldirilgan vakti: 10.3.73 yil. Tuzuvchilar: professor T.N.CHabrov.

3. Ilmiy pasportlar yozish - ilmiy kataloglarni nashrga tayyorlashning asosiy zaminidir. Bu - muzey ekspozitsiyasida predmetlarni ilmiy asosda namoyish qilish xamda etnografiya, san`atshunoslik, arxeologiya buyicha tadqiqot olib boruvchilar uchun izox xizmatini utaydi.

Muzey katalogi. Bu fondga kirgan predmetlar xakida kiskacha ma`lumot (annotatsiya) beruvchi, joylashish tartibi va urnini kursatuvchi xujjatdir. Muzey kataloglari sistemasida kuyidagi ma`lumotlar yoziladi:

1. muzey predmetining xarakteristikasi;
2. uning foydalanilgan davri, soxasi;
3. muzey fondiga bulgan alokadorligi kursatiladi.

Kataloglarda bulimlar kuyidagicha belgilanadi.

Fan - "U-8"

Fanga taalukli soxalar - "U-8-26" (tarixiy fanlar), "U-8-25-39" (jamiyat xakidagi fanlar).

Muzey fondlarini xujjatlashtirish sistemasi xozirgi axborot inkilob davrida juda katta axamiyatga ega.

Biz "Internet" tizimi orkali barcha muzeylarning fond xujjat va sistemasiga boglanishimiz, kerakli ma`lumotlarni olishimiz mumkin.

Tayanch suz va iboralar.

Fondni xisobga olish, fond xujjatlarining sistemasi, fondni ilmiy katologlash, kabul kilish akti, ilmiy tavsifli kartochkalar, "buyumshunoslik" fani, predmetlarning ilmiy pasporti.

Nazorat uchun savollar:

1. Muzey fondini xisobga olish nimalarda namoyon buladi?
2. Muzey fondini xisobga olish deganda nimani tushunasiz?
3. Fond xarajatlari sistemasi nima?
4. Fondni xisobga olishning axamiyati va maksadi.
5. "Buyumshunoslik" kandy fan?
6. Predmetlarni ilmiy pasportlash kay tarika amalga oshiriladi?
7. Ilmiy pasportning axamiyati nima?
8. Muzey katalogi nima?
9. Muzey katalogida kandy ma`lumotlar yoziladi?
10. Muzey kataloglarini urganishda Internet tizimining axamiyati kandy?

Adabiyotlar.

1. Muzevedenie. M.1988 g.
2. N. Sodikova. Madaniy yodgorliklar xazinası. T.1981 yil.
3. Kirienko E. M. Istoricheskiy muzey. M.1984 g.

10-Mavzu: Muzey tuplamlarini saklash.

Reja:

1. **Muzey fondini saklash tushunchasi.**
2. **Fondni saklash tartibi.**
3. **Muzey predmetlarini konservatsiyalash va kayta tiklash.**
4. **Muzey predmetlarini turli sharoitlarda saklash.**

1. Barcha predmetlar jumladan muzey pretmetlari xam fizik-mexanik shikastlanishga va ximik uzgarishlarga duch keladi. Bu xolat xavo va yoruglik tavsirida yuz beradi. SHuningdek biologik zararkunandalar xam muzey predmetlariga kup zarar keltiradi. Aynan shu va boshka turdagi zararlarni oldini olish maksadida muzeylarda saklash tartibi ishlab chikiladi. Saklash

tartibi majmuiga issiklik-namlik rejimi, xavoni ifloslanishidan saklash, biologik, mexanik zararlardan saklash tadbirlari kiradi. Bularni xammasi Fondni saklash tizimini tashkil etadi.

Saklash tizimi va tartibi asoslarini ishlab chikishga va amalga oshirishga yunaltirilgan fond ishi muzey fondini saklash deb ataladi.

2. Dastlab muzey predmetlari va ilmiy-kumakchi materiallarini kandy xarorat namlik me`yorlarda saklanishi zarurligini kurib chiksak. Avvalo shuni aloxida ta`kidlash kerakki, xar bir predmetni kandy xom-ashyolardan tayyorlanganligi foydalanilgan davri, saklanganlik darajasi yaxshilab urganib chikilishi zarur. Aniklangan ma`lumotlardan kelib chikib, xar predmet uchun uziga xos xarorat-namlik me`yori ishlab chikildi. Umumun olganda mutaxassislar muzey predmetlari va ilmiy-kumakchi materiallar uchun kuyidagi xarorat - namlik meyorini taklif etishadi: metallar uchun xarorat Q180 -Q200S, nisbiy namlik 50% gacha; oyna, emal va keramika buyumlari uchun xarorat Q120-Q200S va nisbiy namlik 55-65%; zeb-ziynat toshlar (kimmatbaxo va yarim kimmatbaxo toshlar xam) uchun Q150-Q180S, 50-55% nisbiy namlik; yogoch maxsulotlari uchun Q150-Q180S va 50-60%, gazlamalar uchun Q150-Q180S va 55-65%, teri, pergament, muyna maxsulotlari uchun Q160-Q180S va 50-60%, kogozlar Q150-Q190S va 50-55%, suyak, shox, muguz va toshbaka uchun Q140-Q150S va 55-60%, musavvirlik asarlari uchun Q120-Q180S va 50-55%, ok-kora tasvirdagi fotosuratlar uchun Q120S gacha va 40-50%, rangli tasvirdagi fotosuratlar uchun Q50Sgacha va 40-50%.

Maxsulotlarni kompleks saklash uchun esa, kursatkichlar kuyidagicha: xarorat Q180 10S, nisbiy namlik 50-60%.

Zarur xarorat namlik me`yorini ushlab turish uchun konditsionerdan, agar u bulmasa, isitish moslamasi, shamollatish, namlaydigan kurilma va kuritgichlardan foydalaniladi. Konditsioner (sovutgich) dan foydalanilganda xam xarorat - namlik me`yorini doimiy nazorat kilib turish lozim. Bu jarayonda psixometr, gigrometr, termometr yoki uzi yozuvchi asboblari - gigrograf va termograflardan foydalaniladi. Asboblarning kursatkichlari sutkada 2 marta doim bir vaktida maxsus jurnalga kayd etiladi.

Kadimiy muzey predmetlariga ifloslangan changlar - tarkibida oltingurgut bulgan gaz, vodorod sul'fid, ammiak, xlor, suzib yuruvchi organik va mineral changlar, kurumlar ta`sir kiladi. Buning oldini olish uchun muzey joylashgan joyning sanoat korxonalaridan yakni yoki uzokligiga, muzey xududining tozaligiga e`tibor berish kerak.

Lekin ba`zi xollarda muzeydagi rezina buyumlar va buyoklar xam, vodorod sul'fidning manbai bulib xizmat kilishi mumkin.

Tarkibida oltingurgut bulgan gaz asosan, gazlama, teri, kogoz, musavvirlik asarlari, marmar va boshka maxsulotlar uchun xavflidir.

Xlor esa gazlamalar, kogoz, kumush, jez, marmar va boshka maxsulotlar uchun xavf xisoblanadi.

Yoruglik tizimi xam muzey predmetlariga katta ta`sir kiladi. Bu ularning kandy xom-ashyodan tayyorlanganligiga boglik buladi. Predmetlarning yoruglikka chidamlilik darajasiga karab uch guruxga bulinishi mumkin:

1. Yoruglik chidamlilik darajasi yukori predmetlar: metall buyumlar, rangsiz toshlar, gips, keramika, rangsiz oynalar.
2. Yoruglikka chidamlilik darajasi urtacha predmetlar: suyak, teri, muyna va yogoch maxsulotlar xamda musavvirlik asarlari.
3. Yoruglikka chidamlilik darajasi past predmetlar: fotosuratlar, kogoz, gazlamalar.

Muzey predmetlariga biologik zararkunandalar xam katta zarar keltiradi. Biologik zararkunandalarning kupayishiga kuprok xarorat - namlik me`yoring buzilishi sabab buladi. Zamburuglar, mogor bosish xolatlar kuprok zarar keltiradi. Mogor bosish xolati kuprok xarorat Q200Q250S va nisbiy namlik 70% bulganda rivojlanadi. Uni oldini olish uchun muzey predmetlari 2% spirt aralashmasi bilan artiladi. Muzey predmetlariga turli xashoratlar xam katta xavf soladi. Ularga karshi kurashish uchun maxsus tozalash tadbirlari utkazilib turilishi shart.

Muzey predmetlarni mexanik shkastlarishi xam uchrab turadigan xodisadir. Bu xodisa kuprok mustaxkam bulmagan materiallar bilan sodir buladi. Bunday materiallar katoriga oyna,

keramika, yogoch, kogoz va boshka predmetlar kiradi. Mexanik shikastlanishni oldini olish uchun kuprok saklash tizimini tugri tashkil etish zarur. Avvalo saklovchi xodim kuli predmet bilan ishlayotganda kuruk va toza, iloji bulsa kulkop kiygan bulishi zarur. Predmetni doim mustaxkam joyida tutish zarur. Masalan sopol vazani tutkichdan emas, balki tanasidan ushlab olish zarur.

Muzey fondlarini turli ekstremal' xolatlardan xam ximoya kilish zarur. Bunday xolatlarda eng kup uchraydigani yongindir. Uni oldini olish uchun barcha zaruriy tadbirlar kurilishi va ma`muriyatni doimiy nazoratida bulishi zarur. Yonginga karshi nazorat kuchayu-kunduz davom etishi va yongin chikkan xolatda muzey predmetlarini evakuatsiyasi ukuv mashgulotlarida bir necha bor urganilgan bulishi shart. Suv tarmoklari va issiklik tizimi xam doimo nazoratda bulishi kerak. SHuningdek turli tabiiy ofatlar (suv toshkini, buron, er silkinishi) va urush paytida kuriladigan choralar xam ishla' chikilgan bulishi shart. Muzey xodimlari birinchi navbatda kutkariladigan predmetlar ruyxatini bilishlari lizim.

Muzeyni kuriklash tizimi xam mukammal ishlab chikilgan bulishi shart. Ertula oynalari, birinchi kavat oynalari va zarur boshka joylar metall panjaralar bilan ximoyalangan bulishi kerak. SHuningdek muzeyning barcha bulimlari, oyna, devorlar kuriklash signalizatsiya tizimi bilan ta`minlangan bulishi lozim. Muzey binosi militsiya xodimlari nazoratda bulishi xam talab etiladi.

3. Saklovchi aslida predmetni konservatsiyalashga zarur xarorat-namlik, biologik va yoruglik saklash tizimini yaratayotgan, ta`minlanayotgan paytdayok ishga kirishadi.

Konservatsiyalash - predmetning anik saklash tizimini yaratish, uning eskirish, shuningdek faol emirilish va mogorlash jarayonini tuxtatish, xamda uning keyingi takdirini ta`minlashdi. Muzey predmetining umrini uzaytirish uning tomoshabopligini oshirish, uni dastlabki xolatiga iloji boricha yakirligini ta`minlash, kayta tiklash ishlari olib boriladi.

Kayta tiklash (restavratsiya) eskirgan, uzgarishlarga uchragan, buzilgan-predmetning tashki kurinishini tiklash, dastlabki xolatiga yukori darajada yakirlashtirishdir. Restavratsiya fakar mutaxassis-restavratorlar tomonidan amalga oshiriladi. Saklash va kayta tiklash urtasiga kat`iy chegara kuyish shart emas..

4. Muzey fondining saklash tizimi predmetning fizik-ximik tarkibiga, manbaning turiga, mikdoriga, predmetning ulchamiga, joylashishiga, fondning saklash joyini texnika va moslamalar bilan ta`minlanganligiga boglik. Bu jarayonda predmetlar saklanish tizimini yakirligiga karab (kanday materialdan kilinganligi, saklanish xususiyati asosida) bulimlarga bulinadi.

Arxeologik yodgorliklar aloxida bulimda saklanadi. Gazlama, muyna, teri va ulardan kilingan maxsulotlar aloxida saklash bulimiga kuyiladi. Uz navbatida ular xam mayda guruxlarga bulinadi. Gazlamalar, zardushlik buyumlari, gazlama turlari, gorizontol xolatda, ulchashga karab kogoz yoki paxtadan tayyorlangan gazlama bilan urab kutilarda shkaflarga terib kuyiladi. Yungdan, ipakdan, paxtadan xamda sintetik tolalardan tayyorlangan gazlamalar turli shkaflarga joylashtiriladi. Marvarid, oltin, kumush va boshka kimmatbaxo predmetlar gorizont kutilarda saklanadi. Bosh kiyimlari ichiga kogoz yoki paxta momigi solinib maxsus kolipda shkaflarga kuyiladi. Suyak predmetlari ashyoviy manbalar ichida kupchilikni tashkil etadi. Ular oynali shkaflarga zaruriy oralikni saklagan xolda terib kuyiladi. Sopol va oynadan tayyorlangan predmetlar aloxida shkaflarda saklanadi. Ular shkaflar kavatlariga zarur oralikni saklagan xolda tushadigan ogirligining xisoblagan xolda kuyiladi. Ipsiz predmetlar, masalan, tarelka maxsus urnatgichda vertikal xolatda terilib kuyiladi. Boshka buyumlar kogoz yoki gazlama bilan uralgan xolatda gorizontol joylashtiriladi. Katta kurgazmali kurollar va xaykaltoroshlik asarlari maxsus stelaj yoki urnatgichlarda saklanadi. Numizmatik manbalar - tangalar, ordenlar, nishonlar, medallar, jetonlar xam shkaflarda maxsus kutichalarda saklanadi. Ularni kattik kogozdan kilingan jildlarda vertikal xolatda saklash mumkin. Kurollar tagliklarda, stelajlarda va shkaflarda saklanadi.

Tasviriy manbalar-musavvirlik asarlari, fotosuratlar, kartalar aloxida bulimda saklanadi. Fondni saklash joyi bir necha talablarga javob bera olishi kerak:

Birinchidan, saklash joyi predmetni yukori darajada, sifatli saklash uchun yarakli bulgan xom-ashyolardan tayyorlangan moslamalar bilan tayyorlangan bulishi kerak. Ular buyumni joylashtirishga, joyni almashtirish, tozalash va boshka zaruriy xizmatlar uchun kulay bulmogi kerak.

Ikkinchidan, saklanish joyi xududidan iloji boricha tejamli foydalanish buning uchun fakat zaruriy, moslashtirilgan mebellardan foydalanish kerak.

Uchinchidan, moslamalar predmetni joylashtirishga kulay xamda uni biologik, yoruglik zararlaridan ximoya kilishga moslangan bulishi shart.

Muzey predmetlarini kurgazmalar paytida xam ximoya kilish muxim xisoblanadi. Kurgazma tayyorlanayotgan joyning mikroiklimi, yoruglik xolati zaruriy me`yorlarda bulishi talab etiladi. Jixozlash va montaj kilishda muzey predmetlarini mexanik va ximik zararlanishdan saklash muxim axamiyat kasb etadi. Kurgazmalarga kelayotganlar sonini xisobga olib, shundan kelib chikkan xolda xavoni almashtirib, tozalab turish zarur buladi. Ular predmetni kurgazmada kancha vakt turishi mumkinligini belgilab beradi. Albatta, bunda predmetning xolati, kanday xom-ashyodan tayyorlanganligi va kurgazma tashkil etilayotgan joyni mikroiklimi xisobga olinadi. SHuningdek kurgazma tashkil etilgan joyda kuriklash tizimi tashkil etilish va signalizatsiya tizimi bilan ta`minlanish zarur.

Kurgazmalarga muzey fondining katta kismi yigiladi. Lekin, saklanayotgan kollektsiyalarni tomosha kilishga tashrif buyurayotganlarni mikdorini kupaytirish muxim masala bulib kolaveradi. Bu masalani xal etish uchun uzaro boglik kator muammolar echimini topish kerak. Ular asosan muzey predmetlarini mikdori va tarkibini kupaytirish, muzey predmetlarini namoyish etishni tashkiliy jixatlarini yaxshilash bilan boglik. Lekin bu muzey predmetlarini kuprok ochik namoyish etishni talab etadi va ularni ochik saklash tizimini yaratish muammosini xal etish lozim buladi. Bunday tizimni yaratish uchun eng yangi muzey texnikasi talab etiladi. Namoyish etilaetgan muzey predmetlari uchun asosiy xavf yoruglikning kupligi xisoblanadi. Ayniksa, kuppina tasviriy va yozma xamda ba`zi bir ashyoviy manbalar uchun bu xavf xalokatlidir. SHuning uchun kurgazmalarda asosan tashki muxitdan kam ta`sirlanadigan ba`zi bir metall, sopol, rangsiz oyna kabi predmetlarni namoyish etish ma`kul.

Muzey predmetlarini bir joydan ikkinchi joyga tashilayotganda, ximoyaviy vositalar bilan uralayotganda xam kup shikastlanadi. SHuning uchun bu ishni amalga oshirishda maxsus restavratorlar kengashi yoki komissiyasi ishlab chikkan tavsiyalardan foydalanish lozim. Muzey predmetlarini ximiyaviy vositalar bilan urash mexanik shikastlanishdan, namlik va xaroratning keskin uzgarishidan chang va boshka tashki ta`sirlardan saklaydi. Lekin, bu ishni nixoyatda extiyotkorlik talab etiladi. Ulchami katta buladigan asheviy manbalar kogoz, paxta va shu kabi narsalar bilan urab chikiladi. Ular kutiga joylashtirilganda bush kolgan joylar ximoyalovchi vositalar bilan tuldiriladi. Suyak, oyna shunga uxshash kichik nozik predmetlar avval kogoz kutilar (koropka)ga joylashtiriladi, sungra kutilarga solinadi. Numizmatik manbalar esa paxta bilan uralgan xolda xat jildlarga joylashtiriladi. Suratlarini joylashtirishning eng makbul yuli ular uchun maxsus ramka-kasetalar tayerlashdir. Xar-bir tayyorlab bulingan kuti koliplash akti bilan tasdiklanadi. U koliplovchi, restavrator va boshka mas`ul shaxslar imzosi bilan tasdiklanadi. Muzey predmetlarini tashishda fakat avtofurgonlardan foydalanish mumkin. Avtofurgon ichiga joylashtirilgan kutilarni iloji boricha xarakatsizlantirish choralari kuruladi. Agar xavo sovuk va nam yoki issik bulsa sharoitga karab maxsus ximoyalash tadbirlari utkaziladi.

Tayanch iboralar

Fizik-mexanik shikastlanish, kimeviy shikastlanish, biologik zararlanish, muzey fondini saklash, saklash tizimi, xarorat-namlik me`eri, eruglikka chidamlilik, konservatsinlash, restovratsiya, koliplash, restavrator, koliplovchi, koliplash akti.

Nazorat uchun savollar.

1. Muzey fondini saklash deb nimaga aytiladi?
2. Xarorat-namlik me`eri kandy asoslarga kura aniklanadi?
3. Zarur xarorat-namlik me`erikandy usullar bilan ta`minlanadi?
4. Xarorat-namlik me`eri kandy asboblardan nazarat kilinadi?
5. Kimeviy zararlanishni keltirib chikaradigan asosiy moddalar nimalardan iborat?
6. Kimeviy zararlanishni olishda kandy choralar kuriladi?
7. Muзей predmetlarini eruglikka chidamliligi darajasiga karab kandy guruxlarga bulish mumkin?
8. Kandy predmetlar eruglikka chidamlilik darajasi past xisoblanadi?
9. Biologik zararkurandalar tarkibiga nimalar kiradi?
10. Biologik zararkurandalarga karshi kurash tadbirlari kandy olib boriladi?
11. Muзей predmetlarini mexanik shkastlanish deganda nimani tushunasiz?
12. Mexanik shkastlanishni oldini olish uchun kandy choralar kuriladi?
13. Muзей predmetlarini eksremal' xolatldardan ximoya kilish deganda nimani tushunasiz?
14. Enginga karshi kandy choralar kuriladi?
15. Konservatsiyalash deb nimaga aytiladi?
16. Restovratsiya kilish deb nimaga aytiladi?
17. Fondni saklash joylariga muзей predmetlari kandy tartibda joylashtiriladi?
18. Muзей ekspozitsiyalarida kandy saklash, ximoyalash tadbirlari olib boriladi?
19. Muзей predmetlarini koliplash kandy tartibda olib boriladi?
20. Koliplash akti nima uchun tuldiriladi?

Manba va adabietlar.

1. Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Muzeyshunoslik. Moskva.1988 yil.
3. Muzeyning xarorat-namlik va eruglik tizimi. Moskva.1971 yil.
4. N.Sodikova. Madaniy edgorliklar xazinasi. Toshken.1981 yil.
5. Instruktsiya po uchetu i xraneniyu muzeno`x tsennostey v muzeyax sistemo`.- Moskva.1977 yil

11-Mavzu: Muзей kurgazmasi. Loyixalashning ilmiy asoslari.

REJA.

1. **Asosiy tushunchalar.**
2. **Muзей kurgazmasini tashkil etish.**
3. **Kurgazma materiallari.**
4. **Muзей kurgazmasini ilmiy loyixalash.**

1. Muзей predmeti kurgazma uchun tanlab olingadan sung, uning tushunchasi bir muncha uzgarib, (ta`lim-tarbiya berish, ta`sir etish) endi u muзей eksponatiga aylanadi. Kurgazmada foydalanilgan barcha materiallar (barcha moslamalar, kumakchi materiallar, muзей eksponatlari) kurgazma materiallari xisoblanadi. Muзей kurgazmasining bir-biriga uzaro boglik, bir-birini davom ettiradigankismlari yaxlik xolda kurgazmaning mavzuviy tuzilmasi (strukturasi)deb ataladi. Yukorida ta`kidlangandek, muзей eksponati, kurgazma materiallari va boshka kurgazmani tashkil etadigan barcha materiallar bir-birini tuldirgan, davom ettirgan yagona goyaga xizmat kilgan xoldagi guruxi kurgazma kompleksi deyiladi. Muзей kurgazmasini tashkil etishning turli xil uslublari mavjud. Bu uslublar me`moriy, badiiy va loyixachi dizaynerlar

tomonidan kurgazma xolatiga va shu kurgazma kuyiladigan muzey predmetlarining shakli va ulchamiga karab tanlanadi. Mana shu uslublar kompleksiga muzey kurgazmasini tashkil etish uslublari deyiladi. Muzey kurgazmasini kurgazmam maydonining me`moriy imkoniyatiga karab kurgazmaga kuyilgan muzey predmetining shakli va ulchamiga karab, shuningdek kurgazmaning mavzusidan kelib chikib muzey kurgazmasini ilmiy, memoriy, badiiy loyixasini ishlab chikish memoriy-badiiy echim deyiladi. Ba`zi xolatlarda mavzuning dolzarbligiga karab yoki biror-bir tarixiy vokea, sana, yubiley munosabati bilan vaktinchalik kurgazmalar tashkil etiladi. Bunday kurgazmalar katta maydonni egallamasligi va fakat muxim mavzuni yoritib berishda axamiyatga ega bulgan muzey predmetlaridan tashkil etilishi bilan xarakterlanadi. Lekin shunday bulsada, vaktinchalik kurgazmalarining katta ta`lim-tarbiyaviy xamda targibot kuchi ta`siri bekiyos buladi.

2. Muzey kurgazmasini tashkil etishda bir necha talablarga axamiyat berish kerak:

1. Muzey kurgazmasi ilmiy konsepsiyasi asosida tashkil etilishi, u tarixiy muzeylarda tashkil etilganda tarixiylik xolislik, ilmiylik talablariga javob bera olishi va dialektik uslubga asoslanishi kerak. Muzey kurgazmasi xronologik ketma-ketlikda va xolik yoritilishi xamda yuz bergan vokealarning sabab okibatini boshka tarixiy vokealar bilan sabab va okibatda uzaro bogliklik va uzaro rivojlannganligini kursatib berishi keark.

2. Muzey predmeti kurgazmada ikki talabni bojarishi lozim:

" a) muzey predmeti kurgazma mavzusi buyicha faktik dalil, isbotlanuvchi manba vazifasini bajarishi lozim;

" b) kurgazma mavzusini tula tushunish, usha davrni tula xis etish va kompleks ma`lumot olish uchun yordam berish kerak.

3. Muzey kurgazmasini tashkil etayotganda jamiyatning tarixiy bilimlaridan kanchalik xabardorligi saviyasiga axamiyat berish va kurgazmani ilmiy saviyasiga asosan urta me`yordagi tashrif buyuruvchilar uchun muljallangan bulishi kerak. Kurgazma tashrif mavzusidan jamiyatning xabardorlik saviyasi xar bir mavzu uchun turlicha bulishi tabiiy. Buni urganish va kurgazmani ilmiy jixatdan uta murakkab bulib ketmasligiga axamiyat berish kerak. Muvzuning ilmiy jixatdan murakkab tomonlarini maxsus ilmiy konferentsiyalarda, seminarlarda urganish va namoyish etish ma`kul.

Mavzu kurgazmasini tashkil etishda uni mavzuviy va kompleks mavzuviy tizimini ishlab chikish va muzey predmetlarini shu asosda tashkil etish va joylashtirish kerak.

3. Muzeyshunoslik kurgazmasining materiallari asosan kuyidagilardan iborat:

1. Muzey predmetlari muzey predmetlari kurgazmaning asosi-yadrosi xisoblanadi.

Kurgazmaga kuyiladigan muzey predmetlari asosan kuyidagilarga bulinadi:

" a) moddiy-ashyoviy predmetlar. Tarixiy muzey kurgazmalarida eng kup uchraydigan predmetlar shubxasiz moddiy-ashyoviy predmetlardir. Ular ibtidoiy jamoa tuzimi davridan to xizirgi kunga kadar bulib utgan tarixiy jarayonlar va vokealar xakida xikoya kilishi mumkin. Bunday predmetlarning bir kismi amaliy sanoat, badiiy xunarmandchilik, san`at tarixiga xam oid bulishi mumkin.

" B) tasviriy predmetlar. Muzey kurgazmasi mavzuni ochib berishda, ta`sirchanlikda va kurgazma mavzusiga oid bulgan dvar ruxi va muxitni tashrif buyuruvchilarga singdirishda tasviriy predmetlarning axamiyati katta. Tasviriy predmetlar mavzu uchun kup xollarda faktik dalil, isbotlovchi manba sifatida xizmat kilmasligi mumkin. Lekin shunday xollar xam buladiki, ular yagona ishonchli isbotlovchi manba bulishi mumkin. Bunday xollarda kupgina musavvirlarning uz kuzi bilan kurganlari asosida chizgan suratlari va fotosuratlar bilan yuz berishi mumkin. Misol uchun Samarkanddagi Mirzo Ulugbek madrasasining xozir mavjud bulmagan turtinchi minorasi, uni uz kuzi bilan kurgan rus musavviri Verishchagin suratlari saklanib kolgan.

" v) yozma materiallar. Yozma materiallar sirasiga tarixiy asarlar, yuridik xujjatlar, yorliklar, farmon va buyruklar kiradi. Kurgazmada tarixiy asarlar bilan birgalikda mavzuga oid bulgan yuridik xujjatlar - farmon, konun, sud xukmi va boshkalar xam axamiyatga ega. Ular kup xollarda kuchli ta`sirvositasi va anik isbotlovchi manba sifatida xam juda muxim. Misol uchun

yozuvchi A. Kodiriyning tergov kilish xujjatlari, tergov jarayoni atni yoki unga "Mutakillik ordeni" berilishi xakidagi prezident farmoni.

" G) xujjatli fonomateriallar. Muzei kurgazma larida xujjatli fotomateriallar ya`ni kuy, kushik, nutk va boshkalar xam katta axamiyatga ega. Misol uchun "Mustakillik" mavzusidagi kurgazmada prezidentimiz I.A.Karimovning Uzbekiston mustakilligigi e`lon kilishini fono yoki video yozuvi namoyish etilsa katta samara beradi. SHuningdek, muzei kurgazmasi mavzuga mos keladigan biror kuy, zarur bulsa shovkin yoki ovozlari fonoyozuvi xalkit bermaydigan darajada eshittirib turilsa yanada katta samara beradi, ta`sirchanlik keskin ortadi.

2. Muzei kurgazmasini tashkil etishda yordam beradigan kumakchi materiallar. Bular safiga asosan kurgazma tashkil etishda foydalanilgan zarur moslamalar, mebellar va boshkalar kiradi. Kumakchi materiallar xatto, zarur xollarda, muzeiga tegishli bulmasligi xam mumkin.

3. Muzei kurgazmasining ilmiy-kumakchi materiallari. Bular safiga asosan muzei fondlarida saklanayotgan va shu kurgazma mavzusiga daxldor bulgan ilmiy-kumakchi materiallar kiradi. Ular kurgazma mavzusini yoritishda yordam beradigan xaritalar, turli chizmalar, diogrammalar bulishi mumkin.

4. Matn va fonosharxlar. Muzei kurgazmasida namoyish etilayotgan eksponatlar va kurgazma mavzusini yoritishda, tanishtirishda turli yozma matnlardan va fonosharxlardan foydalanish mumkin. Lekin bu matn va fonosharxlarning yozma va fono manbalardan farki shuki, ular dalil, isbotlovchi manba emas, balki, fakat sharx beruvchi, izoxlovchi kuchga egadir.

SHuningdek, kurgazma materiallariga turli kursatkichlar xam kirishi mumkin. Ularda kurgazma maydonining tuzilishi va yunalishlari kursatiladi.

4. Muzei kurgazmasining ilmiy loyixalarda butun muzei jamoasi va zurur xollarda maxsus chakirilgan yordamchi mutaxassislar ishtirok etadi. Muzei kurgazmasining ilmiy loyixalash uch yunalishda olib boriladi:

1. Fond bulimlarida muzei kurgazmasini ilmiy loyixalash va tayyorlash kuyidgi jarayonda amalga oshadi. Bu yunalishda dastlab muzei predmetlarining kurgazma mavzusiga oidlari tanlab olinadi. Sungra kayta tiklash bulimiga utgazilgan muzei predmeti bu erda obdon tekshirilib, zarur bulsa kayta tiklash tadbirlari olib boriladi. SHundan keyin muzei predmeti bilan ekuskursavod tanishtiriladi va u bilan mashgulotlar utkaziladi. Kurgazma komissiyasi shundan sung muzei predmetini kabul kladi va sunggi nazorat-taftish utkaziladi. Ya`ni muzei predmetini kurgazmada kandy sharoitda, kancha muddat turishi mumkinligi belgilanadi.

2. Mavzuni ilmiy urganish va tayyorlash. Dastlab kurgazma mavzusiga oid manba va adabiyotlar urganib chikiladi. Bu ilm fond bulimlarida, kutubxonalar, arxivlarda olib boriladi. Ya`ni mavzu tulik urganiladi. SHundan sung mavzuning anik shakli va ilmiy konseptsiya yaratiladi. Navbatdagi ish mavzu tuzilmasini (struktura) va mavzu rejalarini ishlab chikish buladi. Mavzu rejalarini tuzishda katrotekalarni urganish zarur. Katrotekalar yordamida tuzilgan mavzuvii rejalar asosida muzei predmetlari va yordamchi materiallar tanlanadi, shuningdek ilmiy-kumakchi materiallar tayyorlanadi. Sungra u yukoridagilardan kelib chikib mavzuning kurgazmavii rejasini tuziladi. Aynan shu kurgazmavii reja asosida yul kursatkichlar, ma`ruza matnlari va me`moriy-badiiy echim loyixasi tuziladi. SHu reja asosida ekuskursovodlar bilan mashgulot utkazilib, kurgazma mavzusini ilmiy urganish va tayyorlash nixoyasiga etadi.

3. Me`moriy yunalish. Mavzudan, mavzuning ilmiy kontseptsiyasi va kurgazma rejasidan, kartotekalardagi ma`lumotlardan, mavzuvii rejadan kelib chikib kurgazmaning bosh me`moriy-badiiy echimi umumii tarzda rejalashtiriladi. SHu echim mavzuvii-kurgazmavii reja asosida mme`moriy-badiiy yochim loyixasi ishlab chikiladi. Sungra aynan shu loyixa asosida montaj ishlari olib boriladi, kurgazmani targib kiluvchi taklifnomalar, afishalar nashr etiladi. Aynan shu uchinchi yunalishda ilmiy xodimlar, musavvirlar, dizaynerlar va me`morlar birgalikda ish olib boradilar.

Tayanch iboralar:

muzei eksponati, kurgazma materiallari, kurgazma tuzilmasi, kurgazma kompleksi, kurgazma tashkil etish uslublari, me`moriy-badiiy echim, vaktinchalik kurgazma, kumakchi materiallar.

Nazorat uchun savollar:

1. Muzei eksponati nima?
2. Kurgazma materiallari deb nimaga aytiladi?
3. Kurgazma tuzilmasi xakida ma`lumot bering?
4. Kurgazma kompleksi nima?
5. Kurgazma tashkil etishnikanday uslublari bor?
6. Kurgazma me`moriy-badiiy echimi deganda nimani tushunasiz?
7. Vaktinchalik kurgazma nima?
8. Muzei kurgazmasi kanday talablar asosida tashkil etiladi?
9. Muzei kurgazmasi materiallari asosan nimalardan iborat buladi?
10. Muzei kurgazmasini ilmiy tashkil etish kanday yunalishlarda olib boriladi?

Manba va adabietlar.

1. Muzeyshunoslik. Moskva.1988 yil.
2. Muzeining xarorat-namlik va eruglik tizimi. Moskva.1971 yil.
3. N.Sodikova. Madaniy edgorliklar xazinasini. Toshken.1981 yil.
4. Instruktsiya po uchetu i xraneniyu muzeno`x tsennostey v muzeyax sistemo`.- Moskva.1977 yil

12-Mavzu:Muzei kurgazmasi.

Reja.

I-Kirish.

II-Umumtarix muzeylari

III-Ulkashunoslik muzeylarining tarix bulimlari.

IV-etnografiya muzeylari.Ochik osmon ostida muzeylar.Kurixona muzeylari.

V-Xulosa.

I-Kirish.

Tarixiy profildagi muzeylar ekspozitsiyalari oldida turgan vazifalar, ularning umumiy nazariy asosiy mazkur muzeylarning turli guruxlarga xos bulgan va ularda tarixiy jarayonning yoritilishininr turli jixatlaridan kelib chikadigan farqlarini inkor etmaydi. Bu farqlar ekspozitsiyaning ilmiy kontseptsiyasida, uning tematik strukturasi, materiallar tarkibi va komplekslar xarakterida uzini namoyon kiladi.Buning vazifamiz- ana shu uziga xosliklarga kiska tavsif berishdir.

II-Umumtarixiy muzeylar.

Ma`lumki bu muzeylar da uz aksini topgan tarixiy jarayon notekis rivojlangan.turli mamlakat va mintakalar uchun ijtimoiy-tarixiy formatsiyalarning tarixiy chegaralari bir xilda emas. Ularning almashunuvi xam turli shakllarda amalga oshgan.Xar bir mamlakatning tarixi uzining takrorlanmasxususiyatlariga ega.SHuning uchun ekspozitsiyalarning tematik strukturasi xam mazmuni xam bir-biridan farkanadi.Formatziyalar tarixiga bagishlangan zallar farmattsiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va mafkuraviy ust kurulmasini xarakterlaydi.

Kadimgi dunyo tarixi buyicha kurgazma ibtidoiy tuzim tugrisidagi yagona manba bulgan arxiyalogik matriallar asosiga kuruladi.SHunday kilib bu erda tadjikot ob`kti va kursatuv ob`kti

bir-biriga mos tushadi, bu esa ekspozitsiyaning yuksak ilmiy patentsialga ega bulishiga olib keladi.

Arxeologik kurgazmalar insonning shakllanishida mexnatning urni, sinfiy jamiyatdan oldingi jamiyatni tuzilishi, ibtidoiy diniy etikodlar xakida tushunchalarini etkazadi.

Mamlakat xududida yashagan turli xalklar tomonidan yaratilgan madaniyat yodgorliklarining namoish etilishi ayrim irklarning "abadiy"kolokligi yoki "tugma" ustunligi xakidagi reaksion nazariyalani rad etadi.Bu xammasi dunyokarashni shakllantirishda muxim axamiyatga ega.

Kurgazmada muayyan arxeologik yodgorlik yoki arxeologik madaniyat, jamiyat tarakkiyotining ayrim tomonlarini tavsiflovchi ekpozitsion komplekslar tashkil etilishi mumkin.muzeylarda arxeologik yodgorliklarning uzini, asl parchalarin kushib rekonstruktsiya kilingan yodgorliklarni kushib ekspozitsiya vujudga keltirish xam mumkin.Maketlardan foydalanish amaliyoti xam keng kullanadi.

Kupina arxeologik ekspozitsiyaga arxeologik tadjikot materiallari (arx, yodgorlikliklar kartasi, topilmalar joyining plani) xam kiritiladi.kuldorlik tuzumi, ilk feodal tuzumi xakidagi ekspozitsiyalarni yaratishda xam arxeologik materiallardanfoydalanish mumkin.

Feodal tuzum buyicha ekspoztsiya bir kaor uziga xosliklarga ega.

Muzeylarda saklanayotgan IVI-XIX asrning birinchi yarmiga oid tarixiy yodgorliklar asosan xukmron sinflarning turmushi va madaniyati, davlat tuzulishi, xarbiy ishni aks ettiradi.Fondlarda cheklangan mikdorda etnografiyaik ma`lumotlar, urta asr xunarmandchiligi va dexkonchiligi kolleksiyalari mavjud.Odatda bular xalk san`ati predmetlaridir.SHuning uchun xam tarixiy muzeyshunosl oldida bu predmetlarni juda puxtalik bilan tanlash, uni muayen bilish maksadlariga buysindirish, ulardan xilma-xil axborotdan belgilangan mavzu kontekstida, bir vaktning uzida yozma manbalarni kushgan xolda foydalanish vazifalari turadi.Xalk mexnati natijasi bulgan predmetlar ishlab chikarish uslubi, shuningdek xalkning ijodiy kuchi, ma`naviy boyligi xakida ma`lumot beradi.

Feodalizm davridagi sinfiy kurash mavzusida ekspozitsiya komplekslar tashkil etishga katta e`tibor beriladi.Bu mavzuga tegishli buyumlar juda oz shuning uchun xam juda muxim buladi.Əkspozitsiyalar asosan yozma manbalar va tasviriy materiallar asosiga kuruladi.

Kapitalistik tuzumga bagishlangan kurgazmalarni tashkil etadi bir kator kiyinchiliklar mavjud.birinchildan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan ekspozitsiyalarda bu davrning moddiy madaniyati juda kamchilik predmetlarda aks ettirilgan.Ətnografik kolmksiyalarda dexkonlarning tabakalanishi va xonavayron bulishi uz aksini topmagan.SHurolar davrida vujudga kelgan kurgazmalar esa uta kuchli ssnfiylashtirilgan nuktaiy nazar asosiga yaratilgan.Bu kurgazmalarda ishchilarning xujjalari, ishchilarning fotosuratlari,yashirin tashkilotlar muxiti aks ettirilgan.shurolar davriga oid uta mafkuralashtirilgan ekspozitsiyalar yangi nuktai-nazar asosida kurib chikilishi lozim buladi.

Xozirgi zamoni aks ettiruvchi ekspozitsiyalar uziga xos xususiyatlarga ega.Bunday ekspozitsiyalarda tasviriy manbalardan xujjatli fotografiyalar birinchi urinda turadi; kurgazmali targibotning turli kurinishlaridan keng foydalanadi; zamonaviy jamiyat xayotidagi muximvokealar filatemiya va numizmatikada uz ifodasini topadi.

Mazkur ekspozitsiyada sanoat va kishlok xujaligi yutuklari;sanoat ob'ektlari, kurilishlar xakidgi materiallar xam etakchi urin tutadi.

Zamonaviy davrga bagishlangan ekspozitsiyalar tabiiy stabulemas.ular doimiy rvishda yangi materialar bilan tuldirib boriladi.

III-Ulkashunoslik muzeylarning tarix bulimlari.

Ulkashunoslik muzeylarining tarix bulimlari mamlakat tarixining umumiy davrlashtirishga tayangan xolda maxalliy va umum davlat tarixi urtasidagi tabiiy alokadorlikni aks ettirishi lozim.butun mamlakatga xos bulgan xodisa, maxalliy materialda aniklashtiriladi.Əkspozitsiyara umumlashtiruvchi materialni kiritamizmaxalliy vokealarning mamlakat tarixidagi urni va axamiyatini aniklashga yordam beradi.Ulka xududida yuz bergan

davlat axamiyatidagi vokea maxalliy vkea deb karamasligi va aksincha ulka chegarasidan chikmaydigan vokealarning axamiyatini oshirib yuborish xam kerak emas.

Kupincha mintakaning markaziy madaniy muassasasi bulgan ulkashunoslik muzeylarning umumta`limiy va targibot imkoniyatlarini kengaytirish uchun asosiy tarixiy ekspozitsiya bilan bir katorda ulkashunoslik yunalishidan chetga chikadigan, misol uchun "Insoningvujudsha kelishi", "Dinning paydo bulishi" kabi doimiy vistavkalar tashkil etilishi mumkin. Kachondir muzey asoschilari yoki jonkuyarlari tomonidan tuplangan vamuzeyda saklanayotgan, lekin ulkashunoslik xarakterida bulmagan etnografik, numizmatik va boshkamateriallarni kursatishdan xamvoz kechmaslik kerak.. Ularmuzey tarixi bilan tanishtiradi, tomoshabinning dunyokarashini kengaytiradi va uning kizikishiga sabab buladi.

IV-Этноgrafik muzeylar. Ochik osmon ostidagi muzeylar. Kurikxona muzeylar.

Tarixiy muzeylar profildagi muzeylarga etnografik muzeylar xam kiradi. ularning ekspozitsiyasi etnografiya fanining muammolari va vazifalaridan kelib chikkan xolda turli xalklarning turmush va madaniyatining tarixiy shakllangan uziga xos shakllarini tavsiflaydi, tarixiy rivojlanishdagi milliy an`analarning uziga xosligini aniklaydi, maxalliy madaniy maishiy uziga xosliklarini urganadi.

Экспозitsiya mamlakatlar va xalklar buyicha bulimlarga bulinadi va tarixiy izchillikda joylashtiriladi. ularda xujalik va turmush shakliga ta`sir kursatuvchi tabiy, ijtimoiy-iktisodiy sharoitlar yoritiladi. odatda bu ekspozitsiyalar xalk turmushining aloxida tomonlariga; xujalik, uy-joy, kiyimva boshkalar, shuningdek, ma`naviy madaniyatga bagishlangan bulimlardan iyuorat buladi.

Этноgrafik ekspozitsiyalarda materiallarning ayrim turlarining namoyishi bilan birga xayotiy komplekslar- mxnat sharoiti, marosim, urf-odatlar bilan boglik komplekslar muxim urin tutadi. aynan shu komplekslar maneknlarni joylashtirish uchun asos bula oladi. Эkспозitsiyada maneken mazkur millatga xos bulgan antropologik tip tugrisida xam tasavvur beradi.

Этноgrafik muzeylarida arxitektura yodgorliklarini mexnat sharoitini ifodalovchi manzaralarini ochik xavoda namoiyish etish amaliyoti xam kullnadi. Muzey kurikxonalar.

Tayanch atamalari.

- 1 Tarixiy muzeylar.
- 2 Ulkashunoslik muzeylari.
- 3 Этнографиya muzeylari
- 4 Ochik xavodagi muzeylar.
- 5 Kurikxona muzeylar.

Nazariy savollar.

1. Tarixiy muzeylar ekspozitsiyalarining uziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- 2 Ulkashunoslik muzeyi tarix bulimida ekspozitsiyasi kandy tashkil topgan?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- | | |
|---|--------------------------|
| 1. Muzivedenie. | -M.; Vo`sel. SHk.; 1988. |
| 2 Mixaylovskaya .I muzeynal espozitsiya | M.; 1964. |
| 3 Sodikova N. Uzbekiston muzey ishi. | -T.; Fan, 1977. |
| 4 Sodikova N. Madaniy merosimiz xazinasi. | -T.; 1991. |

13-Mavzu: Muzey kurgazmasining me`moriy-badiiy echimi.

Reja

- I. Kirish
- II. Badiiy loyixalashni tashkil etish. Tayerlov boskichining urni va axamiyati.
- III. Ekspozitsiyaning bosh karori.
- IV. Eskiz loyixasi.
- V. Ekspozitsiya me`moriy-badiiy loyixasini amalga oshirishi.
- VI. Xulosa.

- "Kirish" -

Muzey kurgazmasini loyixalash va tashkil etishda uz tarkibiga turli ixtisoslikdagi muzey xodimlari, rassomlar, arxitektorlar, dizaynerlar, injenerlar, tarixchi olimlar, iktisodchilar, psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar, ulkashunoslar, kishlok xujaligi mutaxassislarini birlashtirgan mualliflar jamoasi ishtirok etadi. Ekspozitsiyani loyixalashning barcha ishtirokchilari ishini uyushgan va rejali tashkil etish, loyixani belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta`minlash uchun ishning izchiligini, xar bir boskichdagi faoliyat xarakterini, loyixa xujjatlari tarkibini aniklab olish lozim.

Sungi yillarda ishlab chikarilgan va ekspozitsiya amaliyotida uz tasdigini topgan me`yorlar muzey ekspozitsiyalarini badiiy loyixalash ishining kuyidagi boskichlarini kuzda tutadi: ob`ektning urganish; bosh karorni ishlab chikish; eskiz loyixasini ishlab chikish; ishchi loyixa.

Me`moriy-badiiy loyixalash ishini boshlash uchun asosiy xujjat ilmiy kontseptsiya xisoblanadi. Ilmiy kontseptsiya asosida ekspozitsiyaning bosh karori tuziladi va u Ilmiy kengash yigiltshda muxokoma etiladi va tasdiklanadi.

Ikkinchi boskich-muzeyning ilmiy jamoasi tomonidan tayyorlangan, kengaytirilgan tematik sturktura asosida amalga oshiriladigan eskiz loyixasini ishlab chikishdir. Yangi boskichda rassom ekspozitsion materiallar bilan batafsil tanishib chikadi. Eskiz loyixasi xam muzeyning ilmiy kengashi va loyixalovchi tashkilotning badiiy kengashi tomonidan kurib chikilishi va tasdiklanishi lozim.

Uchinchi boskich-ishchi loyixalash-muzeyning tematik-ekspozitsion rejasi asosida amalga oshiriladi, va me`moriy-badiiy loyixa muallifi raxbarligida ishchi tartibda kurib chikiladi va tasdiklanadi.

Ekspozitsiyaning zamon talablariga javob beradigan me`moriy-badiiy echimini yaratish, -uta murakkaab ijodiy vazifadir. Bu vazifaga uz xissasini kushadigan, agar extiyotkorlik bilan munosobatda bulinmasa bir butun ekspozitsion obrazni zayflashtirilgan yoki xatto buzib tashlaydigan turli xil xarakterdagi ba`zan karama-karshi elementlarni yagona ansablg birlashtirish zarur buladi. Muzeylarning loyixalash ob`ekti sifatidagi kupkiraliligi, shuningdek rassomlarning ijodiy imkoniyatlari badiiy echimlarning sarkirra va ijodiy izlanishning cheksiz bulishini ta`minlaydi. Loyixalash ishini normal borishi va uni yukori darajaga etishida ilmiy jamoa va rassomlar urtasida yakin xamkorlik bulishi juda muximdir. Amaliyot shuni kursatmokdaki rassomlarni ishga ilmiy loyixalashning birinchi, ekspozitsiyaning ilmiy kontseptsiyasini yaratish boskichida kushilishi, xamkorlik samaradorligini yanada oshiradi. Muddatiga kura bu ishning dastlabki boskichi - "ob`ektning urganish" ga tugri kelishi mumkin. Bu davrda rassom muzeyning ilmiy xujjatlari va faoliyati bilan, e`lon kilingan adabiyotlar, yangi ekspozitsiyaga oid ishchi materiallar bilan tanishadi, loyixalar muxokamasida ishtirok ishtirok etadi, fondlar, vo`stavkalar b-n tanishadi. SHunday kilib tayyorlov boskichining maksadi rassomni turli-tuman axborot bilan ta`minlashdir, va keyinchalik ishning samaradorligi uni tashkil etilayotgan ekspozitsiyaning xususiyatlarini, uning asosiy goyalarini kanchalik tushunchanligiga, manbalar bazasini uzlashtirganligiga kup jixatdan boglik buladi.

Rassom ekspozitsion xonalar bilan batafsil tanishib chikishi lozim. Muзей xodimlari uni binoning ichki planirovkasi xususiyatlaritugrisidagi ma`lumotlar bilan ta`minlashlari lozim.

Rassom uchun muzeyga keluvchilarning tarkibi, ularning kizikishlari, ekspozitsiyaning biror kismiga va biror predmetga alohida e'tibor bilan karashlari xakidagi ma'lumotlar xam muximdir. Tomoshabinlar Kontingentida turistlar yoki maktab ukuvchilarini kupchilikni tashkil etishiga, asosan yakka tartibdagi tomoshabinga muljallanganligi yoki tula ekskursiya xizmati kursatishga karab muzeylarning ilmiy va badiiy echimlarida sezilarli farklar bulishi mumkin.

III. Ekspozitsiyaning bosh karori.

Bir necha zallarda tashkil etiladigan ekspozitsiyalar uchun bosh karor ishlab chikiladi. Bosh karorda muallifning badiiy konseptsiyasi, muzey ekspozitsiyasi tuzilishining asosiy badiiy printsiplari, uning goyaviy mazmunini obrazli badiiy ochilishi uz aksini topadi. Bundan tashkari bir kator anik vazifalar: asosiy mavzularni ekspozitsiyani kurish marshruti buylab zallarga va muzey xududiga joylashtirish; asosiy esponatlarni joylashtirish; ekspozitsiyani yoritish va ranglar karori printsiplari, jixozlar va alohida vositalarning umumiy karori, audiovizual va texnik vositalardan foydalanish kabilar xal etiladi.

Bosh karor Ilmiy kengashga kuydagi kurinishda takdim etiladi:

- yirik gaboritli ekspонатlar, dekorativ elementlar, me'moriy va tabiiy muxit ob'ektlari joylashtirilgan muzey xududi plani;
- ekspozitsion zallarning asosiy mavzularning joylashuvi va ekspozitsion marshrut variantlari bilan birgalikdagi plani ;
- muzeyning asosiy zallari chizmalari.

CHizma materiallar aynan shu vazifani bajaruvchi maket bilan almashtirilishi xam mumkin. Ekspozitsiyani bezashda kup jixatdan ekspozitsiyani idrok etish yunalishini beruvchi kirish zonasining muximligiga etibor karatish lozim. Rassom shaxar kurulishining xar kandy sharoitida uni ajratib olishi va tashkil etishi lozim. U muayyan xududiy va mazmuniy traktovkaga ega bulishi kerak. Kirish zonasi shaxar kuchalarining ishchan tashvishli kurinishiga karama-karshi ularok bayramona ruxda bulishi mumkin, xaykaltaroshlik yodgorliklari kushilgan xolda me'morial xarakterda yoki muzeyning faoliyati, ekspozitsiya strukturasi va boshka ma'lumotlarni joylashtirish natijasida tashkil etilgan axborot reklama xarakterida bulishi mumkin. Muzey extiyorida er uchastkasi mavjud bulsa, ochik ekspozitsiya tashkil etish imkoniyati buladi. Muzeylar extiyorida juda kuplab ochik xavoda namoish etish mumkin bulgan ekspонатlar buladi. Saklanishiga zarar etmagan xolda xarbiy texnika, kadingi tosh xaykallar, manumental san'at asarlari va xalk xunarmandchiligi edgorliklari namoish etilishi mumkin. Bu xududni kuklamzorlashtirish muzey ekspozitsiyais tabiyat bulimlarini tuldiribgina kolmasdan, shaxar muxitining zararli ta'siridan ximoyani ta'minlaydi.

Ekspozitsion mavzularni zallar buylab joylashtirish rejasini tayyorlash xam juda murakkab jarayondir. Muzeyning barcha bulimlari odatda kurgazma maydoni, ularni oldilariga kuyilgan vazifalarni bajarish uchun etarli emasligidan nolishadi. Bu xolat rassomlar tomonidan juda anik xisobga olinishi lozim.

Bosh karor loyixasini kurib chikish davomida ekspozitsiyani tomosha kilish yunalishini alohida ajratib kursatish lozim buladi. Butun zona va zallar buylab ekspozitsion yunalish matnli axborotlarni ukishga kulay bulishi uchun chapdan -unga tomon tashkil etiladi. Tomoshabinning yuli kiska, karama-karshi okimlarsiz, aylanmalarsiz, kaytishlarsiz bulishlari kerak. Maxsus kurulgan muzey binolarida bu narsalar xisobga olinadi va ijobiy xal etiladi. Moslashtirilgan binolarda maksadga muvofik yunalishni tashkil etish juda kiyin kechadi. Ba`zan kirish yuli bitta bulganligi sababli karama-karshi okimlardan xoli bulish imkoniyati bulmaydi. Ba`zan tomoshabinning xarakat yunalishini sezilarli darajada yaxshilovchi kayta planlashtirishni amalga oshirish maksadga muvofikdip.

Tarixiy muzeylarda ekspozitsiya tomoshasining izchilligi uchun maksadli yunaltirilgan marshrut zaruriyati mavjud buladi. Lekin tomoshabinni kerakli yunalishga yuborish juda ustalik bilan, unda ichki norozilikni uygotmagan xolda amalga oshirilmogi kerak. Bosh karorda tomoshabinning fe'l atvorini, bir xil ritmda xarakatlanishini tashkil etadigan, ekspozitsiyani

idrok etishning ruxiy me`yorlari chegarasida tomosha kilishni ta`minlovchi vositalar kuzda tutilgan bulishi kerak. Yirik gabaritli eksponatlar, badiiy-tasviriy vositalar, bezaklar, kursatgichlar va bir kator boshka usullar manashu maksadga xizmat kiladi.

Bosh karor loiyxasida rassom maxsus yaratilgan san`at asarlarini (rang buyok, grafika, xaykaltaroshlik) diogramma, ilmiy rekonstruktsiyalarni taklif etishi mumkin. Ularning zaruriyati rassom tomonidan asoslanishi va jamoa tomonidan muxokama kulinishi kerak.

Bosh karor boskichida yoritishning umumiy printsiplari (tabiiy, suniy, aralash, umumiy, maxalliy) kurib chikiladi. Intererning bezash va jixozlash tayyorlash uchun material masalasi xal etiladi.

Devorlarni dagal fakturasi ayrim eksponatlar, masalan rassomchilik asarlari amaliy san`at asarlariga mos tushmaydi. Oddiy matolar (buz, kop-kanorga ishlatiladigan mato), alak, chit, yogoch kuplab etnografik predmetlar uchun fan vazifasini bajaradi; yumshok matolar, shuningdek movut, barkut, ipak kabilar zargarlik predmetlariga yaxshi tushadi. Devor va jixozlarda yoruglik kaytarmaydigan va yonginga karshi koplamalardan xam keng foydalanish mumkin.

IV. Əskiz loiyxasi.

Əskiz loiyxasini ishlab chikish boskichida kuydagi masalalar xal etilishi lozim:

- tematik bulim, ekspozitsion mavzular maydonlarini uzil-kesil taksimlanishi;
- barcha etakchi eksponat va matlarni joylashtirilishi, ularni kursatish uslublari, ekspozitsion jixozlarni joy-joyiga kuyish;
- ekspozitsiyaning yakuniy xajmiy-xududiy va rang echimi;
- zallarni, ekspozitsiyani va aloxida predmetlarni yoritish;
- jixozlar va dekorativ elementlar konstruksiyasining kat`iy echimi;
- audiovizual va texnik vositalarni joylashtirish;
- yondosh xududni yirik xajimli eksponatlar va dekorativ elementlarni joylashtirib bezatish.

SHunday kilib rassomning eskiz loiyxasi ustida ishlashi-bu bosh karor takliflarini aniklashtirilishi, detallashtirilishi va chukurlashtirilishi demakdir. Rassom ekspozitsiyani muayyan xududiy chegalalarda yaratadi. Əkspozitsion kamar xajmi odamning urtacha buyi va kuzning polga nisbatan joylanishi darajasiga karab belgilanadi. Uning balandligi 2-2,5 metrdan , kurish burchagi gorizental buyicha 25-30 S dan , vertikal buyicha 40 S dan oshmaydi. Mayda predmetlarni 70 sm dan pastga joylashtirilmaydi, chunki bu ularni tomosha kilishni kiyinlashtiradi.

V. Əkspozitsiya me`moriy-badiiy loiyxasini amalga oshirilishi.

Muzey ekspozitsiyasining tasdiklangan loiyxasini amalga oshirish boskichida mualliflar jamoasi ekspozitsiya mazmuni va shaklini tuldirish va aniklashtirish bilan boglik kuplab yunalishlarda faol ishlashni davom ettiradi, badiiy ijrochilik ishlarida ishtirok etadi. Bezashning manumental dekorativ elementlari, grafik ishlar, audiovizual vositalar-kinofilmlar, poleekran programma va boshkalar, mazmuni va estetik tomonlaridan, shuningdek ekspozitsiya nuktai nazaridan kabul kilinadi va baxolanadi. Fotografiya ekspozitsiya san`atining muxim vositasi bulib kolmokda, lekin kup jixatdan rejalashtirilgan effekt ijrochilik darajasiga boglik buladi. Sungi vaktlarda xonada muayyan predmetli muxid atmosferasini xosil kiluvchi yirik formatli fotosuratlardan keng foydalanilmokda. Mualliflar jamoasi ekspozitsiyaning chizmalaridan iborat kismini, shuning dek ilmiy-yordamchi materiallarni yaratishga juda jiddiy axamiyat beradi. CHizmalar asosiy ma`lumotni elementlar urtasidagi alokalarni kiska va anik etkazib berishi, tasvirni oddiyashtirishi, tomoshabinni fikrlanishini tashkil etishi va dikkatini bir joyga jamlashga xarakat kilishi lozim.

Əkspozitsiya montajining boshlanishiga kadar shrift ishi bajariladi.

SHrift va uning kompozitsiyasi matn ta`sirini kuchaytiradi. Matnning xajmi, tipi, shakli, rangi va joylashtirilishi masalasini loyixachi rassom xal etadi. Yozuvlar mukammal bulishi lozim. Gazeta va kitoblarda ishlatiladigan shriftlardan foydalanish keng kullaniladi. Bunday shriftlarga kuz kunikgan buladi va ukish uchun kulay buladi. Kiska va uta uzun satrlardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Badiiy-ijrochilik ishlari bilan bir vakda ta`mirlash kurilish ishlari xam amalga oshiriladi. Bular katoriga isitish, yoritish ventilyatsiya tizimi, yongindan muxofaza sistemasini urnitish bilan boglik ishlap kiradi.

Yaxshi tayyorlangan loyixa ekspozitsiyani kiska muddatlarda montaj kilinishini ta`minlaydi. Tayyorlangan ekspozitsiya, muzey ma`muriyatidan, ilmiy tadkikotchilik institutlari va oliy ukuv yurtlari vakillari, muzeylar, ijobiy uyushmalar, jamoatchilik tashkilotlarining vakillaridan iborat maxsus komissiya tomonidan kabul kilinadi. Komissiya karori akt bilan rasmiylashtiriladi va muzey arxivida saklaniladi.

Montaj ishlari bilan bir vaktida rassomlar ekspozitsiyaning reklamasi uchun materiallarni tayyorlashga kirishadilar. Afisha va taklifnoma biletleri mustakil estetik kimmatga ega bulgan xolda muzey ekspozitsiyasining xususiyatlarini aks ettirishi lozim.

Tayanch atamalar .

1. Ilmiy konseptsiya.
2. Bosh karar.
3. `Skiz loyixasi.
4. Ishchi loyixa.
5. Kirish zonasi.
6. `Kspozitsiya marshruti.

Fodalanilgan adabiyotlar.

1. Muzevedenie. Muzei istoricheskogo profilya. Ucheb.posobie dlya Vuzov po spets. "Istoriya" Pod red K G Levekina, V Xerbsta -M.; vo`ssh.shk.-1988
2. Kliks RR. Xudojestvennoe proektirovanie ekspozitsii -M.;1978
3. Rojdenstvenskiy K I .Ansabl i ekspozitsiya -L.;1970
4. Sodikova N. Muzeynoe delo v Uzbekistane -T.; Fan,1977
5. Xudojestvennoe oformlenie muzeev -M.;1982

14-MAVZU:

TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA MUZEYLARNING URNI

Reja:

Kirish

1. Muzey pedagogikasi
2. Muzeylarning goyaviy-tarbiyaviy, ta`limiy ishlarning turlari va shakllari
3. Muzeyning ommalashuvi. Axborot va reklama

Xulosa

I. Kirish. Ommaviy ishlarning maksadi, vazifalari va xususiyatlari.

Muzeylarning ommaviy-goyaviy, ta'limiy ishi kommunikatsiyasining muhim elementini tashkil qilgan holda, kamolotga etgan, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga, uni o'yaviy, ahloqiy, estetik tarbiyalashga, bilimdonligini, axborotlilikini chuqurlashtirishga yunaltilgan.

Muzey Kommunikatsiyasining ekspozitsiya vistavka va boshqa ko'plab shakllaridan foydalangan holda muzeylar aholining turli ijtimoiy, kasbiy, turli yoshdagi kategoriyalariga ta'sir ko'rsatadi.

Ommaviy ish doirasi muzey faoliyatining boshqa yunalishlari bilan yaqindan alokadorlik asosida ko'rib chiqilmog'i lozim.

Muzeylarning goyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy ishi, ilmiylik, xayot bilan alokadorlik kabm printsiplarga tayanadi.

Muzeylar milliy istiklol mafkurasini xalkimiz kalbiga va ongiga singdirishda, milliy uzligimizni anglashda, ijtimoiy faollikni urgatishda, komil insonni tarbiyalashda juda katta axamiyatga ega. Tarixiy profildagi Muzeylarning tarbiyaviy potentsialini uziga xos xususiyatlari asosida xalkning kup kirali tarixini aks ettiruvchi bevosita guvoxliklar, asl yodgorliklardan foydalanish yotadi. Predmetlilik printsipti, nafakat tarixiy bilimlar targibotining uziga xosligini ta'minlaydi, balki yukori darajadagi isbotlilik, ta'sirchanlik va tabiiyki "tarix bilan tarbiyalash" ning faolligin ta'minlaydi. Muzeylar targibotga kuyilayotgan zamonaviy talablarga amal kilib bilimlarni yanada ishonchlirok, imkon kadam kuogazmali va xotirada mustaxkam koladigan etib etkazishga intiladilar.

Muzey pedagogikasi

Zamonaviy jamiyat muzeyning goyaviy-tarbiyaviy va ta'limiy imkoniyatlaridan mumkin kadam samarali foydalanishdan manfaatdordir. Muzey faoliyatining bu yknalishi nazariy va ilmiy-metodik asoslash zaruriyati yangi maxsus ilmiy fan-muzey pedagogikasining vujudga kelishini belgilaydi.

Muzeyning pedagogik ta'sirini mazmuni, metodlari va shakllari, axolining turli kategoriyalarga ta'sirining xususiyatlari, shuningdek, muzeyni madaniy muassasalar tizimidagiurnini belgilash bilan boglik muammolar muzey pedagogikasining predieti xisoblanadi.

SHuning munosabati bilan muzey pedagogikasi tomonidan:

- muzey pedagogik jarayonning konuniyatlari va ulardan amaliyotda foydalanish, pedagogik raxbarlik darajasini ustirish imkoniyatlari urganiladi.
- Muzeylarning muzey auditoriyasining turli ijtimoiy va yosh guruxlarga pedagogik ta'sirining xususiyatlari aniklanadi
- Turli profildagi, tipdagi, turdagi muzeylar goyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy faoliyati tajribalari umumlashtiriladi va shu asosda ilmiy metodik kursatmalar ishlab chikiladi va takomillashtiriladi.
- Muzeylarning boshka pedagogik muassasalar bilan xamkorlikdagi ishining yanada samarali shakl va metodlari aniklanadi.
- Muzeylarning pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirilishning rivojlanishi prognoz kilinadi.

Muzey pedagogikasi tomonidan xal etiladigan masalalar katoirga ijodiy kobiliyatlarni rivojlantirish, faol xayotiy pozitsiyani ishlab chikish kabi-shaxs shakllanishining turli jarayonlarini faollashtirish xam kiradi.

Muzeyda pedagogik tadbirlarni tashkil etish, ularni boshkarish, yangi shakllarni aniklash va joriy kilish tomoshabinlarni kizikishlarini, muzey axborotini uzlashtirishini urganishga tayanaди Muzey pedagogikasi yoshlarga aloxida e'tibor beradi. Maktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash istikbollidir.

Ishchilar va kishlok axolini muzeylarga jalb etish bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan xisoblanadi.

Muzey pedagoglari va pedagogik tarkibni tayyorlash va malakasini oshirish muzey pedagogikasining asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur fanning ilmiy va amaliy yutuklaridan Oliy ukuv yurtlarida muzeyshunoslarni tayyorlashda, muzey xodimlarini malakasini oshirish institutlari va kurslarida, nazariy va amaliy mashgulotlar dasturini ishlab chikish va uikazishda foydalaniladi.

Muzey pedagogikasi tomonidan ishlab chikiladigan maslalar doirasiga goyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishni tashkil etish va tejalagtirish metodikasi va amaliyoti xam kiradi.

Muzeylarning goyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy ishlarning turlari va shakllari

Muzey faoliyatining bu yunalishi pedagogik faoliyatning bir qismi xisoblanadi va uning oldiga doimo yangi talablar kuyiladi, yanada keng imkoniyatlar ochiladi. Uning fazifalari, shakl va metodlari turli-tumandir.

Ekskursiya ishi.

Asosiy tushunchalar: "Ekskursiya", "Ekskursiya metodi", "Ekskurovod".

Ekskursiya deb muzey va muzey tashkarisidagi ob'ektlarni bilish va tarbiyaviy maksadalarda mutaxassis-ekskurovod raxbarligida belgilangan mavzu va yunalish buyicha jamoaviy tomosha kilishdir. Bu ta'rifga ikki uzaro boglik tushuncha kiradi: ekskursiya muzeyni yoki muzeydan tashkari ob'ektni kurgani kelgan odamlar guruxi va ekskursiya ilmiy pedagogik mexnat turi, u muzey ekspozitsiyasini, vistavka, ob'ektni namoyish kilish tizimini ishlab chikish va amalga oshirishdan iborat buladi.

Muzey pedagoglari tomonidan ishlab chikiladigan ekskursiyalar bir-biridan mavzusining xarakteri, vazifasi, gurux tarkibi, uning istaklari va muzey madaniyatiga oshnoligiga karab farklanadi, lekin bu ekskursiyalarning barchasi bitta umumiy belgiga ega-ular yagona metodik asos-ekskursion metod asosiga kuriladi.

Muzeyga kelgan gurux bilan ekskurovodning bevosita mulokoti ekspozitsion metodning asosiy xususiyati xisoblanadi. Bu mulokot jarayonida, muzey ekspozitsiyas bazasida muzeyning ta'limiy va tarbiyaviy vazifasi amalga oshiriladi

Ekskursion metod asosida kurgazmali idrok, muzey ob'ektining jonli ifodasi yotadi. Muzeyda kullaniladigan "karash bu xali kurish degani emas" ("Smotret' ne znachit' videt'") degan aforizm bor. Bu aforizm ekspozitsion metodning asosiy vazifasini eslatib turadi. Bu vazifa "kurishga" urganish, ya'ni tomoshabin butan ekspozitsiyani va uning aloxida elementlarini tomosha kila turib uning asosiy xususiyatlarini ajrata olishga, undagi axborotni egallay bilishga urgatishdir. Ekskursiya ekskurovod va tomoshabinlar guruxining xaamkorlikdagi ishidir. Guruxlarning kandy tarkibda bulishidan kat'iy nazar ekskurovodning vazifasi guruxning xar bir asosini muzey ostonasidan kadam bosib utgandan sung uziga xos dunyoga, uzining unsiz tilida buyuk tarixiy vokealar xakida xikoya kiluvchi tarixiy manbalar va yodgorliklar dunyosiga tushib kolganligiga ishontirish kerak. Ekskurovod: bilimlilik; e'tikodlilik; nutk madaniyati; mimika; xulk, tashki kurinish.

Muzey tomonidan utkaziladigan ekskursiyalar turli-tumandir. Ekskursiyalar kuyidagilarga karab ajratiladi: utkazish joyi va kursatish ob'ektiga karab, tematikasining xarakteri; maksadli vazifasiga karab; ekskursion guruxlar tarkibiga karab.

Utkazish joyi va kursatish ob'ekti: a) muzey ichida: Ekspozitsiya, vistavka, fond saklovi. b) me'morchilik, tarixiy, madaniy yodgorliklar. v) kompleks ekskursiyalar.

Tematikasining xarakteri:

a) Obzor ekskursiyalar muzey xakidagi umumiy tasavvurlar beriladi. b) Ixtisoslik fani mavzusidagi ekskursiyalar ikki xil buladi. 1) bir nechta tarixiy davrlarni kamrab oladi. Masalan: "Ijtimoiy-iktisodiy farmatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi". v) ixtisoslashtirilgan - tarixiy pozitsiya materiallaridan boshka fanning u yoki bu masalani yoritish uchun.

Maksadli vazifasi:

a) Ilmiy ma'rifiy ekskursiyalar;

b) Ukuv ekskursiyalari (ukuvchilar; utilgan materialni chukurlashtirish, mustaxkamlash; ekskursiya dars).

Ekskursiya guruxlari tarkibi:

Ekskursiya guruxlari, yoki, ijtimoiy, kasbiy va milliy tarkibi, ma'lumoti, yashash joyi bilan farklanadi. Xar biriga bir xil mavzuga uziga xos yondoshish talab kilinadi.

Экскурсиянинг sifati kup jixatdan uni ilmiy va metodik tayyorlashni tashkil etishga boglik buladi.

Экскурсияни tayyorlashning asosiy boskichlarini kursatib utamiz.

Birinchi boskich muzeyning yillik rejasidan kelib chikib ekskursiya mavzusini aniklash, uning mazmuni bilan tanishish. Buning uchun adabiyotlarni, asosan ukuv kullanmalarni va mazkur mavzudagi muzey ekspozitsiyasini boskich - ekskursiya rejasini tuzish. Bu boskichda mavjud adabiy va manbaalar tulik urganiladi, fondlarda maxsus mashgulotlar olib boriladi.

Экскурсияning utkazilishi:

a) namoyishkorona ekskursovod "kurishga" yordam beradi. (kursatishni suz bilan kushilishi). b) xikoyali tomoshabin ekspozitsiyaga suz bmlan, ekskursovodning xikoyasi bilan kiziktiriladi. v) Эvristik (evrika) savol javob shaklida.

g) vazifa berish. d) uyin usuli rolga kirishish. e) ma`ruza illyustratsiya.

Xar bir ekskursiya uch kismdan: kirish suxbati; ekskursiyaning asosiy kismi; yakuniy suxbatdan iborat buladi. Birinchi kism gurux bmlan tanishish va muzeyni tanishtirish uchun juda muximdir.

Boshka turlari.

1. Muzey darslari va yozma ishlar.
2. Tugaraklar va klublar
3. Muzey olimpiadalari va konkurslar.
4. Ma`ruzalar va tematik kechalar.
5. Muzeylar xuzuridagi ilmiy yordamchi kabinetlar uziga xos kichik muzeylar
6. ochik eshiklar kuni (odatda 18 may xalkaro muzeylar kunida).
7. Biror bir soxaviy bayramga bagishlangan tadbirlar.
8. Muzeobus yoki vagondagi muzey.

Mavzuning almashinuvi. Axborot va reklama

Bugun jamiyatimizda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iktisodiy uzgarishlar, xalkning malaniy darajasini usib borishi, tarixga, tarixiy yodgorliklarga kizikishni ortib borishi, oxil-okibat muzeylarning ommalashuviga olib kelmokda. SHu bilan birga jamiyatchilikda axborotni boshlangich maktabdan olishga bulgan intilish kuchaymokda. Briok bu ob`ektiv jarayonlar, muzeyni ommaviylashtirishga kushimcha kuch sarflashdan ozod kilmaydi. Muzeyning ilmiy nashrlari uning ommaviylashuviga katta xissa kushadi. Kataloglar fondlar xakida ma`lumot beradi, muzey predmetlarini tushinishga yordam beradi.

Muzeylarning ommaviylashtirishda va reklamasida ommaviy axborot vositalarining urni juda xam katta. Ular uz dasturlarida va saxifalarida muzey ishini yoritishadi, muzey ekspozitsiyasini, ularda saklanayotgan predmet va kolleksiyalarini kursatishadi, ular xakida xikoya kilishadi, reklama ma`lumotlarini berishadi.

Muzey reklamanning turli shakllaridan foydalanadi. Reklamalar butun axoliga karatilgan yoki muzeyga keluvchilarning biron - bir kategoriyasiga karatilgan bulishi mumkin. Afisha muzey reklamasining an`naviy shakli xisoblanadi. U tasvir va matnning birligida muzeyning bir butun obrazini beruvchi, uning dikkatga sazovor tomonlariga, ekspozitsiya yoki vistavkaga bagishlangan buyokli yoki chizma plakatdir. Afisha dikkatni jalb etish, muzeyga borish istagini xosil kilish kerak. Afishaning mazmuni tez-tez uzgarib turadi, lekin uning ayrim elementlari doimiy bulishi lozim, masalan muzeyning emblemasi.

- 1) esdalik bukletlar; - znachoklar;
- 2) otkritka; - konvert; - marka; kalendarlarda muzey va uning eksponatlarining tasviri.

15-Mavzu: TARIXIY MUZEY BINOLARI

REJA:

1. Tarixiy muzey binolariga kuyiladagan umumiy talablar

2. Muzey binolari :

a) Muzey binolari kurilishi tarixi va evalutsiyasi

b) Yangi muzey binolarini barpo etish

v) Binolar muzey uchun moslashtrish va rekonstruktsiya kilish.

3. Funktsional komplekstar tarkibi topografiyasi .

1. Bu mavzuni urganishda kuzlangan maksad-yangi muzey binolari proekrlarini ishlab chikarishda, eskilarni rekonstruktsiya kilishida e`tiborga olinishi darkor bulgan muzeyshunoslik talablarni yoritishdan, ta`rif berishdan iborat .

Muzeyning yaxshi, effektiv faoliyat yuritishi bino poekti ishlab chikarishda muzeyshunoslik talablariga rioya etilganligiga boglikdir.

Muzey binosiga kuyiladigan talablar kuyidagilar:

1. Tarix, madaniyat yodgorliklari, kolektsiyalar saklanishga sharoitlar yaratilganligi.

Muzey binosi mustaxkam bulishi, joylashgan eridagi ob-xavo sharoitlari moslashtirilgan bulishi zarur. Kolektsiyalar saklash uchun txonalarda maxsus mikroiklim sharoitlari (xavo namligi, yoruglik, biologik sharoitlar), talon taroj etish, vandamizm aktlari yongindan muxofaza etuvchi texnik tizim mavjud bulishi kerak.

2. Ilmiy-ma`rifiy tashkilot sifatida faoliyat yuritish uchun sharoitlar ta`minlanish.

Buning uchun, albatta, namoyish etish, rekreatsion va xizmat kursatish bulimlari maydoni tugri belgilanganligi axamiyatli. Ma`ruzalar va boshka ommaviy tadbirlar uchun xonalar bulishi, tashrif buyuruvchilar uchun makbul sharoitlar yaratilshi samaralidir,

3. Muzeyda ilmiy izlanish faoliyati yulga kuyilganligi.

Buning majburiy sharti kutubxona, ilmiy xodimlar uchun xonalar, nashriyot mavjudligi, kolektsiyalar yuzasidan izlanish mumkinligi.

4. Bino maydonining namoyish etilayotgan va saklanayotgan kolektsiyalar xajmiga mosligi.

Ijtimoiy xayot rivoji ekspanat, kolektsiyalar soni oshishiga, bu esa muzeylar kengaytirilishini talab etadi. Mavjud muzeylarni kengaytirish turt usuli mavjud:

1. Mavjud binoni rekontruktsiya kilish (er osti xonalar kurish , bush erlarga xonalar kurish)

2. Muzey yakindagi binolarni kushib yuborish

3. Filiallar tashkil etish.

4. Muzey binolari loyixasida kengaytirish imkoniyatlarini kuzda tutish bu masalani echimida katta axamiyat yordam beradi.

2.1. Muzey binolarini kurilishi tarixi va evolyutsiyasi. Rossiyadagi ilk muzeylar - bu Kuroi Palatasi va Pyotr I kolektsiyasi - Kunstkameralaridadir.

XVIII acp 20 yillarida I Mattornov loyixasi buyicha kurilgan Kunstkamerada kutubxona, laborotoriya, observatoriya, ilmiy yigilishlar uchun maxsus xonalar bulgan. Kunstkamerada arxeologiya va etnografiya buyumlari, tarixiy kadriyatlar, ilmiy xarakterdagi ekspanatlar bulgan. Kunstkameraning XVIII asrda kurilish uz davrining ulkan yutugi edi .

I.V.Egotov loyxasi buyicha 1810 yili kurilgan Kuroi palatasi binosi, muzey sifatida, usha davrdagi saroy va jamoat binolaridan deyarli farki yuk. Muzey buyumlari inter'erda asosiy urinda emas, balki ichki bezak sifatida foydalanilgan.

1755-1763 yillarda I.G Bryuing loyixasi buyicha kurilgan San-Sisidagi rasmlar galeriyasi, Germaniyadagi san`at asarlari namoyish etish uchun kurilgan ilk binodir. Bu bino bir kavat bulib, uning asosiy maydonini kurgazma zali egallagan.

XIX asrga kelib muzey uz vazifalari mohiyatini uzgartirdi. Ilgari noyob buyumlar yigindisidan u keng omma uchun muljallangan tizimlashtirilgan yodgorliklar tuplami, ma`rifiy-madaniy tashkilot, ilm va san`at dargoxiga aylandi.

XVIII asrdan XIX asr 70-yillarigacha Germaniyada kuplab muzeylar ochildi.

Ulardan kuplari tarixiy binolarni ibodatxonalar (Tsittoddagi shaxar muzeyi, Stendaldagi muzey) burjuaziya xonadonlari (Vismardagi shaxar tarixiy muzeyi, Plotsendagi muzey), kal`alar (Bel'tsiyadagi, Fraybergdagi muzeylar) moslashtirish natijasida vijudga keldi. SHu bilan birga yangilari xam kurildi: Berlindagi eski va yangi muzeylar, Drezdendagi milliy-galleriya.

Rossiyada bu davrda, 1865 yili Dj. Torichilli tomonidan Kerchdagi kadimiyliklari muzey binosi loyixaoashtirildi. 1852 yili yangi Ermitaj binosi (Leo Klents loyixasi buyicha)kurilishi bitkazildi. Usaroy kompleksi bir kismi bulib, Rossiyadagi tashrif buyuruvchilar uchun ochik bulgan birinchi tarix- san`at muzeyi edi. XIX asr 70-yillaridan boshlab Rossiyaning turli shaxarlarida omma uchun ochik muzeylar kurildi.

Rossiyada imperator xokimiyati yukotilgach, xalkning madaniy-ma`rifiy xolatini oshirish maksadida kuplab yangi muzeylar ochildi. Mavjud tarixiy binolar bunday talabni kondira olmasdi.

Muzey binokorligining kup asrlik tirixi yangi muzey binolarni kurishda kuyidagilarga e`tibor berish kerak:

1. Muzey binosi uning saloxiyati, vazifalariga mos bulishi kerak. Bu talablarga rioya etilganda, muzey assotsiatsiya kilish orkali belgi, simvolga aylanadi.
2. Binoni loyixalashtirishda ob-xavo, lanshaft sharoitlari, milliy binokorlik an`analarini xisobga olinishi kerak. Muzey ochik tabiat kuynida kurilganda bino tabiat bilan uygunlashib ketishi kerak.
3. Muzey shaxar tashkarisida kurilganda, bu bino uchun taransport yullariga, turizm uchoklariga yakin joylarni tanlash kerak. Er xududi katta bulganida, yirik ulchamli eksponatlarni ochik tabiatda namoyish etish mumkin.
4. Xududlarni kukalamlashtirish transport vibratsiyalari, shovkin, chang - tuzondan binoni ximoya etadi.
5. Bino xududida muzey sarxadlarini imkoniyatini beruvchi kushimcha erlar bulishi kerak.

2.2. Binolarni muzey uchun moslashtirish va rekonstruktsiya kilish.

Tarixiy muzeylar aksariyat kismi ilgarilari boshka maksadlarga xizmat kilgan ibodatxona, kal`a, saroy, cherkov, dalaxovlilarda joylashgan.

Muzey uchun binoing yarash-yaramasligi, muzeyshunoslik talablariga javob berishi kabi omillar muzey ochish uchun imkoniyat yaratatdi.

Tarixiy axamiyatga ega binolarni muzey uchun moslashtirish mushkul masaladir. Birok tarixiy binolarning uzga binolardan kura tarixiy. ekstetik saloxiyati yirikrokdir.

Tarixiy axamiyatga molik binolardan muzey sifatida foydalanish bino ichki inter'eri saklanganligiga boglikdir. Agar inter'er saklanib kolgan bulsa va u san`at axamiyatiga ega bulsa, bu muzey ochilishiga tuskinlik kiladi.

Inter'er saklanib kolgan tarixiy yodgorliklarda kuyidagi xollarda muzey ochilishi mumkin:

- " inter'er va namoyish etilayotgan muzey buyumlari urtasida xronrologik bogliklik bulsa;
- " inter'er anik bir tarixiy vokea bilan boglik bulsa;
- " inter'er anik bir tarixiy shaxs bilan boglik bulsa;
- " inter'er mustakil xolda tarixiy, san`at kadrini namoyon eta olsa.

Ayrim muzeylar ular joylashgan binolar bilan uzviy boglikdir. Bular birinchi navbatda, saroy - muzeylar, memorial muzeylardir. Bunday muzeylar boshka binolarga kuchirilishi mumkin emas.

Tarixiy axamiyatga molik binolarni muzeylarga moslashtirish tula xajmda olib borilmaydi va aksi, ya`ni fakat moddiy axamiyatga ega binolarni-muzeylarga moslashtirish talab darajasida amalga oshiriladi.

2.3. Funktsional komplekslar tarkibi topografiyasi.

Funksional kompleks - muzey funksiyalari bajarilishini ta'minlovchi muzey xizmatlari birlashmasi, birligidir.

Muzeylarni keyidagi funksional komplekslarga bulish mumkin:

1. Ekspozitsion - namoyish
2. Fond
3. Ilmiy - tadqiqod
4. Ma'muriy - xujalik
5. Injiner - texnik

Ekspozitsion - namoyish kompleksi binoning asosiy kismini egallaydi. Bu kompleksdagi xonalar maydonini yoritish darajasini xolatga karab uzgartirish imkoniyatini bulish kerak. Vaktinchalik namoyishlar xali birinchi kavatda bulishi foydalirokdir. Kup xolatlarda ekspozitsiya asosiy kismi ikkinchi kavatda joylashtiriladi. Ikkidan kuprok kavat mavjud bulsa, ular tulik yoki kisman ekspozitsiya bilan tuldiriladi, ammo kup etajli muzeylar tashrif buyuruvchilar ma'lum bir kiyinchiliklar tugdiradi.

Birinchi kavatda garderoob, bufet, tibbiy punkt, chekish xonasi, xojatxona bulishi zarur.

Fond kompleksi - fondlarni saklash, fondlarni ruyxatga olish, konservatsiya bulimlaridan (zonalaridan) iborat.

Fondlarni saklash bulimida bevosita fondlar va ularni nazorat kiluvchi saklovchilar xonalar buladi. Fondlarga kamida ikkita: bitta organik va bitta noorganik buyumlar uchun xonalar ajratilishi kerak.

Fondlarni ruyxatga olish bulimida xujjatlar saklash kuzda tutiladi. Bu bulim EXM bilan ta'minlanishi kerak.

Konservatsiya bulimida restavratsiya ustaxonalari va laboratoriyalar (fizik, ximik, bioximik) buladi.

Ilmiy-izlanish kompleksi ikkiga bulinadi: informatsiya-izlanish va ilmiy-texnik bulimlar.

Informatsiya-izlanish bulimiga kutubxona, ukuv zali, ilmiy xodimlar xonalari, konferentsiya zali kiradi. Bu xonalar aslo ostki kavatda bulishi mumkin emas.

Ilmiy-texnik bulimda nashriyot, nusxa kupaytirish xizmati va fotolaboratoriyalar bulishi zarur.

Ma'muriy-xujalik kompleksi ikkiga bulinadi: ma'muriy bulim - direktori, uning urinbosarlari xonasi, sekretariat, kantselyariya, kadrlar bulimi, buxgalteriya; xujalik bulimi - muzey xizmatchilari, farroshlar, xizmat kursatuvchi persona xonalari, ombor va garaj.

Injener-texnik kompleks bir necha bulimlarga bulinadi.

Texnik ta'minot bulimi uz ichiga konditsionerlar uchun xonalar, isitish markazi, transformator, nasos, sovitish stantsiyasi, yonginni uchirish stantsiyasini oladi.

Operativ nazorat va aloka bulimida telefon podstantsiyasi, radio va televizor, asboblar uchun omborlar, texnik tizimni boshkarish va nazorat kilish pul'tlari, kuriklash va yongin pul'tlari xonalari jamlangan.

Ilmiy ishlab ustaxonalari bulimida duradgorlik, temirchilik, mukovalash ustaxonalari, asbob-uskuna saklanadigan xonalar mavjud buladi.

SHuni e'tiborga olish kerakki, muzey yukori darajada faoliyat kursatishi va boshka maksadlarda fakatgina ekspozitsion-nomiyish kompleksigagina tashrif buyuruvchilar uchun ochik bulishi kerak. Kolganlari esa fakatgina tegishli shaxslar uchun ochik bulishi maksadga muvofikdir.

Tayanch iboralar:

muzeý binosi loyixasi, mikroiklim, muzeý binolarini kengaytirish usullari, yangi muzeýlar loyixasi uchun talablar, inter'er.

Nazorat uchun savollar.

1. Bu mavzuni urganishdan maksad nima?
2. Muzeý binosiga kandy talablar kuyiladi?
3. Muzeý binosini kengaytirishni kandy usullari mavjud?

4. Muzey binosini loyixalashga kuyiladigan talablar.
5. Muzey binolarini kurilishi tarixi xakida nima bilasiz?
6. Binolarni muzey uchun moslashtirish talablari kanday?
7. Fond bulimi kanday jixozlanishi zarur?
8. Kurgazma zali kaerda va kanday bulishi kerak?
9. Konservatsiya bulimi kanday jixozlanadi?
10. Injener-texnik kompleks kanday bulimlarga bulinadi?

Manba va adabietlar.

1. Muzeyshunoslik. Moskva.1988 yil.
2. Muzeyning xarorat-namlik va eruglik tizimi. Moskva.1971 yil.
3. N.Sodikova. Madaniy edgorliklar xazinasasi. Toshken.1981 yil.
4. Instruktsiya po uchetu i xraneniyu muzeno`x tsennostey v muzeyax sistemo`.- Moskva.1977 yil

Tayanch atamalar

1. Muzey pedagogikasi
2. Ekskursiya
3. Ekskursiya metodi
4. Ekskursovod
5. Ekskursiya guruxi
6. Ekskursiyani tayyorlash boskichlari
7. Ekskursiyani amalga oshirish usullari
8. Afisha
9. Ilmiy yordamchi kabinet.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Muzeevedenie. - M; Vo`ssh.shk.,1988.
- 2.Sodikova N. S Muzeynoe delo v Uzbekistane-T.; Fan, 1977
- 3.Muzeyno`e termino`- M; 1986
- 4.Kirienko E. M. Istoricheskiy muzey - M; 1984
- 5.Obhestvenno`e muzey Uzbekistana- T; Fan, 1988

16-Mavzu: O`zbekiston muzeylari.

REJA:

I. Kirish:

- 1. SHahar muzeylari.**
- 2. Tuman muzeylari.**

II. Sergey Eseninning adabiy muzeyi.

III. Xulosa.

Bir qator jamoatchilik muzeylari shahar, tuman va xatto viloyat xarakteriga ham egadirlar. Bular qatoriga birinchi navbatda Ulu\ Vatan urushi ishtirokchilari xotirasiga tashkil qilingan muzeylarni kiritish mumkin.

Masalan: Namangan viloyatidagi shon-shuxrat uyi alohida obru e`tibor qozongan. Uning 11 mingdan ortiq eksponatlari orasida Namanganlik jangchilar va dunyoni "Jigar rang" vabodan

qutqargan jangchilarning faoliyati haqidagi materiallar bor. Fotosuratlar va maktublar, qarindoshlarning, buyruqlar matnlari va gazeta qirqimlari bularning hammasi zarralardan to'plangan tarixdir. Namangan viloyatida Katta kurgon shaxar shon shuxrat uyi Ulug Vatan urushi frontlarida kurbon bulgan 774 jangchining jasoratlari xakida xikoya kiluvchi materia tuplagan eksponantlar orsida kuplab xujjatlar fotosuratlar gazeta varklari mavjud Dushmanning ta'zirini bergan 76 yili pushka va kaxramon shaxarlarning mukaddas tuproklari solingan yashikchalar tomoshabinlar e'tiborini albatta uziga jalb kiladi. Eksponantlar yigindisi Turakogondagi 3-maktabning "Bars" izkuvar otryadi juda katta rol' uynaydi. Namangan viloyati Turakogon tumani markazdagi jangovar va mexnat shuxrati uyi 1978 yilda tashkil etilgan. Ulug Vatan urishi yillarida 774 turaqor onliklarning Vatan uchun jonlarini kurbon kiladilar. Uy muzeyga kiraverishda motamsaro ona xaykali bor. Unda xaykaltaroshlar Stalinrad uchun bulgan janglarda kaxramonlarga xalok X. Mamadaliyeva obrazini yaratishgan. Kurgazma materiallarini tuplashda sobik janggi geografiya uktuvchisi Ya. Gaffarov raxbarlik kilgan izkuvar ukuvchilarning "Bars" ulkashunoslik otryadi juda katta ishlarni amalga oshirgan. Bolalar shu vaktgacha 50 ga yakin kaxramon janggilarning nomini va jasoratlarini anikladilar. Toshkent viloyati Talabinsk shaxri jangovar shon-shuxrat muzeyida shaxarliklarning jang maydonlaridagi jasoratlari xakida xikoya kiluvchi 100ga yakin xujjatlar tuplangan. Muzeylar tizimida tuman muzeylari ham mavjud bulib ular alxida urin egallaydi. Xatarchi D.R.S.U. bazasida Xatarchi tumani muzeyda 600ga yakin eksponantlar mavjud bulib unga yiliga 14 ming kishi tashrif buyuradi. 1975 yilida Okdaryo tuman muzeyi ochilgan. Muzey tumanning utmishiva xoziri bilan tanishtiruvchi beshta bulimidan iborat. Muzeyda 1,5 mingga yakin eksponnt bulib, yiliga 5ming kishini kabul kiladi. Kitob sevarlar jamiyati Toshkent bulimi va Toshkent shaxar Kuybishev tumani madaniyati bulimi karori bilan 1981yil 10 iyulda Toshkentda S. Eseninning adabiy muzeyi ochildi. Uning kurgazma maydoni 100kv metrni tashkil kiladi 1500ta eksponat. Bu erda buyuk rus shoiri.S Eseninning Toshkentda bulgan davridagi faoliyati va ijodi xakidagi materiallarni tuplangan. Muzey ishini Muzey kengashi boshkaradi. Kurgazma asosiga rus va shark she'riyati birdamligi kuyilgan. Bu kurgazmada Sergey Eseninning turli yillarda yaratgan kuyilgan. Ular orasida "Terednitsi" "Rosiya" va "Revolyutsiya xakida" "Yangilash" asarlari bor. Eksponantlar orasida plastinkalar, kushiklar tuplash, Esenin ovozinig yozuvlari Xloruma rolining ijrochisi aktyor va kushikchi Vladimir Vo`sotskiyning foto suratini kurishimiz mumkin buladi. Uzbekistonda Esenin 23 kun bulgan. Uzbekistonga safar Esenin ijodida chukur iz koldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Obhestvenno`e muzey Uzbekistana T Fan. 1988y.
2. Sado`kov N. S Muzeynoe delo v Uzbekistane. T. Fan 1975y
3. Danielyan V. "Esenin v Tashkente "T.1985god.
4. Petrov O. "Nikto ne zabit" Ponstantikov V. komsomol Uzbekistana. 1986 god 14 mart
5. Muzeevedenie.
N.G.

